MIRZAMAHMUDOV O.T., XAKIMOV M.M,
MIRZAMAHMUDOVA H.T.

AMALIY GEOGRAFIYA O'QITISH USULLARI

MIRZAMAHMUDOV O.T., XAKIMOV M.M,
MIRZAMAHMUDOVA H.T.

AMALIY GEOGRAFIYA O'QITISH USULLARI

USLUBIY KO'RSATMA

(O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun)

Namangan -2017

Uslubiy ko'rsatma sakkiz bobdan iborat bo'lib, birinchi bobida geografiya ta'limining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, ilmiy tatqiqot ishlari bayon etilgan. O'qitish metodlari haqida tushuncha va ularni tanlash tamoillari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor qaratilgan. Ikkinchi bobda O'zbekistonda geografiya ta'limining rivojlanishi bayon etilgan. Uchinchi bobda o'qitish metodlari va ularni tanlash texnologiyalari ko'rib chiqilgan. To'rtinchi bobda geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash xaqida fikrlar yuritilgan. Beshinchi bobda Amaliy geografiya darsi va unga qo'yiladigan talablar xaqida, Oltinchi bobda Amaliy geografiya darsi turlari bayon etilgan.

Ettinchi bobda dars samaradorligiga erishish bo'yicha slaydli taqdimotlarni ishlab chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalariga to'xtalib o'tilgan. Sakkizinchi bobda Amaliy geografiya fanidan taqvimiy mavzular rejasi va nazorat testlari berilgan.

Ushbu kitob Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari geografiya fani o'qituvchilari, talaba, magistr va ushbu masala bilan qiziquvchi barcha mutaxassislarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Baratov A.S. Geografiya fanlari nomzodi, dotsent (NamDU)

Taqrizchilar:

Saydaliev S. – Namangan viloyati o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi metodik xizmat bo'limi boshliq'i

Soliev E. - Geografiya fanlari nomzodi, dotsent (NamDU)

Namangan davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2017 yil 29 iyun kunidagi 10-sonli yig'ilish bayonnomasi qaroriga muvofiq nashr etishga ruxsat berilgan.

© . **Mirzamahmudov O.T., Хакимов M.M, Mirzamahmudova H.T.**

"Namangan", 2017 y.

So`z boshi

O’zbekistoning mustaqillikka erishishi munosabati bilan geografiya ta’limida ham muhim o’zgarishlar sodir bo’ldi. Amaliy geografiyaning mazmuni va tuzilishida tarkibiy o’zgarishlar amalga oshirildi va o’quv tizimiga joriy qilindi.

O’zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to’g’risidagi qonun»ni qabul qilinishi munosabati bilan o’quv qo’llanmalari va darsliklarga bo’lgan talablar keskin o’zgardi. Barcha fanlarda bo’lga-nidek amaliy geografiya fani dasturi va tuzilishi qaytadan ko’rib chiqildi.

Shu munosabat bilan amaliy geografiya fanini o’qitishda ham muhim o’zgarishlar sodir bo’ldi. Amaliy geografiyani o’qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llash munosabati bilan o’qitish usullarida ham qator o’zgarishlar sodir bo’ldi.

Shu munosabat bilan mazkur uslubiy korsatma tayyorlandi. Mazkur uslubiy ko‘rsatma kirish va sakkizta bobdan iborat. Birinchi bobida geografiya ta’limining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, ilmiy tatqiqot ishlari bayon etilgan. O’qitish metodlari haqida tushuncha va ularni tanlash tamoillari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga e’tibor qaratilgan. Ikkinchi bobda O’zbekistonda geografiya ta’limining rivojlanishi bayon etilgan. Uchinchi bobda o’qitish metodlari va ularni tanlash texnologiyalari ko’rib chiqilgan. To’rtinchi bobda geografiya ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo’llash xaqida fikrlar yuritilgan. Beshinchi bobda amaliy geografiya darsi va unga qo’yiladigan talablar xaqida, oltinchi bobda amaliy geografiya darsi turlari bayon etilgan.

Ettinchi bobda dars samaradorligiga erishish bo’yicha slaydli taqdimotlarni ishlab chiqish va interfaol ta’lim texnologiyalariga to’xtalib o’tilgan. Sakkizinchi bobda amaliy geografiya fanidan taqvimiy mavzular rejasi va nazorat testlari berilgan.

Uslubiy ko’rsatmaning 1,2,3,4,5,6 boblari Mirzamahmudov O.T., 7 bobi G’ayrat pedagogika kolleji o’qituvchisi Mirzamahmudova X.T., 8 bobi NamDU qoshidagi 2-akademik litsey o’qituvchisi Xakimov M.M. lar tomonidan yozilgan.

1. «Amaliy geografiya» fanining dolzarbligi va o’qitish strukturasi

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida tabiiy fanlarning tutgan o’rni tobora ortib bormoqda. Birinchi prezident I.A.Karimov Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish, boy tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarimizni qayta tiklashga e’tibor qaratib kelmoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun Prezidentimizning keyingi 25 yil mobaynidagi nutqlari va ma’ruzalari bilan tanishib chiqishning o’zi kifoya.

Ushbu masalalarga oid bilimlarni beruvchi ta’lim yo’nalishi hamda ular o’rtasidagi munosabatlarni optimallashtiruvchi sohalardan biri Amaliy geografiya fanidir.

Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab jamiyat taraqqiy etgan sari inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar murakkablashib bormoqda. Buning natijasida mahalliy, mintaqaviy hamda umumsayyoraviy ekologik muammolar va inqirozlar paydo bo'lmoqda. Ana shunday ekologik muammolar va inqirozlarni o'rganish, baholash va ularning sodir bo'lishini oldindan bashorat qilishda geografiya fanining o'rni va ahamiyati nihoyatda muhimdir. Mazkur muammolarni o'rganish va ularning yechimini topish davomida geografiya fanlari tizimida yangi yo'nalish, ya'ni amaliy geografiya fani paydo bo'ldi va u hozirgi paytda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida tabiiy fanlarning tutgan o’rni tobora ortib bormoqda. Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish, boy tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarimizni qayta tiklashga e’tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu masalalarga oid bilimlarni beruvchi ta’lim yo’nalishi hamda ular o’rtasidagi munosabatlarni optimallashtiruvchi sohalardan biri amaliy geograiya fanidir. Amaliy geografiya fani tabiat tizimidagi tabiiy geografik tatqiqotlar, geografik ekspertiza asoslar ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslari, atrof muxit monitoringi, organizmlar, jumladan, kishilar va ularning atrof – muhit bilan munosabatlariga doir tushuncha, voqelik, hodisa va jarayonlarni tadqiq qiluvchi fandir.

Amaliy geografiyaning maqsadi tabiiy muhit va resurslarni baholash, tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishini bashorat qilishdan iboratdir.

Amaliy geografiyaning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xo’jalik maqsadlarida foydalanish nuqtai nazaridan tabiiy sharoit va resurslarni o’rganish va baholash;
- Tabiiy geografik jarayonlarni o’rganish, baholash va bashorat qilish;
- Inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy muhitning o’zgartirilishi jarayonini baholash va bashorat qilish;
- Umumsayyoraviy, mintaqaviy va maxalliy ekologik muammolarning yuzaga kelish sabablarini ochib berish va ular yechimining geografik asoslarini ishlab chiqish;
- Ishlab chiqarishni xududiy tashkil etish muammolari va aholi joylashuvi masalalarini yechish.

Amaliy geografiya fani bo’yicha egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanadi va amaliyotda qo’llaydi, tabiatdagi jarayonlar va hodisalarni tushunishda amaliy geografiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar to’g’risidagi ma’lumotlardan foydalanadi, amaliy geografik tatqiqotlar va ma’lumotlar bilan ishlaydi, geografik ob’ektlar ustida kuzatishlar olib borib, geografik baholash va bashoratlarni urganadi tajribalar o’tkazadi, o’zining faoliyati oqibatlarini atrof muhit va o’zgalarning sog’ligiga ta’sirini baholaydi va tabiatda o’zini tutish qoidalariga amal qilgan holda sog’lom, turmush tarzi normalariga rioya qiladi.

O’qitishning maqsad va vazifalari

O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan jamiyatimizni yangilash maqsadida ishlab chiqilgan besh tamoyil hayotga sobitqadamlik bilan tatbiq etilayotgan hozirgi paytda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, sog’lom ekologik muhitni ta’minlash,ekologik fojealarning oqibatlarini har bir kishi ongiga singdirish va pirovard natijada ma’naviy barkamol, komil insonni, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlari bo’lib qolmoqda. Bu g’oya to’laligicha o’rta maxsus kasb-xunar ta’lim tizimiga ham taalluqlidir.

Jamiyatimizda ta’lim-tarbiya tizimini sog’lom insonparvarlik yo’nalishida qayta tashkil etish, uni zamon talablari darajasiga ko’tarish, barkamol, ma’naviy dunyosi boy, axloqiy pok, komil insonlarni tarbiyalash kechiktirib bo’lmaydigan, davlat ahamiyatiga, millat

kelajagiga molik vazifa bo'lib turibdi. «Amaliy geografiya» fanini o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida o'qitilishi ham ana shu muhim vazifani amalga oshirilishiga xizmat qilmog'i lozim.

Amaliy geografiya fani inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hamda uning natijasida vujudga keladigan barcha xususiyatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi:

- Amaliy geografik tadqiqot usullari bilan tanishtiradi.
- Tabiiy geografik jarayonlar va ularning xillari haqida tanishtiradi.
- Tabiat komplekslari va ularning barqarorligi hamda uni xo'jalik ishlarida xisobga olish lozimligini o'rgatadi.
- Geografik baholash va bashorat qilish usullari, turlari haqida tushuncha beradi.
- Atrof muhit monitoringi va uni amalga oshirish yo'llarini o'rgatadi.
-Geografik-ekologik ekspertiza va uni amalga oshirish tartiblarini tushuntiradi.
- Ekologik muammolar hamda ularning yechimlarini o'rgatadi.
-Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari bilan tanishtiradi.
- Geosiyosat asoslari, O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi hamda hozirgi zamonning geosiyosiy muammolarini o'rgatadi.
- O'z ish faoliyatida amaliy geografik ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha ko'nikma va malakasini shakllantiradi.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

Amaliy geografiya fani avvalo o'quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqada.

Amaliy geografiya o'quv fani sifatida o'z maqsadi, vazifalari, ob'ekt, uslubiyati, uslubi vositalariga tayanib ish ko'rish bilan birga fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, falsafa, estetika, madaniyatshunoslik, pedagogika, milliy istiqlol g'oyasi kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq. Mazkur fan inson ma'naviy-intelektual o'sishida, ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy, hodisaviy asoslari kabi masalalarda uslubiyat, uslubiy va mazmunan bir-birini to'ldirib kelishini ko'rishimiz mumkin.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa ma'naviy yuksak komil insonning muhim mezonlaridan biri ekologik mafkura mustahkam bo'lishi, millati maqsad va manfaatlarini to'liq anglagan bo'lishi lozimdir.

AMALIY GEOGRAFIYA FANIDAN TAQVIMIY MAVZULAR REJASI

№	Mavzular	Umumiy soat	Nazariy	Amaliy
1	Kirish.Amaliy geografiyaning maqsadi va vazifalari	2	2	
2	Amaliy geografik tadqiqotlar	2	2	
3	Tabiiy geografik jarayonlar	2	2	
4	Jamiyat va tabiatning o'zaro tasiri	2	2	
5	Tabiat komplekslari va ularning barqarorligi	2	2	
6	Tabiiy va inson resurslari,ularni iqtisodiy geografik baholash	2	2	
7	Oraliq nazorat. Geografik bashorat	2	2	
8	Atrof-muhit monitoringi	2	1	1
9	Geografik-Ekologik ekspertiza asoslari	2	2	
10	Ekologik muammolar vaularning yechimi	2	2	
11	Ekologik muammolarni yuzaga kelish sabablarini ochib berish	2		2
12	Ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy asoslari	2	2	
13	Sanoat korhonalarini joylashtirish va texnik loyihalarni asoslashda geografik tadqiqotlardan foydalanish	2	2	
14	Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda geografiyaning ahamiyati	2		2
15	Geosiyosat asoslari	2	2	
16	Geosiyosiy qarashlar	2	2	
17	O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi	2	2	
18	O'zbekistonning halqaro tashkilotlar bilan hamkorligi	2		2
19	Hozirgi zamon geosiyosiy muammolari	2	2	
20	Kelajak geosiyosiy vaziyatiga bar nigoh. Yakuniy nazorat	2	1	1
	Жами	**40**	**32**	**8**

I-BOB. Geografiya ta’limining maqsadi va vazifalari

1.1. Geografiya ta’limi metodikasi haqida tushuncha

Geografiya ta’limi deganda o’quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi.

Geografiya ta’limi metodikasi esa maktablarda va kasb-xunar kollejlarida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o’qitish jarayonini o’rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandir.

Geografiya ta’limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog’langan. Didaktika fani ta’lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta’lim mazmunini tatqik qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani aniq o’quv fanlarini o’qitish metodikasi bilan shug’ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o’kuv fani o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko’nikmalarni shakllantirish (geografiya, biologiya, ximya), ayrimlari faqat ko’nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo’lishni shakillantiradi (tasviriy san’at). Shuning uchun alohida fanlarni o’kitish metodikasi bilan hususiy didaktika fanlari shug’ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o’qitish metodikasi» fani ham kiradi. Geografiya o’qitish metodikasining nazariy va amaliy jixatlari mavjud. Geografiya o’qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

a) geografiya o’kitish metodikasining predmeti, tatqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

b) geografiya o’kitish metodikasining maqsad va vazifalarini umuman va alohida predmetlar bo’yicha aniqlash;

v) ta’lim va tarbiyaning birligi;

Nazariy tatqiqotlarning natijalari amaliy tatqiqotlar uchun asos bo’lib hisoblanadi. Mazkur tatqiqotlarda geografiya ta’limining amaliy muammolari hal qilinadi. Geografiya o’qitish metodikasining amaliy jixatlari o’qituvchini o’qitish faoliyatini, o’quvchini o’qish faoliyatini aks ettiradigan metodlarni ishlab chiqishdan iborat.

Geografiya o’qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat. Umumiy va hususiy geografiya o’qitish metodikasi.

Umumiy geografiya o’qitish metodikasi, bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o’qitish jarayonini o’ziga xos xususiyatini o’rganadi.

Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tatqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tiborni o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limini mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy metodika ikki qismga bo'linadi:

-tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;

-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

Geografiya o'qitishning hususiy metodikasi – alohida o'quv predmetilarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy xolatlarni aniq o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalarini o'rganadi.

Xususiy geografiya o'qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonlarni o'ziga xos hususiyatlarini ishlab chiqadi. Hususiy o'qitish metodikasi alohida geografiya fanlarini mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf gerografiya kursini mazmuni va tuzilishi, geografik tushunchalarni shakllantirish, o'quv ishlari usullarini, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi.

Geografiya o'qitish metodikasining umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

-maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

-maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;

-maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;

-o'qitish materiallarini qo'llashni optimal sharoitlarini asoslash;

-o'qitish vositalarini ishlab chiqish;

-geografiya darslarini tuzilishi, o'lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish;

-geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

-geografik ekskursiyalar, tatqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;

-o'quvchilarda amaliy geografik ko'nikmalarni shakillantirish texnologiyasini takomillashtirish;

Geografiya o’qitish metodikasi o’qituvchilarni, o’quvchilarni o’qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi.

1.2.Geografiya ta’limining maqsadlari va vazifalari

Geografiya fanini maqsad va vazifalari turli davrlarda o’zgarib va qaytadan shakillanib turgan. O’qitishni maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va o’qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish bilan maktab geografiyasining tuzilishi, mazmunini va o’qitish metodlarini turlari bog’liq. Oxirgi davrlarda, asosan XX-asr davomida o’qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e’tibor berildi. Hozirgi davirda ham geografiya ta’limining mazmunini o’zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko’prok e’tibor berilmoqda.

Geografiya o’qituvchisi har bir sinf geografiya kursini maqsadlarini bilishi lozim.

Geografiya ta’limining maqsadlarini uch guruhga bo’lish mukin: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

Ta’limiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

-o’quvchiga tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda amaliy geografiya asoslari bo’yicha mustahkam bilimlar berish. Tabiatdan foydalanishni va uni muhofaza qilishni ilmiy,texnik,iqtisodiy asoslarini ochib berish;

-umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini iqtisodiy, ekologik, politexnik, geosiyosiy bilimlarni egallashlariga imkon yaratish:

- tabiiy geografiya va iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, amaliy geografiya va boshqa maxsus geografik fanlarni yirik xalq xo’jaligi muammolarini yechishdagi o’rni va ahamiyatini ochib berish. Masalan, Orol muammosini yechimini, Sibir daryolari oqimini bir qismini O’rta Osiyoga oqizishni, O’zbekistonning buyuk davlat bo’lishini geografik asoslarini ishlab chiqish;

- o’quvchilarni geografik borliq va hodisalarni o’rganish usullari bilan qurollantirish. Mazkur usullar (metodlar) bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirish;

- o’quvchilarni geografik kartalardan, ma’lumotnomalardan, qo’shimcha adabiyotlardan foydalanishga o’rgatish, egallagan geografik bilimlarini amalda qo’llay bilish ko’nikmalarini shakillantirish. O’quv-

chilarni mustaqil ravishda tegishli mabalardan foydalanib o'z bilmini oshirishga o'rgatish;

- O'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsadlari:

- O'zbekistoning kelajagi buyuk davlat ekanligini asoslab berish, o'quvchilarda Vatanimiz qudrati va ravnaqidan faxrlanish tuyg'ularini shakillantirish;

- o'quvchilarda tabiatdagi va tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarga didaktik nuqtai nazardan qarashga o'rgatish;

- o'quvchilarni ahloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash, ularga Vatanga muhabbat ruhida, Vatanni himoya qilish har fuqoroning oliy burchi ekanligini o'qtirish;

- o'qtuvchilarni mehnat tarbiyasiga va kasb tanlashiga yordam berish, hozirgi zamonda o'z o'rnini topishga ko'maklashish.

O'quvchilarni qiziquvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlar:

- geografik bilimlar va muammolarga qiziqishni uyg'otish;

- o'quvchilarga kuzatuvchanlik, eslab qolish, tafakkur, tasavvur va nutq qobiliyatlarini rivojlanishiga imkon yaratish:

- o'quvchilarni ular imkoniyati doirasidagi geografik muammolarni yechishga o'rgatish, ularda hodisa va jarayonlarga kompleks va sintetik yondashishni shakllantirish.

Maktab geografiyasining vazifalari uning maqsadlaridan kelib chiqadi:

- maktab geografiyasining umumiy va har bir sinf bo'yicha maksadi, mazmunini aniqlash va ularni yanada takomillashtirish;

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda geografik bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga imkon beradigan ta'lim usullarni aniqlash;

- o'quvchilarga amaliy geografik ko'nikma va malakalarni singdirish imkoniyatlarini aniqlash;

- ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini oshiradigan va mustaqilligini ta'minlaydigan samarali usullarni aniqlash;

- umumiy va kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quvchilarni mexnatga o'rgatish, ularga axloqiy , estetik tarbiya berish vazifalarini ochib berish;

- ta'limni tashkil etish turlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

-o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish, sinalgan o'quv metodlarini yanada rivojlantirish;

-yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

-geografiya ta'limida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib dars o'tish usullarini ishlab chiqish;

-darslik, o'quv qo'llanmalari va vositalariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish hamda ular bilan ishlash usullarini ishlab chiqish.

1.3. Geografiya ta'limi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Geografiya ta'limi metodikasi qator tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamda gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'langan. Geografiya o'qitish metodikasini geografiya fani bilan bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-geografiya fani maktab geografiyasi mazmunini asosini tashkil qiladi va uning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya fanidagi yutuqlar va o'zgarishlarni maktab geografiyasining mazmunida va tuzilishida aks ettirib boradi;

- geografiya fanining mazmuni maktab geografiyasining tuzilishida aks etgan. Maktab geografiyasi ikki qismdan iborat: tabiiy va iqtisodiy geografiya. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'tiladigan «Amaliy geografiya» darsligida injinerlik geografiyasining mazmuni aks etgan;

-o'quv vositalari va ular bilan ishlash usullari geografiya fanida qo'llaniladigan usullar bilan aniqlanadi. Masalan geografiyada keng qo'llaniladigan kartografik usul, amaliy geografiyada ham keng qo'llaniladi (kartalar bilan ishlash), dalada olib boriladigan tatqiqot ishlari o'quv- sayohatlarda aks etgan;

- geografiya ta'limining mazmuni va tuzulishi geografiya fanining rivojlanishi bilan muntazam takamillashib boradi. Xozirgi paytda geografiyada yangi-yangi tushunchalar paydo bo'lmoqda: ekologik-geografik sharoit; tizimli usul; geosiyosat: bashorat; baholash va h.k.

Didaktika barcha o'quv predmetlarini metodikasini umumiy ilmiy asosini tashkil qiladi. Geografiya ta'limi metodikasi didaktika fani tomonidan asoslab berilgan qonunyatlar, qonunlar va qoidalar asosida rivojlanadi. Didaktika fani geografiya o'qitish jarayonini tarkibiy qismlari o'rtasidagi qonuniy bog'lanish va munosabatlarni oydinlashtiradi va shu asosida o'qitishni maqsadi, mazmuni, usullari hamda o'qitish jarayonini jihozlashga doir talablarni belgilab beradi. Geografiya o'qitish metodikasi fani didaktika faniga suyanibgina

qolmasdan balki uning rivojlanishi uchun muhim ma'lumotlar beradi. Masalan, o'quvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalarni baholash, geografik tasavvur, tushuncha, g'oyalar tizimini shaklllantirish va boshqalar.

Psixologiya fani o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rgansa, geografiya o'qitish metodikasi esa o'quvchilarning ruhiy faoliyatini, ularning geografik bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini o'rganadi. Geografiya predmetini o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu tufayli geografiya o'qitish metodikasi psixologiya fani bilan chambarchas bog'langan.

Geografiya ta'limi metodikasi ekologiya fani bilan ham uzviy bog'langan. Maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlaridagi geografiya ta'limida atrof-muhit muhofazasiga va tabiiy resruslardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor berilgan. Boshlang'ich tabiiy geografiya kursidan boshlab, o'rta ta'lim geografiya predmetlarida tabiiy resruslardan oqilona foydalanish, tabiat tarkiblarini xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishi, ularni oldini olish va atrof- muhit muhofazasi masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan.

Geografiya ta'limi metodikasi tarix, til va adabiyot va boshqa gumanitar fanlar bilan ham bog'langan. Maktab geografiyasida geografik bilimlarning rivojlanishini, har bir materik va o'lkalarni tabiati va uni o'zlashtirilish tarixini o'rganish tarixiy manbalarni o'rganish bilan bog'liq. Geografik nomlarni to'g'ri yozilishi, ularni talqini, kelib chiqishi va mazmunini aniqlashda tilshunoslik qonunyatlari va qoidalari asosida olib boriladi. Maktab geografiyasida jahon, mamlakatlar va xududlarni o'rganishda, geografik qobiqni tarkibiy qismlari va undagi jarayonlarni o'quvchilarga tushuntirilishida badiiy adabiyotlardagi yorqin ifodalar, talqinlar va tavsiflardan foydalaniladi.

Geografiya o'qitish metodikasi ximiya, biologiya va qishloq xo'jaligi fanlari bilan ham chambarchars bog'langan. Geografik qobiqning kimyoviy tarkibini, tabiatni kimyoviy modddalar bilan ifloslanishini va ularni oldini olish yo'llarini o'rganishda maktab geografiyasi ximiya fanining yutuq-lariiga asoslanadi. Geografik qobiqning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tuproq, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosini va turli xil ekinlarni yetishtirishni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda maktab geografiyasi biologiya va qishloq xo'jaligi fanlari tizimi yutuqlariga asoslanadi.

Geografiya ta’limida ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilishda, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda maktab geografiyasi matematika, statistika va axborot texnologiyalari fanlari yutuqlariiga asoslanadi.

Hozirgi davrda geografiya ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar qo’llanilmoqda va ulardan foydalanishning ilmiy –metodologik asoslari ishlab chiqilmoqda. Mazkur sohada geografiya ta’limi yangi pedagogik texnalogiyalar fani yutuqlariga tayanadi.

1.4 Geografiya ta’limida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish muammolari.

Geografiya ta’limi metodikasining rivojlanishi yangi o’qitish metodlarini ishlab chiqish, majmualarni takomillashtirish, ilg’or metodlarni qo’llash bilan bog’liq. Mazkur muammolarni xal qilish qo’p jihatdan pedagogik tatqiqotlarda qo’llanadigan metodlarga bog’liq.

Geografiya ta’limi metodikasi bo’yicha tatqiqot ishlarini olib borishni dastlabki manbai bo’lib O’zbekiston Respublikasining ta’lim to’g’risidagi qonuni, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi va boshqa hukumat qarorlari asos bo’lib hisoblanadi.

Xar qanday fanda ham tatqiqod metodlarini ishlab chiqish va tatqi-qotlar olib borish metodologiya va ilmiy tatqiqod metodlari tushunchalari bilan bog’liq

Metodologiya – bu borliqni bilish va o’zgartirish metodlari haqidagi ta’limotdir.

Ilmiy tatqiqod metodlari – bu tadqqod olib borish usullaridir.

Geografiya ta’limi metodikasida ilmiy tatqiqot metodlari ikkita katta guruhga bo’linadi: eksperemental-emprik va nazariy metodlar;

Eksperimental-emprik usullar pedagogik tatqiqotlar bosqichida qo’llaniladi, nazariy usullar esa yig’ilgan ma’lumotlarni umumlashtirish va nazariyalar tuzish bosqichida qo’llaniladi.

Geografiya ta’limini rivojlanishini dastlabki bosqichlarida asosan eksperimental-emprik usullar qo’llanilgan. Ammo XX-asrning 2-yarmidan boshlab geografiya ta’limi metodikasining nazariy jixatlarini rivojlanishi oqibatida u xususiy didaktika faniga aylandi. Metodik tatqiqotlarda nazariy usullar va ularning alohida qismlari keng qo’llanila boshlandi. Masalan, tizimli-tarkibli yondoshish, bilimlarni mantiqiy didaktik tahlil i, o’quv materialini tarkibiy- mantiqiy va mantiqiy tushuncha tahlil i.

Tatqiqot usullarini tanlash qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Masalan, muammoning dolzarbligi, maqsad va vazifalarni aniqlash va boshqalar mavjud ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilishni talab etiladi.

1.4.1.Nazariy tatqiqot usullari

Nazariy tatqiqot usullariga adabiyotlarni tahlil qilish, statstik-matematik, tarixiy, qiyosiy va tizimli usullar kiradi.

Adabiyotlar bilan ishlash usuli. har qanday ilmiy ish shu sohada e'lon qilingan adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish bilan boshlanadi. Mazkur usul yordamida boshqa tatqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar to'planadi va o'rganiladi va umumlashtiriladi. Geografiya ta'limi metodikasida quyidagi sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilingadi: ta'lim bo'yicha davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar, qarorlar va boshqa xujjatlar; bilish nazariyasi bo'yicha falsafiy adabiyotlar o'rganiladi; mantiq, psixalogiya va didaktika bo'yicha ma'lumotlar o'rganiladi va tahlil qilinadi: o'qitish metodikasi bo'yicha e'lon qilingan ilmiy ishlar alohida tahlil qilinadi; Adabiyotlar tahlil i amalga oshirilgandan so'ng o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, o'rganil-may qolgan jihatlari aniqlanadi.

Statistik- matematik metodlar. O'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tatqiqotlar natijalarini hisobga olish va ularni umumlashtirish maqsadida qo'llaniladi. Miqdoriy ko'rsatgichlarni tanlash ularni tartibga keltirish va tahlil qilish metodik tatqiqotlarda katta ahamiyatga ega. Chunki ular juda ko'p pedagogik tatqiqotlarning o'lchami hisoblanadi. Miqdoriy ko'rsatgichlar yordamida tarbiya va o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik vositalarning qanchalik foydaliligini aniqlash mumkin.

Qiyosiy usul. Mazkur usul yordamida fandagi va maktab geografiya-sidagi bilimlar tizimi, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar, o'quv vositalari, baholash usullari, dars turlari tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bu esa tatqiq qilinayotgan muammoni umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi.

Tarixiy usul. Mazkur usul yordamida o'rganilayotgan metodik muammoning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Bundan tashqari ma'lum bir muammoni ayrim davrlarda rivojlanishini ham ochib beradi.

Tizimli - tuzilish usuli. Bu umumiy fanlararo tadqiqot usuli bo'lib XX-asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy-tatqiqot ishlarida keng qo'llanila

boshlandi. Mazkur usul bir butun bo'lgan geografik borliqni eng muhim xususiyatini ochib berish va uni tarkibiy tuzilishining darajalarini aniqlashdan iborat. Geografiyani o'qitish metodikasida mazkur usul yordamida ma'lum bir tizim tizimchalarga bo'linadi. Geografiya o'qitish metodikasida o'quv materiali tizim sifatida qaraladi, uning tarkibiy qismlari esa tizimchalar sifatida qaraladi.

Tizim-tuzilish usullarini tarkibida mantiqiy-tuzilish tahlil i mavjud. Mazkur usul yordamida o'quv materialining tuzilishi va ularni bayon etilishining ketma-ketligi aniqlanadi. Mazkur usul bir butun geografik borliqni tuzilishini tatqiq qilishga imkon beradi va undan alohida qismlarni ajratishga va ular orasidagi bog'liqliklarni ochishga yordam beradi.

1.4.2. Eksperimental-emprik usullar

Mazkur usullarga asosan maktab tajribasini o'rganishga yo'naltirilgan usullar kiradi. Ular kuzatish, anketa, maktab xujjatlarini tekshirish usullari va pedagogik eksperiment kiradi.

Kuzatish. Eng keng tarqalgan pedagogik tatqiqot usuli hisoblanadi. Mazkur usul pedagogik jarayonni bilishni eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Har qanday o'qituvchi darsni kuzata bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'li lozim. Kuzatish metodikasi tuzilishi, mazmuni, turi, kuzatish texnikasi o'rganilayotgan muammoni mohiyati va xususiyatlari, tatqiqod metodlariga bog'liq.

Kuzatish turli xil bo'ladi, ular dasturi, tashkil qilinishi va maqsadiga ko'ra ma'lum bir guruhlarga bo'linadi.

Kuzatish ob'ektlari o'quv ishlari usullari, darslarda o'quvchilarni tashkil qilish, uyga vazifa berish, o'qitish metodlarini va vositalarini tanlash hisoblanadi.

So'rovnoma (anketa) usuli. Mazkur usul geografiya ta'limida keng qo'llaniladi. Bunda turli metodik ma'lumotlar uchun ma'lum bir yo'nalishda ma'lumotlar yig'iladi. So'rovnomaning mazmuni o'quvchilar, o'qituvchilar va metodistlar uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, iqtisodiy va ijtimoiy georgrafiya predmeti bo'yicha o'qituvchi uchun so'rovnoma mazmuni o'qitish metodlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagicha bo'lishi mumkin:

1.O'quvchilarni faoliyatini tashkil qilishda qanday usullardan foydalanasiz: a) yangi mavzuni o'qitishda; b)o'quvchilar bilmini tekshirishda;

2.Sizni darslaringizda ko'proq qaysi metod asosiy bo'lib hisoblanadi?

3.Sizni darslaringizda VIII-IX sinf o'quvchilarning ishlari nimasi bilan farqlanadi: a) karta bilan ishlanadi; b) darslikdagi rasmlar bilan, jadvallar bilan;

4.O'quvchilar qobiliyatini qanday vositalar va usullar bilan rivojlantirasiz;

5.O'quvchilarni bilish faoliyatini qaysi darajada tashkil qilasiz; a) bilimlarni tayyor holda berasizmi? b)materialni faqat bir qismini o'zingiz tushuntirasiz? v) mavzuni o'quvchilar o'zlari mustaqil o'zlashtirishadi.

O'qituvchilardan so'rovnoma o'tkazish bilan bir vaqtning o'zida o'quvchilar bilan ham so'rovnoma o'tkaziladi. O'quvchilar uchun so'rovnoma mazmuni quyidagi jadvallarda berilgan.

O'quvchilar uchun so'rovnoma

Yangi materialni qaysi usulda o'rganilganda siz yaxshi esda saqlab qolasiz va yaxshi tushunasiz? Agar darsni yaxshi tushunsangiz va eslab qolsangiz «+» belgisini yoki tushunishga qiynalsangiz «-» belgisini qo'ying. **1-jadval**

№	Yangi mavzuni o'rganish usuli	+	-
1	O'qituvchini og'zaki tushuntirishi		
2	O'qituvchini topshirig'iga binoan mustaqil ish bajarish		
3	Sinfda suxbat o'tkazish: a)o'quvchi savollariga javob berish: b) sinfdoshini javobi asosida xulosa chiqarish		
4	O'qituvchi bilimlarni hammasini o'zi tushuntirib beradi va tayyor holda beradi		
5	Bilimlarni ma'lum bir qismini o'zingiz o'qituvchi topshirig'iga binoan karta va darsliklar bilan ishlash davomida olasiz.		
6	Sinfdoshlar ma'ruzasi va habarlari		
7	O'qituvchining tushuntirishi		
8	Atlaslar va darslikdagi kartalar bilan ishlash		
9	Kinofilmlar, videofilmlar va deapozitivlar bilan ishlash		
10	Sinfda darslik bilan ishlash		
11	Axborot vositalari bilan ishlash		
12	O'qituvchi yordamida amaliy ishlar bajarish		
13	Olingan bilimlar asosida yangi mavzuni mustaqil o'rganish		
14	Turli xil usullarni birga qo'llash		
15	Yana qanday usullar sizni yangi mavzuni o'zlashtirishingizda yordam beradi		

So’rovnoma asosida olingan ma’lumotlar matematik usullar bilan qayta ishlanadi va umulashtiriladi. Turli viloyatlarda o’tkazilgan so’rovno-malarning javobi mos bo’lsa o’rganilayotgan pedagogik jarayonlarning to’g’riligini tasdiqlaydi.

Pedagogik eksperiment. Pedagogik tadqiqotlar eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Uning yordamida har bir o’qitish metodlarni afzalliklarini aniqlash mumkin.

I.S.Matrusov fikricha pedagogik eksperiment deganda nazorat qilinayotgan va hisobga olinayotgan sharoitda tadqiq qilinayotgan pedagogik jarayonlarni kuzatishga imkon beradigan ilmiy jixatdan tashkil qilingan ta’lim va tarbiya tajribasidir. Pedagogik eksperimentning maqsadi o’rganilayotgan voqea va hodisalarni qonuniyatlarini aniqlash, u yoki bu metodik masalani mohiyatini ochib berishdir.

Pedagogik eksperimentga quyidagi talablar quyiladi:

-pedagogik eksperiment mukammal darajada loyihalashtirilgan bo’lmog’i lozim;

-u metodologik jixatdan asoslangan gipotezaga tayanmog’i lozim;

-o’rganilayotgan muammo o’zida qarama-qarshiliklarni va yangiliklar kurtagini aks ettirmog’i lozim;

Pedagogik eksperiment o’tkaziladigan vaqti, o’rganilayotgan xodisalar tarkibi, tashkil qilinishiga ko’ra turlicha bo’lishi mumkin. Pedagogik eksperimentlar o’tkazilish vaqtiga ko’ra qisqa va uzoq muddatli, o’rganilayotgan hodisani tarkibiga ko’ra oddiy va murakkab, tashkil qilinishiga ko’ra tajribali (bir guruh o’quvchilar bilan o’tkaziladi), tabiiy (bir sinf bilan, yoki bir necha maktabdagi bir xil sinflar bilan o’tkaziladi), kompleks eksperimentlarda tajriba va tabiiy usullar uyg’unlashgan holda qullaniladi. Oldiga qo’ygan maqsadiga ko’ra pedagogik eksperimentlar tasdiqlovchi, (mavjud qoidalarni) shakillantiruvchi yoki yaratuvchi, nazorat qiluvchi yoki nazorat turlariga bo’linadi.

Pedagogik eksperiment yordamida nazariy holatlar tekshiriladi, ta’lim va tarbiya jarayoni haqida to’la va aniq ma’lumotlar olishga imkon beradi.

«Eksperiment» va «Tajriba» tushunchalarini chalkashtirmaslik lozim. Eksperemental ishlar aniq hisobga olinadigan sharoitlarda o’tkaziladi, uning natijasida aniq bir nazariy holatlar olinadi. Shuning uchun eksperent natijasida aniq maksadlar amalga oshiriladi. Demak,

eksperiment deganda pedagogik jarayonda bo'ladigan qonuniy aloqalarni o'rganish tushuniladi.

Tajriba ishlari yordamida yoki ishlab chiqarilgan usullar o'quv jarayoniga qanday ijobiy ta'sir qilgani aniqlanadi. Qisqa qilib aytganda pedagogik eksperiment natijasida olingan nazariy xolatlarni amalda qo'llash mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun o'qitish eksperimental va asosiy sinflarda bir vaqtning o'zida olib boriladi.

Demak, tajriba ishlari eksperimental tadqiqotlar asosida yaratilgan metodik tizimlarni samaradorligini tekshirish vositasidir.

Bundan tashqari yana quyidagi usullar mavjud:

-suxbat usuli, bunda tadqiqotchi o'qituvchilar, o'qtuvchilar va maktab raxbariyati bilan ma'lum bir mavzu bo'yicha suxbatlashadi;

-maktab xujjatlarini o'rganish usuli. Bunda sinf jurnallari, dasturlar, o'qituvchi xujjatlari, o'quvchilarning yozma ishlari, sinfdan tashqari ishlar va mustaqil va amaliy ishlar xujjatlari o'rganiladi.

1.5. Metodik tadqiqotlar bosqichlari

Ta'lim va tarbiya ishlarini ma'lum bir maqsadlar va yo'nalishlarda borishi, ularning samaradorligi ilmiy pedagogik ishlarning to'g'ri tashkil qilinishiga hamda ularning natijalariga bog'liq. Shu maqsadda metodik tadqiqotlar bir necha bosqichlarda olib boriladi.

Ular quyidagilardan iborat:

-muammoning qo'yilishi;

-tadqiqot ob'ekti va predmetini tanlash;

-tadqiqotni maqsad va vazifalarini aniqlash;

- ishchi g'oyani ishlab chiqish;

-ishlab chiqilgan g'oyani pedagogik tajribalarni kuzatish va eksperimental ishlarni bevosita o'rganish asosida tekshirish;

-olingan yangi ma'lumotlar va bilimlar asosida nazariy xulosalar ishlab chiqiladi va tadqiqot natijalarini tekshirish amalga oshiriladi.

Muammoni qo'yish bosqichi. Mazkur bosqichda tanlangan mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar o'rganib chiqiladi, natijada muammoning tarixi va nazariyasi o'rganiladi, maktablarning tajribasi va yuqori pedagogik tajribalar tahlil qilinadi. Buning natijasida muammoning o'rganilganlik darajasi aniqlanadi. Muammoning qaysi tomonlariga to'la va mukammal va qaysi tomonlariga kam yoki umuman o'rganilmaganligi aniqlanadi. Mazkur ish davomida nazariy xolatlar tahlil qilinadi va o'quv jarayonining aniq xolatini tavsifi tuziladi. Bunday tadqiqot

tasdiqlovchi eksperiment usuli deb ataladi. Ushbu bosqichning oxirida tadqiqot ishlarini kengaytirilgan dastur loyihasi ishlab chiqiladi.

Tadqiqot ob'ektlari va predmetini tanlash bosqichi. Mazkur bosqichda muammoning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiqotning ob'ekti va predmeti aniqlanadi. Tadqiqotning ob'ekti bo'lib ma'lum bir sinfda olib boriladigan o'quv jarayonining ba'zi jihatlari bo'lishi mumkin.

Masalan, «Boshlang'ich tabiiy geografiya» kursida tabiatni kuzatish ko'nikmalarini shakllantirish ishning predmeti bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy geografiya tushunchalarini shakllantirishda tadqiqot ob'ekti bo'lib «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kursi bo'lishi mumkin, tadqiqot predmeti bo'lib esa iqtisodni o'qitish texnologiyasi bo'lishi mumkin.

Tadqiqotni maqsad va vazifalarini aniqlash bosqichi. Mazkur bosqich eng muhim bosqich bo'lib hisoblanadi. Maqsad va vazifalarni to'g'ri va aniq ishlab chiqilishi keyingi bosqichlarda ishlarni to'g'ri va aniq loyihalashtirishga va amalga oshirishga yordam beradi. Odatda maqsad va vazifalar muammoni hozirgi holatiga baho berish asosida o'rganiladigan muammoni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ishchi g'oyani ishlab chiqish. Ishchi g'oyani ishlab chiqish pedagogik eksperimentning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqilgan ishchi g'oya butun tadqiqot davomida olib boriladigan ishlarni asosiy o'zagi bo'lib hisoblanadi. Masalan, umumta'lim maktablarida kartografik tushunchalarni shakillantirish g'oyasi 5-sinfdan 9-sinfgacha davom etadi va tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan g'oyani sinash. Ushbu bosqichda pedagogik ekspe-riment, kuzatish va boshqa usullar orqali ishlab chiqilgan g'oya tekshiri-ladi, uning axamiyati, samaradorligi baholanadi.

Nazariy xulosalar ishlab chiqish. Tadqiqot davomida olingan natijalar umumlashtiriladi va nazariy hulosalar ishlab chiqiladi. Uning asosida ishlab chiqilgan g'oyalar va ilmiy holatlarnining samaradorlik darajasi aniqlanadi va u yoki bu metod tanlab olinadi va yangi metodik tizim ishlab chiqiladi. Yangi ishlab chiqilgan metodik tizimning afzalligini aniqlashni asosiy o'lchovi bo'lib o'quvchilarning bilim va malakalarini sifati hisoblanadi. Shuning uchun ayrim metodlarni samaradorligini aniqlashda tadqiqotlar ikkita paralel sinflarda olib boriladi, ya'ni eksperimental va oddiy. Oddiy sinflarda dars qabul

qilingan metodikani qo'llash orqali o'tkaziladi, eksperimental sinflarda esa yangi ishlab chiqilgan usul yordamida o'tkaziladi. So'ngra eksperimental va oddiy sinflardagi o'quvchilar bilimlari solishtiriladi.

Metodik tadqiqotlar bosqichlari (Matrusov bo'yicha)

2-jadval

	Bosqichlar	**Misollar**
1	Tadqiqotning asosiy muammolarini aniqlash (adabiyotlar va maktab tajribasini o'rganish asosida)	1. Darslik bilan ishlash usullari
2	G'oyani olg'a surish	2.O'quvchilarning bilimi va ko'nikmasi quyidagi hollarda yuqori bo'ladi: a) ular darslikni tuzilishi va metodik jihozi bilan tanish bo'lsa; b) darslikning metodik jihozlarini ayrim element-laridan foydalanish usullarini bilishsa; v) o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini tekshi-rishda, dars jarayonida darslik keng qo'llanilsa; g) dars davomida darslikdagi matn, kartalar, sonlar, rasmlar, jadvallar, savol va topshiriqlar bilan doimiy ishlab borilsa;
3	Asosiy muammoni yechish va g'oyani tekshirish jarayonida vazifalarni aniqlash va shakllantirish	3.Ishni ratsional usullarini aniqlash: -matn bilan; -sonli materiallar bilan; -karta va rasmlar bilan; -darslikdagi savol va topshiriqlar bilan.
4	Tadqiqot metodini tanlash	Darslikni metodik jihozini tahlil iga, darslardagi kuzatishga va eksperimentga tizimli-tarkibli yondoshish
5	Har bir vazifani yechish uchun eksperimental materiallarni tayyorlash	5.Darsning turli bosqichlarida darslikning turli variantlaridagi metodik jihozlanishida o'quv-chilarning mustaqil ishlari uchun tematik va dars planini, topshiriqlarini va tarqatma didaktik materiallarni, o'quvchilarni

	Bosqichlar	Misollar
		aqliy va amaliy xara-katlari tartibi haqida ko'rsatmalar ishlab chiqish va x.k
6	Eksperimentni o'tkazish	6.Eksperimental sinflarda darslik bilan munta-zam ish olib boriladi: nazorat sinflarida esa odatdagidek.
7	Tadqiqotni xulosalarini ishlab chiqish	7.Xulosada darslik bilan ishlash o'quvchilarni bilim va malakasiga qanday ta'sir ko'rsatgani, darslik bilan ishlashni qanday usullari yaxshi samara berishi ifodalaniladi.
8	Olingan natijalarni amaliy axamiyatini ko'rsatish	8.Tadqiqot natijalari o'quvchilar uchun darslik bilan ishlash bo'yicha metodik ko'rsatma tayyorlashda qo'llaniladi.

Oxirgi paytlarda metodik tadqiqotlarda sotsiologik ekspert va test usullari keng qo'llanilmoqda.

Sotsiologik tadqiqotlarda turli mutaxasisliklar o'rtasida anketa so'rovi o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar statistik-matematik usullar yordamida qayta ishlanadi va ularning natijalarini tahlil i asosida gaografiya ta'limi mazmuniga o'zgarishlar kiritiladi.

Ekspert usullari yordamida ishlab chiqilgan muammoni yechish yo'llari aniqlanadi, masalan, geografiya ta'limi mazmuni, o'qitish metodlari va boshqa masalalarni muxokama qilishda qo'llaniladi. Bunda asosan ekspertlar xulosalari tahlil qilinadi.

Test usuli hozirgi davrda eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Uning natijalari asosida har bir o'quvchining va sinfning bilim darajasini aniq baholash mumkin.

II-BOB. O'ZBEKISTONDA GEOGRAFIYA TA'LIMINING RIVOJLANISHI

O'zbekistonda jumladan O'rta Osiyoda geografiya ta'limining rivojlanishi uzoq tarixga ega. O'rta asrlarda geografiya ta'limining markazi sharqqa ko'chgan. Mazkur davrning buyuk geograflarini asosiy qismini yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk o'zbek olimlari tashkil qiladi. Ularga Axmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek, Zaxiriddin Muxammad Bobur va boshqalar kiradi.

2.1. XIX arsning oxiri va XX asr boshlarida geografiya ta'limining rivojlanishi

Mazkur davrda yurtimizda geografiya ta'limining rivojlanishi rus-tuzem maktablarining ochilishi va mazkur maktab o'quvchilari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan XIX arsning oxiri va XX asr boshlarida o'zbek tilida juda ko'p darslik va qo'llanmalar chop etildi. Ushbu davrda geografiya fanini rivojlanishi ma'lum bir omillarga bog'liq bo'lgan. Jumladan Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng, uni boshqarish uchun rus tilini biladigan mahalliy millat vakillari zarur edi. Ikkinchi tomondan XIX-arsning oxirlarida Turkistonda milliy uyg'onish davri boshlandi, ya'ni jadidchilik davrida millat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida yangi usul maktablari tashkil qilina boshlandi.

Mazkur maktablarda geografiya fanini o'qitishga alohida e'tibor berilgan. Jadidchilik davrida chop etilgan geografik darsliklar, qo'llan-malar yaratilish tarixi O.Mo'minov (1986), B.Qosimov (1999), D.Alimova va D.Rashidova (1998), X.Vaxobov va N.Alimova (2001) va boshqalar tomo-nidan o'rganilgan.

O.Mo'minov ma'lumotiga binoan 1870 yildan boshlab o'zbek tilida "Turkiston viloyati" gazetasida nashr qilina boshlandi. Mazkur gazeta saxifalarida geografiyaga oid juda ko'p maqolalar e'lon qilina boshlandi. Unda Maxmudxo'ja Bexbudiy, Zokirjon Furqat va boshqalarning sayohatnomalari xaqidagi ma'lumotlar e'lon qilina boshlandi bu esa o'sha davrdagi ziyolilarni dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi. XIX-arsning 80-yillarida Turkistonda "rus-tuzem" maktablari tashkil qilinishi boshlandi. Mazkur maktablar uchun 1890 yilda nemis olimi A.Geykiyning "Er xususidagi ilmdan olingan so'zlar" nomli kitobi 1899 va 1901 yillari nashr etildi, 1910 yildan so'ng rus-tuzem maktablarining 3

va 4 sinflar uchun xaftasiga 4 soat geografiya darsi o'quv rejasiga kiritilgan, bu esa boshqa fanlarga nisbatan ancha ko'p edi.

Toshkentda 1900 yili "Yangi usul" maktabi ochildi, mazkur maktablarda geografiyaga alohida axamiyat berildi. 1905 yil Samarqanddagi yangi usul maktablari uchun o'zbek tilida "Turkiston va unga qo'shni mamlakatlar kartasi" nashr qilinadi. Shundan so'ng o'zbek tilida qator darslik va qo'llanmalar chop etila boshlandi: 1909 yil Fotix Karimning geografiya fani bo'yicha darsligi Orenburgda nashr etiladi. 1914 yil Muxammad Amin Karimiyning "Jug'rofiyai riyoziy" (Matematik geogra-fiya) 4 va 5 sinflar uchun nashr qilindi. 1915 yil "Er yuzi" darsligi chop etiladi.

Ushbu davrda eng mashxur allomalardan biri Maxmudxo'ja Bexbudiy bo'lib, uning tomonidan "Yangi usul maktablari" uchun "Turkiston kartasi", "Muntaxabi jug'rofiyaiy umumiy" (qisqacha umumiy geografiya), " Madxali jug'rofiyaiy imroniy"(Aholi geografiyasiga kirish),"Muxtasari jug'rofiyaiy Rusiy" (Rusiyaning qisqacha geografiyasi) darsliklari va qator sayohatnomalar e'lon qilingan.

Maxmudxo'ja Bexbudiyning "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya" darsligi 1905 yili 24 avgustda Sankt-Peterburg tsenzurasidan ruxsat olinib, 1906 yil Samarqandda chop etilgan va **106** saxifadan iborat bo'lgan. Darslik adibning tanlangan asarlarining (**1999 y**) kirish qismida geografik nuqtai nazardan juda yaxshi va har tomonlama tahlil qilingan. Darslikning muhim va ilmiy - metodik jihatlaridan biri u Turkiston nuqtai nazaridan, Turkiston aholisining bilim saviyasi nuqtai nazaridan yozilganidir. Darslikdagi har bir mavzu yoritilganda Turkiston tabiati, xo'jaligi, aholisi to'g'risida albatta misol keltiriladi yoki mazkur bilimlar Turkiston xaqidagi bilimlar bilan solishtiriladi. Demak, Maxmudxo'ja Bexbudiyni darsliklarda o'lkashunoslik ma'lumotlaridan foydalanish va yosh avlodga, vatanga nisbatan muxabbat tushunchalarini shakllantirishni asoschilaridan biri diyishga to'la asosimiz bor. Chunki umumdunyoviy bilimlar o'lkashunoslik bilimlari bilan chambarchas bog'langan holda berilgan. Bundan tashqari darslikda asrimiz boshlaridagi Turkistonda dunyoviy bilimlarni o'qitish xolati va ommaning hamda ulamolarning bilim darajasiga ham aniq va haqqoniy baho berilgan.

Darslikning mazmuni quyidagidan iborat: kirish; "jug'rofiya" degan so'zning ma'nosi; jug'rofiya qachon paydo bo'lgan; Turkistonlik donish-

mandlar; jug'rofiyani o'qimoqni nafi; jug'rofiyani o'qimoq musulmonlarga lozimdir; eski va yangi donishmandlar; yangi muxokamani so'zidan namuna; Yer aylanganda ustidagilar yiqilmasligi; atrof; jixoyati asliya; karta; plan; xukumat va xukumronlar; din va odat; o'lchak miqiyos; Amriqoning topilishi; tavsil va tabix.

"Geografiya" so'zining ma'nosini Maxmudxo'ja Bexbudiy ta'rifi bo'yicha "Er va tuproqni bayon qilaturg'on ilimni aytadur". Darslikda geografiyani quyidagi tarmoqlari ajratiladi: "Matematik geografiya" (Jug'rofiyai riyoziy), Tabiiy geogrfiya (Jug'rofiyai tabiiy), Tarixiy geografiya (Jug'rofiyai tarixiy), Siyosiy geografiya (Jug'rofiyai siyosiy) va x.k. lar. Xulosa qilib adib geografiyani dunyo va undagi tabiiy va ijtimoiy xodisalar xaqida bilim beradigan jahonnomadur deb ta'rif beradi.

"Geografiya qachon paydo bo'lgan" qismida geografiyaning qisqacha rivojlanish tarixi quyidagi bosqichlarga bo'linib yoritiladi: qadimgi, o'rta asrlar, buyuk geografik kashfiyotlar va hozirgi bosqich. Har bir bosqichda geografik bilimlarning rivojlanishi chuqur tahlil qilingan.

"Turkiston donishmandlari" bo'limida Turkistonlik allomalarning geografiya faniga qo'shgan xissi yoritilgan. Mazkur bo'limda Turkiston tarixida tilga olinmagan allomalarning nomlari ham uchraydi.

"Jug'rofiyani o'rganmoqni nafi" bo'limida gerafik bilimlarni kundalik xayotda va ta'limda naqadar ahamiyatli ekanligini misollar tariqasida yoritib berilgan.

"Jug'rofiyani o'rganmoq musulmonlarga lozimdur" bo'limida musulmon allomalari asarlariga tayangan holda musulmonlar uchun geografik bilimlarni ahamiyati ochiib berilgan.

"Atrof; Jixoyati Asliya; Karta; Plan" bo'limida ufq va ufqning asosiy va oraliq tomonlari, karta va plan xaqida bilimlar tizimi berilgan. Kartaning Bexbudiy ajratgan turlari hozirgi turlarga mos keladi (umumiy, mavzuli, topografik) "kartai umumiya, kartai xususiy, kartai to'pugrafik".

"Xukumat va xukumronlar" bo'limida davlatlarni boshqarishning turlari keltirilgan bo'lib, mazkur turlar xozirgi turlarga diyarli mos keladi.

"Din va odat" bo'limida din geografiyasi, aholi geografiyasi haqida to'xtalib o'tilgan. Xulosa qilib aytganda, mazkur darslik juda katta amaliy va ilmiy axamiyatga ega. U o'lka geografiyasini rivojlanishida

juda muxim axamiyatga ega bo'lgan asardir. Uning har bir bo'limi alohida tahlil ga sazovordir.

2.2. XX arsda O'zbekistonda geografiya ta'limining rivojlanishi

XX asrning 90 yillarigacha O'zbekiston davlati Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan, shuning uchun geografiya ta'limining ushbu davrda rivojlanishi ma'lum bir ma'muriy va siyosiy qoliplarda olib borilgan. Mazkur davrda geografiya ta'limining rivojlanishi O.Mo'minov (1986 y) tomonidan to'la va har tomonlama o'rganilgan va quyidagicha davrlarga ajratilgan: geografiya ta'limini tashkil qilish davri; geografiya ta'limining tartibga solish davri; geografiya ta'limini hayot bilan bog'lanish davri; geografiya ta'limini takomillashuvi davri.

O'zbekistonda geografiya ta'limini tashkil etish davri (1918-1934 yil). Ushbu davrning boshlarida geografiya ta'limida yagona o'quv dasturi mavjud bo'lmagan, har bir maktab, tuman va shahar o'zining o'quv dasturini ishlab chiqar edi. Masalan, 1920 yili Toshkent eski shahar ma'orif bo'limi tomonidan maxalliy sharoitni hisobga olgan holda birinchi bosqich maktablari uchun geografiya fanidan o'quv dasturini nashrdan chiqardi. Dastlabki umumdavlat o'quv dasturi geografiya predmeti bo'yicha D.N.Anuchin raxbarligida A.A.Borzov va S.V.Chefranovlar tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur o'quv dasturi asosida Turkiston xalq ma'orif komissariyati geografiya fanidan o'quv dasturini ishlab chiqdi. 1923-1924 yillardan boshlab mehnat maktablari uchun kompleks dasturlar ishlab chiqildi. 1925-1930 yillarda "O'zbekiston sho'rolar jumxuriyatining birlik asosidagi mehnat maktablari uchun dastur", birinchi va ikkinchi bosqich maktablari uchun asg'ariy dastur, ikkinchi bosqich maktablari uchun jug'rofiya dasturi va "O'zbekiston birinchi bosqich maktablarining dasturlari" kabi bir necha kompleks dasturlar nashr etildi.

1934 yil 5 sentyabrda "Boshlang'ich va o'rta maktablar to'g'risida" davlat qarori chiqdi. Mazkur qaror maktab geografiyasini rivojlanishida katta axamiyatga ega bo'ldi. Ushbu dasturlarda o'lkashunoslikni o'rganishga katta axamiyat berilgan. Ammo mazkur dasturlarning salbiy tomoni bor edi. Ya'ni barcha tabiiy geografik kurslar 5-sinfdan, iqtisodiy geografiya kurslari esa 6-7 sinflarda o'rganilar edi. Bu esa geografiya kurslari mazmunini juda ham qisqarishiga olib keldi.

1935 yil 25 avgustda "Boshlang'ich va o'rta maktablarni dasturlari va o'quv rejalari" haqida yangi qaror chiqdi. Ushbu qarorda mavjud

dasturlar juda murakkab bo'lib ketganligi qattiq tanqid ostiga olindi. Natijada dasturlardan ortiqcha materialllar olib tashlandi. Shundan so'ng geografiya dasturlari qaytadan ishlab chiqildi. Geografiya predmetlarini soatlari ko'paydi. Iqtisodiy geografiya kurslari 1,5 yil o'tiladigan bo'ldi. Maktablarda o'quv ishlarini tashkil qilish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi: dars o'quv mashg'ulotlarining asosiy va muhim sharti sifatida qaytadan tiklandi. Ushbu davrda geografiya ta'limini asosiy shartlaridan biri bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha sezilarli ishlar qilindi. Mazkur davrda nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanmalarni O.Mo'minov (1986 y) quyidagi qismlarga bo'ladi:

- rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan darsliklar. Bunday darsliklarga "Boshlanma geografiya" (A.Kruber va boshqalar darsligining tarjimasi), "Turkiston", "Boshlang'ich jug'rofiya saboqligi" (G.I.Ivanov), "ISHJI ning qisqacha jug'rofiyasi" (G.I.Ivanov) va boshqalar. Mazkur davrda nemis olimi A.Geykining "Tabiiy jug'rofiya" darsligi (1925);

- rus tilidan erkin tarjima qilingan darsliklar: "Boshlang'ich jug'rofiya" (G.I.Ivanov);

- O'zbekistonda nashr qilingan darsliklar: "O'zbekiston va unga qo'shni jumxuriyatlar xamda viloyatlar" (N.Balashov, 1925), "Jug'rofiya" (N.P.Arxangelskiy, 1933), "O'zbekiston sotsalistik sho'rolar jo'g'rofiyasi "(L.Obizov, 1934);

Geografiya ta'limi soxasida ishlar juda kam bajarilgan. Faqat 1933 yilda nashr qilingan. N.I.Leonovning "Jug'rofiya metodikasi bo'yicha ocherklar" metodik qo'llanmasi mavjud edi. Bundan tashqari mazkur davrda ma'orif soxasida qator ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi, ularda geografiya ta'limi bo'yicha ma'lumotlar muntazam berib turilgan: "Maorif" (1918 yildan), "Maorif va o'qituvchi" (1925) jurnallari, "Madaniy inqilob"- "O'qituvchilar gazetasi" 1931 yildan nashr qilina boshlandi.

O'zbekistonda geografiya ta'limini tartibga solish davri. Mazkur davrda geografiya ta'limini rivojlanishida 1934 yil 16 mayda chiqqan "Boshlang'ich va o'rta maktabda geografiya o'qitilishi to'g'risida" nomli qarori katta axamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qarorda har bir sinfda geografiya predmetini o'qitish bo'yicha tavsiyalar berilgan:

-III va IV sinflarda geografik nomlarni mustahkam o'rganishga etibor berilishiga katta etibor berilgan;

-V sinfda asosan tabiiy geografiya bo'yicha berilgan bilimlar berilishi va dastur o'quvchilarning yoshini hisobga olgan holda soddalashtirilishi ko'rsatilgan;

-VI sinf o'quv dasturida qit'alar tabiiy geografik sharoitini o'rganishga e'tibor kuchaytirilgan;

-VII sinf dasturida mamlakatning umumiy tabiiy geografik tavsifi qoldirilishi va o'quv materialining osonlashtirilish, har bir ittifoq Respublikasining geografik tavsifi kiritilishi ko'rsatilgan. Mazkur qarordan so'ng geografiya predmetiga ajratilgan soatlar xajmi 15 soatga yetkazildi.

Ushbu bosqichda yangi dastur asosida qator o'quv qo'llanmalari va darsliklar tayyorlandi va nashr qilindi. 1936 yili 5-sinf uchun A.S.Barkov va A.A.Polovinkinlarning "Tabiiy geografiya", 6-sinf uchun. G.I.Ivanovning "Dunyo qit'alari tabiiy geografiyasi", 7-sinf uchun N.A.Baranskiyning "SSR tabiiy geografiyasi" (1-qism), S.V. Chefranovning "SSR tabiiy geografiyasi" (2-qism), 8-sinf uchun N.N.Baranskiyning "SSR iqtisodiy geografiyasi", I.A.Vitverning 9-sinflar uchun "Kapitalistik mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi" darsliklari nashr qilindi.

Ushbu bosqichda maktablar uchun atlaslar va metodik qo'llanmalar nashr qilindi va ular o'zbek tiliga tarjima qilindi. 1939 yili N.P.Arxangelskiy tomonidan "Boshlang'ich maktablarda jug'rofiyadan ko'rsatmalar" va F.A Ushinov tomonidan "Geografik materiallar" nomli metodik ishlari nashr qilindi.

Geografik atamalar sohasida ham qator qo'llanmalar nashr qilindi: 1935 yil O.Ibroximov "Geografiya atamalari", 1940 yili M.X.Bektemirov va S.Sayidrasulovlar tomonidan "qisqacha ruscha-o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati" nashr qilindi.

Geografiya ta'limining hayot bilan bog'lash bosqichi. 1958 yil 12 noyabrda qabul qilingan qonunga muofiq maktab o'quvchilarini xayotga tayyorlash vazifasiga katta e'tibor berildi. Shuning uchun ushbu davrda geografiya fanining boshlang'ich va umumta'lim maktablarida o'qitish xayot bilan bog'langan holda olib borila boshlandi. Shu munosabat bilan maktab geografiya darsliklari qaytadan ishlab chiqildi va nashr qilindi. Natijada ayrim kurslar ikkita sinfda o'qitiladigan bo'lib qoldi. Masalan, dunyo qit'alari tabiiy geografiyasi VI va VII sinflarda, SSSR geografiyasi VII va VIII sinflarda o'rganiladigan bo'ldi. Bu esa olingan bilimlarni umumlashgan holda xulosalashni qiyinlashtirib qo'ydi.

Ushbu davrda mavjud darslikning mazmuni va tuzilishi o'zgardi, o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmalar nashr qilindi: N.F.Kurazovning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1952), V.P.Budanovning "Tabiiy geografiya o'qitish metodikasi" nashr qilindi.

O'zbekiston maktakblarida geografiya ta'limini takomillashuvi. 1966 yil 10 noyabrda "O'rta umumiy ta'lim maktablarining ishini yanada yaxshilash choralari to'g'risida" davlat qarori qabul qilindi. Qarorga muofiq geografiya ta'limini yaxshilash bo'yicha komissiya tuzildi. Mazkur komissiya tavsiyasiga binoan maktab geografiya kurslari sinflar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: II sinfda tabiatshunoslik kursi-35 soat; III-sinfda tabiat shunoslik kursi-70 soat; IV-sinfda tabiatshunoslik kursi 70-soat; V- sinf da tabiiy geografiya boshlang'ich kursi-70soat; VI-sinfda materiklar geografiyasi -105 soat; VII-sinf SSR tabiiy geografiyasi -70 soat; VIII-sinf SSR iqtisodiy geografiyasi-70 soat; IX-sinfda chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi-70 soat;

O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi soxasida XX-arsning oxiri va mustaqillik yillarida yirik olimlar yetishib chiqdi. Geografiya o'qitish metodikasi sohasida O.Mo'minov, H.Vaxobov, R.Qurbonniyozov, P.Musaev, P.G'ulomov, G'.Pardaev va boshqalar katta ishlarni amalga oshirishgan.

Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlashda N.Dolimov, O.Mo'minov, P.Musaev, P.G'ulomov, X.Vaxobov, A.Qayumov, P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Abdulqosimov, R.Qurbonniyozov, A.Soatov va boshqalarning xizmati katta.

Oliy o'quv yurtlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari P.Baratov, X.Vaxobov, M.Mamatqulov, A.Rafikov, G.Asanov, M.Nabixonov, I.Safarov, G'.Pardaev va boshqalar tomonidan yaratilgan.

2.3. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng umumiy ta'lim-tarbiya soxasini islox qilish zaruriyati tug'ildi. Ayrim o'quv fanlari dars tizimidan chiqarib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib o'quv tizimiga joriy qilindi.

Maktab geografiya ta'limi sohasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Umumiy ta'lim maktablarida "SSR tabiiy geografiyasi" (8-sinf) va "SSR iqtisodiy va sotsial geografiyasi" (9-sinf) o'quv kurslari ta'lim dasturidan olib tashlandi.

Umumiy majburiy ta’lim 9-yilga o’tkazilgani musosabati bilan ayrim o’quv kurslari o’rganiladigan sinflar o’zgardi. 5-sinfga yangi “Tabiiyot” kursi kiritildi. Ammo mazkur kurs o’zlashtirish qiyin bo’lganligi, hamda unda tabiiy geografiya va biologiya va boshqa fanlardagi bilimlar qaytarilganligi tufayli 1999 yil o’quv dasturidan olib tashlandi.

“Boshlang’ich tabiiy geografiya” kursi, “Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursi bilan qo’shib 6-sinfda o’tiladigan bo’lgan edi. Bu xam o’zini oqlamadi. Yangi dastur (1999) bo’yicha yana 5-sinfda boshlang’ich “Tabiiy geografiya” kursi o’tiladigan bo’ldi. Bundan tashqari O’zbekiston va Turkiston xududidan tashqari ilgari sobiq “SSR tabiiy geografiyasi”da o’rganiladigan tabiiy geografik o’lkalar “Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursida o’tiladigan bo’ldi.

O’quv dasturiga tamoman yangi “Turkiston tabiiy geografiyasi” kursi kiritildi (7-sinflar uchun).

9-sinfda o’tiladigan “Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursida ham o’zgarishlar sodir bo’ldi. Endi O’zbekiston Respublikasidan tashqari xamma davlatlar shu kursda o’rganiladi.

Yangi dasturga muofiq tayanch majburiy ta’limga moslangan geografiya kurslarining sinflar bo’yicha taqsimoti quyidagicha:

-5-sinfda “Tabiiy geografiya”, boshlang’ich kursi ;

-6-sinfda “Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi” ;

-7-sinfda: birinchi yarim yillikda “Turkiston tabiiy geografiyasi”, ikkinchi yarim yillikda “O’zbekiston tabiiy geografiyasi”;

-8-sinfda “O’zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi”;

- 9- sinfda “Jaxon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”.

Har qanday davlatning kelajaini, buyukligini va qudratini yuksak darajada bilimga ega bo’lgan kadrlar belgilab beradi. Bunday kadrlarning yetishtirish uchun esa davlatning ta’lim tizimi yuqori darajada takomillashgan va xalqaro standartlar talabiga javob beradigan darajada bo’lishi kerak.

O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning 9-sessiyasida (30.08.97) mazkur muammo to’g’risida shunday degan edi “Har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, xarbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o’zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir”.

1997 yil avgustda Oliy Majlisda ko'rilgan ta'lim qonuni O'zbekiston ta'lim tizimining takomillashtirish va barkomol avlodni tarbiyalash soxasidagi qo'ygan qadamlarining eng yirigidir.

Prezidentimiz I.Karimovning ta'lim qonuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9-sesiyasida so'zlagan nutqini quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

1. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'rta va oliy ta'limda erishilgan yutuqlar tahlili.
2. Hozirgi ta'lim tizimining hayot talablariga javob bermasligining asosiy sabablarini tahlil i.
3. Oliy ta'lim isloxotining asosiy yo'nalishlari.
4. Ta'limdagi isloxotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirilishi.
5. Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko'rsati shining asosiy tamoyillari.
6. Umumta'lim dasturining tuzilishi.
7. Milliy dasturni amalga oshirishdagi murakkabliklar.

Mazkur masalalarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz:

I.O'rta va oliy ta'limda erishilgan yutuqlar. Mazkur sohadagi yutuqlar quydagilardan iborat:

1. O'rta maktab sohasida.

- "Ta'lim haqida" qonun qabul qilindi;
- 1996-1997 o'quv yilidan boshlab birinchi sinflarda o'qish yangi alifboda olib borildi;
- 300 ga yaqin yangi ta'lim muassasalari ochildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil qilindi, 800 ga yaqin o'quvchi chet ellarda ta'lim oldi;
- ko'p o'qituvchilar xorijiy davlatlarni ilg'or tajribasini o'rganib keldilar.

2. O'rta maxsus ta'lim soxasida.

- viloyatlarda, joylarda biznes maktablari, kichik va o'rta maktablar uchun kasb-hunar kurslari ochildi;
- bozor iqtisodi talablaridan kelib chiqib, yangi mutaxasisliklar kiritildi (Fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va h.k.);
- Toshkent, Samarqand, Urganch, To'rtko'l va Andijonda bank kollejlari tashkil qilindi.

3. Oliy maktab sohasida.

- kirish imtihonlarida test usuli joriy qilindi;

- viloyat markazlaridagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi;

- 2000 dan ortiq talaba chet elga borib o'qib keldi; 200 dan ortiq mutaxasis institutlarda ishlash uchun xorijdan chaqirildi;

-Davlat va ijtimoiy qurilish akademiyasi, bank va moliya akademiyalari tashkil qilindi;

- turli xil fondlar tashkil qilindi. "Mahalla", "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Nuroniy", "Umid jamg'armasi".

II. Amalga oshirilgan tadbirlarni hozirgi hayot talablariga to'la javob bermasligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

-ta'lim tizimi eski mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xoli bo'linganicha yo'q;

-barcha amaldagi o'zgarishlar va tadbirlar yuzaki bo'lib, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimimiz rivojlangan demokratik davlatlar talablariga javob bermaydi.

III . Ta'limni isloh qilish bosqichlari.

Birinchi bosqich-o'tish davri. 1997-2001 yillarda, ya'ni 4- yilda amalga oshiriladi. Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi:

Milliy dasturni amalga oshirilishining boshlanishi: yangi talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash,o'quv standartlarini yaratish, yangi o'quv dasturlari ustida ishlash, umum ta'lim maktablarini qayta qurish, uch yillik ta'lim tizimini yaratish.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005 yillar. Milliy dasturni to'la amalga oshirish. Kerakli sharoitlarni hisobga olib dasturlar va qoidalarga o'zgartirishlar kiritish.

Uchinchi bosqich- 2005 yildan keyingi yillarga mo'ljallangan. To'plangan tajribalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

V. Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko'rsatishning asosiy tamoyillari.

- barcha ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;

- davlat ta'lim standartlarini joriy qilish va ularni faoliyat mexanizmini ishlab chiqish;

- o'qituvchilar va murabbiylarni qayta tayyorlash;

- davlat va ijtimoiy muassasalarning kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

- o’quvchilarni vatanga sadoqat, yuksak ahloq, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash;

- ta’lim muassasalarini davlat tomonidan moddiy texnikaviy ta’minotini yaxshilash;

- o’quv muassasalarining moddiy va moliyaviy sharoitini aniqlashda kadrlarni iste’molchilari bo’lgan korxonalar imkoniyatidan to’la foydalanish;

- kadrlar tayyorlash va ta’lim sohasiga xalqaro fondlar mablag’ini jalb qilish;

- Oliy o’quv yurtlariga mustaqillik berish va o’z - o’zini boshqarish usullarini joriy etish.

IV. Umum ta’lim dasturining tuzilishi.

Dastur quyidagi bosqichlardan iborat:

-maktabgacha ta’lim;

-boshlang’ich ta’lim. 6-7 yoshdan boshlanadi. 1-4 sinflarni o’z ichiga oladi;

-umumiy ta’lim, 5-9 sinflarni o’z ichiga oladi;

-o’rta maxsus bilim va kasb- hunar ta’limi. O’qish muddati 3- yil;

-Oliy mutaxasislik ta’limi ikki qismdan iborat:

Bakalavrlik- o’qish muddati 4- yil. Tayanch mutaxasislik diplomini olish bilan tugaydi.

Magistratura- aniq mutaxasislik bo’yicha Oliy kasbiy ta’lim bo’lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi. Magistrlik disserta-tsiyasini himoya qilish bilan tugaydi.

Doktorantura – 3 yil

VII. Milliy dasturni amalga oshirishdagi murakkabliklar.

-har bir hududni geografik muxitini, xususiyatini hisobga olib qishloqlarda 3 – yillik kasb- hunar maktablarini tashkil qilish;

-maxsus (akademik) sinflarda ta’lim beradigan o’qituvchilarni tayyorlash;

-o’quv jarayonini tashkil etish, ta’lim mazmunini belgilash, ularni maxsus dasturlar, o’quv qo’llanmalari bilan ta’minlash masalalaridir.

2.4 Geografiya ta’limining tuzilishi va ta’lim standartlari

Geografiya ta’limi shakllari va bosqichlariga binoan turlicha tuzilishga ega.

Geografiya ta’limi xozirgi davrda quydagi qismlarga bo’linadi:

-umuta’lim maktablarida geografiya ta’limi;

-akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida geografiya ta’limi;

-oliy geografiya ta’limi;

-Yordamchi maktablarda geografiya ta’limi;

-Malaka oshirish muassasalarida geografiya ta’limi.

Umumta’lim maktablari geografiyasining asosiy qoidalaridan biri tabiiy va iqtisodiy geografiyani alohida – alohida o’rganishdir. Bu esa umumta’lim maktablari geografiyasida tabiiy va iqtisodiy geografiyaning asoslarini to’la aks ettirishga imkon beradi.

Umum ta’lim maktabi geografiya kurslari zinapoyasimon tuzilishga ega. Bunda asta-sekin quyi sinfdan, yuqori sinflarga qarab murakkablashib boradi, qaytarishlarga yo’l qo’yilmaydi, lekin yangi ma’lumotlar ilgari o’tilgan ma’lumotlar asosida beriladi. Bu esa o’quvchilarni yangi ma’lumotlarni umuman darsni yaxshi va to’la o’zlashtirishga imkon beradi.

Geografiya predmetining ayrim kurslarini o’rganish tartibi quyidagidan iborat:

-IV sinf – tabiatshunoslik (35 soat)

-V sinf – tabiiy geografiya boshlang’ich kursi (36 soat)

-VI sinf – materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi (64 soat)

-VII sinf – O’rta Osiyo va O’zbekiston tabiy geografiyasi (70 soat)

-VIII sinf – O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (68 soat)

-IX sinf – Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (68 soat)

Tabiatshunoslik kursi – tabiiy xodisalar, moddalar, yer xaqida oddiy ma’lumotlarni beradi. Bu kurs quydagi bo’limlardan iborat:

1. Vatanimiz tabiati: joy tomonlarini aniqlash (gorozant va gorizant chizig’i, kompas bilan joy tomonlarini aniqlash: plan va masshtab: sinf, maktab, shahar plani, joy planini o’qish: plan va geografik karta) vatanimiz kartasi oldida.

2. O’zbekiston tabiatining xilma – xilligi: Cho’llar (tabiati, qumli barxan, cho’l tabiatini inson tomonidan o’zlashtirish, o’simlik va xayvonlar, cho’lda kechasi, cho’l axolisining yumushlari, Qizilqumda kumushsimon o’rmon, cho’l mo’jizasi): tog’ tabiati

3. O’zbekiston tabiatini qo’riqlash:tabiat va insonni o’zaro ta’siri, tuproq, suv va havoni qo’riqlash, Qizil kitob, qo’riqxonalar, O’zbekiston tabiati yodgorliklari.

Tabiiy geografiya kurslari o'quvchilarga Yer qobiqlari to'g'risida, ular orasidagi aloqalar haqida, har bir materik,okeanning tabiati, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiati haqida ma'lumotlar beradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslari o'quvchilarga O'zbekiston va jaxon iqtisodining asosiy xususiyatlari xaqida bilimlar beradi.

Akademik litsey va kasb – hunar kollejlarida "Amaliy geografiya" kursi o'tiladi. Mazukr kurs geografiya fanining amaliy tomonlarini ochib beradi va quyidagi qismlardan iborat:

1. Birinchi bo'lim: amaliy geografiyaning maqsadi va vazifalari; amaliy geografik tadqiqotlar; tabiiy geografik jarayonlar; jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri; tabiat komplekslari va ularning barqarorligi; geografik baholash; geografik bashorat; atrof – muhit monitoringi; geografik ekologik ekspertiza ishlari; ekologik muammolar va ularning yechimi; ishlab chiqarishning texniki – iqtisodiy asoslari.

2. Ikkinchi bo'lim: geosiyosat asoslari: O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi; hozirgi zamonning geosiyosiy muammolari.

Oliy geografiya ta'limida mutaxasislik fanlari o'rganiladi.

Yordamchi maktablarda geografiya ta'limining tuzilishi quydagi qismlardan iboart:

-VI sinf – tabiiy geografiya (boshlang'ich kurs);

-VII sinf – materiklar va okeanlar geografiyasi;

-VII sinf – O'rta Osiyo va O'zbekiston geografiyasi;

Yordamchi maktablardagi geografiya kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning soddalashtirilganidadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach har bir fan bo'yicha davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining raisi tomonidan 1999 yil 16 avgustda tasdiqlangan.

SHundan so'ng geografiya ta'limi bo'yicha davlat ta'lim standartiga sharx ishlab chiqildi.Mazkur sharx ikki qismdan iborat:

- "Ta'lim mazmunining majburiy minimumlari";

- "Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar";

Ta'lim mazmunining majburiy minimumi 6 yo'nalish bo'yicha ishlab chiqildi.

1. Geografiyaning nazariy asoslari.
2. Geografiyaning tadqiqot metodlari.
3. Tabiiy va sotsial iqtisodiy ob'ektlar.
4. Xodisalar va jarayonlar

5. Olamni idrok etishning moddiy va ma’naviy madaniyatda ifodalanishi.

6. Xudud geografik tavsifining tuzilishi.

Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan minimal talablar quydagi ko’rsatkich orqali aniqlanadi:

1. Ayta (ko’rsata) olishi
2. Aniqlay (o’lchay) olishi
3. Tasvirlay olishi
4. Tushuntira olishi
5. Bashorat qila olishi.

2.5. Ichki predmetlararo aloqalar

Ichki predmetlararo aloqalar- bu har bir kursning ma’lum bir dastur asosida o’rganishdir. Bunda bilimlarni, ko’nikmalarni va dunyoqarash g’oyalarni hosil bo’lishini ketma ketligi alohida o’rin tutadi.

Tabiiy geografiya kursida bir qancha bilimlar tizimi bor: geologik – geomorfologik, iqlimiy, gidrologik va TTKlar va x.k. Ushbu har bir tizimga ham nazariy xam emprik bilimlar, aniq ko’nikmalar kiradi. Masalan, ob-havoni kuzatish, iqlim kartalarini o’qish ko’nikmalari. Bilimlar har bir kursda rivojlanib boradi.

III-BOB. O'QITISH METODLARI VA ULARNI TANLASH

O'qitish metodlarini mazmunan, mohiyati va vazifasi haqida juda ko'p fikrlar mavjud. Ularni umumlashtirib ifoda qilinganda o'qitish metodiga quyidagicha ta'rif berish mumkin**:** o'qitish metodi deb ta'lim maqsad-lariga eririshish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatig**a** aytiladi.

O'quv jarayonida o'qituvchining maqsadi bilim berish, O'quvchilar-ning maqsadi bilim olishdir. Mazkur maqsadlarga erishish uchun pedagogikada qator o'qitish metodlari ishlab chiqilgan.

3.1.O'qitish metodlarini sinflashtirish

O'qitish metodlari juda ko'p belgilar asosida sinflashtirilgan. Shuning uchun o'qitish metodlarini sinflashtirishni qator variantlari mavjud.

Dastlab o'qitish metodlarini sinflashtirish nemis olimi Oberlender tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur sinflashtirish XX- asrning 30-yillari-gacha foydalanildi.

Oberlender geografiya o'qitish metodlarini qo'yidagicha sinflashtirgan:

- analitik metodlar.Avval Yer bir butun ob'ekt sifatida o'rganiladi, so'ngra uning ayrim qismlari o'rganiladi. Masalan, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida avval Yerning umumiy xususiyatlari va qonunyatlari ochib beriladi. So'ngra alohida materik va okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari o'rganiladi;

- sintetik metodlar. Avval alohida joylar o'rganiladi, so'ngra Yer bir butun o'rganiladi;

- konstruktiv metodlar. Bunda o'quvchi karta chizish davomida yer yuzasi relefi haqida bilimlarni egallaydi;

- bog'lovchi metodlar. Bunday metodlar bilan ishlanganda o'rgani-layotgan xodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'liqliklarni o'rganishga katta e'tibor beriladi; masalan, balandga chiqqan sari harorat va bosimni pasayishi va x.k;

- guruhlashtiruvchi metodlar. Bir xil geografik xodisalarni qiyoslashga asoslangan. Masalan, daryolarning to'yinishi, yog'inlarni taqsimlanishi, sanoatni ayrim tarmoqlarini joylanishi va h.k.:

Keyinchalik ushbu metodlar boshqa olimlar tomonidan takomillash-tira boshlanadi. D.D. Semenov, E.Yu. Petri, A.S. Sokolov, V.P. Budanov,

S.P. Arjanov tomonidan qayta ishlab chiqildi. S.P. Arjanov geografiya o'qitish usullariini quyidagi guruhlarga bo'ladi: analitik, sintetik, kontsen-trik, assotsiyalashtiruvchi, guruhlashtiruvchi, taqqoslash, tajriba, o'zaro aloqa, evristik, sintetik-genetik, tajriba.

Xalq komissariatining 1934 yil 15 may «Geografiyani boshlang'ich va o'rta maktablarida o'qitish haqida» qaroridan so'ng mavjud o'qitish metodlari qattiq tanqid ostiga olindi.

«O'qitish metodi» degan tushunchani yangi mazmuni va mohiyati ishlab chiqildi. V.G. Erdeli tomonidan geografiya o'qitish metodlarini ikki guruhga bo'lish tavsiya etildi: barcha fanlarda qo'llaniladigan metodlar; faqat geografiya fanida qo'llaniladigan metodlar (masalan, karta bilan ishlash metodlari).

A.A Polovinkin 1938 yili «Tabiiy geografiya metodikasi» nomli darsligida quyidagi metodlarni ajratadi: og'zaki bayon, kartografik, diapozitiv; plastilin; darslik va globus bilan ishlash; ekskursiya va tajriba metodlari. V.P. Budanov 1939 yil «Tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi» nomli kitobida o'qitish metodikasiga quyidagicha ta'rif beradi: «O'quvchilarni yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini o'qituvchi tomonidan boshqarilishi». V.P. Budanov quyidagi metodlarni ajratadi: jonli so'z; darslik bilan ishlash, globus va karta bilan ishlash, ko'rgazmali, kuzatish va tajriba. XX asrning 50–yillaridan so'ng ushbu muammo N.N. Baranskiy, A.V.Darineskiy, V.A. Juchkevich, V.A.Korinskaya O. Mo'mi-novlar tomonidan rivojlantirildi.

SHuni ta'kidlab o'tish joizki, har doim turli davrlarda o'qitish metodlarini sinflashtirish bitta yagona qoida asosida olib borildi, ya'ni bilish manbalariga asosan. Shuning uchun hozirgi davrda geografiya o'qitish metoddikasida metodlarni bilish manbalariga ko'ra sinflashtirish keng tarqalgan. Suhbat, ma'ruza, kartalar bilan ishlash, kuzatish, tajriba, darslik bilan ishlash, statistik ma'lumotlar bilan ishlash metodlari umumta'lim maktablarida u yoki bu shaklda keng qo'llanilamoqda. Oxirgi davrlarda o'qitish metodlarini ishlab chiqish kuchayib ketdi. Geografiya o'qitish metodlarini bilish manbalariga ko'ra sinflashtirish tanqid ostiga olina boshlandi, chunki ushbu metodlar asosan tashqi belgilarga qarab, o'quvchilarni o'quv faoliyatini hisobga olgan holda sinflashtirilgan.

Endi geografiya o'qitish metodlarini metodologik asosini ko'rib chiqamiz. Falsafa fanida «metod» tushunchasiga qo'yidagicha ta'rif beriladi; «Borliqni amaliy va nazariy o'rganish». Ushbu ta'rifni asosan

ilmiy va o'quv tomonlari turlicha, shuning uchun ushbu ta'rifni to'g'ridan to'g'ri o'quv jarayoniga qo'llab bo'lmaydi, chunki ularni maqsadlari va faoliyat shakllari turlicha. Ammo ularning umumiy tomonlari ham bor. Ularning eng umumiy tomoni fan ham, o'qitish ham bilish jarayoni hisoblanadi. Ilmiy bilishda ob'ekt bo'lib borliq, sub'ekt bo'lib tatqiqotchi (olim) hisoblanadi. O'qitish jarayonida ob'ekt bo'lib o'quv predmetining mazmuni, sub'ekt bo'lib o'quvchilar hisoblanadi. Ikkala sharoitda ham alohida o'rinni sub'ektning faoliyati egallaydi. Mana shu narsa o'qitish metodini falsafiy ta'rifini o'quv jarayoniga qo'llashga imkon beradi.

Endi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadlarini aniqlab olishimiz lozim.

O'qituvchining o'qitish maqsadlari qo'yidagilardan iborat:

- o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlash;
- o'quvchilarni ongini rivojlanishini ta'minlash;
- egallangan bilim va ko'nikmalar asosida o'quvchilarni shakllanishini ta'minlash, ya'ni ularni tarbiyalash.

O'qitish (o'quvchi)ning metodi bitta maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni bilim va ko'nikmalarni egallash. Demak, o'quvchilarning maqsadi, o'qituvchilarning o'qitish metodining asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'quv jarayonini boshqaribgina qolmasdan balki mana shu jarayonning ichida bo'lmog'i lozim, ya'niy o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashida bir paytning o'zida ham boshqaruvchi ham yordam beruvchi bo'lishi zarur. Bularni barchasi o'qitish metodlariga qo'yidagicha ta'rif berishga imkon beradi: «O'quv mazmunini o'zlashtirishga imkon bera-digan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatidir».

Metod doimo o'quv mazmuniga mos kelishi lozim. Maktab geografiyasida esa geografiya o'qitish metodlari so'zsiz geografiya fanining bilish metodlariga mos kelishi kerak. O'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga quyidagilar kiradi: kartografik ma'lumotlar va qo'llanmalar bilan ishlash usullari; kuzatish va tajriba o'tkazish; statistik ma'lumotlar bilan ishlash; turli xil chizmalar bilan ishlash; iqtisodiy hisob - kitoblar. Demak, o'qi-tuvchi va o'quvchining faoliyati o'qitish metodini tashkil qilar ekan.

Hozirgi vaqtda geografiya ta'limida o'qitish metodlarini qo'yidagicha sinflashtirish keng tarqalgan:

I.Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra

1.O’qitishning og’zaki usullari;
2.Kartografik qo’llanmalar bilan ishlash;
3.Ko’rgazmali qo’llanmalar bilan ishlash;
4.Kuzatish va tajriba metodlari;
5.Statistik ma’lumotlar bilan ishlash;
6.Darslik va qo’shimcha adabiyotlar bilan ishlash;
7.Amaliy metodlar;
8.Zamonaviy axbarot texnologiyalaridan foydalanish;
9.Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

II. Didaktik maqsadlariga ko’ra

1.Yangi bilimlarni o’rganish
2.Bilimlarni mustahkamlash
3.Bilim, malaka va ko’nikmalarni tekshirish metodlari

III.Xulosa chiqarish faoliyatiga ko’ra

1.Analitik
2.Sintetik
3.Induktiv
4.Deduktiv

IV. Fikrlash faoliyati va bilim olish faolligi xususiyati bo’yicha

1.Izohli - ko’rgazmali metod
2.Reproduktiv yoki olingan bilimlarni qayta tiklash metodi
3.Muammoli bayon metodi
4.Muammoli ta’lim metodi
5.Qisman izlanuvchan metod
6.Izlanuvchan metod

S.T.SHapovalenko barcha usullarni uch guruhga bo’ladi:
1.Og’zaki metodlar
2.Ko’rgazmali metodlar
3.Amaliy metodlar

Bundan tashqari geografiyada yuqoridagi usullarni yana ikki guruhga bo’lishimiz mumkin:
1.Yangi bilim olish metodlari
2.Olingan bilimlarni qayta tiklash metodlari

3.2. Amaliy geografiya darslarida o’qitish metodlarini tanlash texnologiyasi

Geografiya darslarida o’qitish metodlarini tanlash o’ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto’g’ri tanlangan bo’lsa o’qituvchi va o’quvchining birgalikdagi faoliyati samarasiz bo’lib qoladi. Shuning uchun o’qitish metodlarini tanlash ma’lum bir tamoillar asosida olib borilmog’i lozim. Ular quyidagilardan iborat.

«Tanlangan metod» o’tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo’lishi lozim. Bu metodni samaradorligini birinchi va muhim sharti hisoblanadi. Ko’p xollarda bir xil mazmundagi dars o’tish uchun yagona bitta metodni qo’llash ko’p xollarda samara bermaydi. Shuning uchun o’qituvchilarni va o’quvchilarni faoliyatiga mos keladigan metodlarni tanlash lozim. Bunda o’quvchilarni bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, vaqt omili va geografiya kabinetida zarur bilim manbalarining bor yo’qligi metod turini aniqlab beradi.

O’qitish metodini tanlaganda o’quvchilarni bilish qobiliyatlarini hisobga olish tamoyili, bunda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- o’quv mavzusining murakkabligiga;
- nazariy bilimlar xajmiga;
- sinf o’quvchilari darajasiga;
- o’quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyatiga;

Geografik bilimlarni xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Geografik bilimlar bilishning xususiyatiga qarab quyidagi turlarga bo’linadi:

-geografik voqea va xodisalarni tashqi ko’rinishi haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlar o’quvchilarda o’rganilayotgan voqealar haqida tasavvur-larni shakillantiradi. Masalan, tog’lar o’rmonlar, cho’llar, ko’llar, daryolar, kartalar va x.k.;

-geografik voqea va xodisalarni fazoda joylashishi haqidagi bilimlar tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, davlatlar, shaharlar, ma’muriy birliklarini joylashuvi;

-geografik voqea va xodisalarni xossalari haqidagi bilimlar. Bunday bilimlarga tuproqning xosildorligi, namgarchilik, bug’lanish, , intensiv va ekstensiv xo’jalik, tog’ jinslarining qattiqligi, suvning sho’rligi va harorati va x.k;

-geografik jarayonlar xaqidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga shamol, yog’inlar, suv erroziyasi, surilmalar, zil-zilalar, ishlab chiqarish

jarayonlari, migratsiya, urbanizatsiya, vulkanlar va boshqa jarayonlar kiradi;

-geografik borliq va xodisalarning tarkibi xaqida bilimlar. Masalan, tog' jinslarining tarkibi, yog'inlarning tarkibi, yer resurslarniiing tarkibi, aholining milliy tarkibi va x.k;

-geografik borliq va xodisalarining tuzilishi haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga yerning qobig'i, yerning tuzilishi, atmosferaning tuzulishi, yerning ichki tuzilishi, qishloq xo'jaligining tuzilish, tuproqning tuzilishi, xalq xo'jaligining tuzilishi va x.k;

-geografik voqea va xodisalar orasidagi aloqalar xaqidagi bilimlar, masalan, sabab va oqibatlar, davriy, fazoviy, funktsional aloqalar.

Mazkur bilimlarning har biri alohida o'qitish usullarini qo'llashni taqazo etadi.

Qo'llaniladigan metodlar quyidagi talabalarga javob berishi lozim:

a) metod tarbiyaviy bo'lishi lozim, ya'ni o'quvchilarning rivojlanishga, qiziqishlariga ta'sir ko'rsatishi lozim;

b) tanlangan metod ilmiy bo'lishi lozim, metod ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan bo'lsa, shunchalik ravshan va aniq bo'ladi:

v) metod ommabop bo'lishi lozim;

g) metod samarali bo'lmog'i zarur, ya'ni o'quv materiallarini mustahkam egallashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

3.3 Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

O'zbekiston, Rossiya va boshqa qator MDH davlatlari ta'lim tizimiga XX asrning 90-yillaridan boshlab «Yangi pedogogik texnologiyalar», «Ilg'or pedagogik texnologiyalari», "Pedagogik texnologiyalar", "Ta'lim texnolo-giyalari", «Maktab texnologiyalari», «Axborot texnologiyalari» va boshqa shunga o'xshash tushunchalar kirib keldi.

XX asrga kelib fan texnikaning yuksak darajada rivojlanishi muno-sabati bilan ta'lim tizimida xam qator muammolar vujudga keldi.Bunday muammolarga avvaldan kafolatlangan natijalarni olishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish kiradi.

SHu maqsadda XX asrning 50-70 yillarida AQSH da B.Blum. D.Kratvoll, N.Gronlund, Dj.Kerol, Dj.Blok, A.Anderson va boshqa olimlar tomonidan rejalashtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydigan, qayta takrorlanadigan pedagogik tsiklni o'z ichiga olgan texnologiyalar

ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar so'ngra Yevropada qo'llanila boshlandi. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi.

Rossiyada pedagogik texnologiyalar XX asrning 90-yillaridan boshlab tarqala boshladi.Mazkur texnologiyalar soxasida B.P. Bespalko, M.V.Klarin, V.G.Guzeev, T.S.Nazarov. N.D.Nikondova, N.F.Kostenko, V.R.Imakova, G.Il'in, B.I.Bulin, Sokolova, Yu.G.Molokova, O.Episheva, P.K.Selevko va boshqalar ulkan ishlarni amalga oshirishdi. «SHkolnie texnologii» jurnali nashr qilina boshladi. Yangi pedagogik texnaologiyalar ta'limning boshqa bosqichlarida (maktabgacha ta'lim, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va Oliy ta'lim) qo'llanila boshladi.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalar sohasida 2000 yildan boshlab yirik ilmiy ishlar va o'quv qo'llanmalari nashr qilina boshlandi. Bu sohada B.P.Farberman, N.Saydaxmedov, F.Jumaboev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuxamedov, Sh.Abdullaev, J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov va boshqalar katta ishlarni amalga oshirishdi. Ayniqsa Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining «Axborot texnologiyalari va masofaviy o'qitish markazi» tomonidan bu sohada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur markaz tomonidan har oyda ta'lim texnologiyalariga bag'ish-langan «Axborotnoma» nashr qilinadi. Mazkur axborotnomada jaxondagi rivojlangan davlatlarni ta'lim texnologiyalari muammolariga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilinadi.

Geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash va geografik ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha I.V.Dushina, V.T.Dmitreva, A.N.Vorobyev, O.A.Ushakova, N.V.Novenko, I.I.Barina, O.A.Baxchieva va boshqalar ish olib borishmoqda.

O'zbekistonda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnolo-giyalarini qo'llash va geografik texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy va metodik ishlar endi boshlanmoqda, ammo bu sohada yirik ko'zga ko'rinadigan ishlar hali qilinganicha yo'q. Pedagogik texnologiyalarni ajralmas qismi bo'lgan test topshiriqlari hamma fanlarda, ayniqsa Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida keng qo'llanila boshlandi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, barcha o'quv fanlarida ham test topshiriqlarini tuzish bo'yicha aniq bir metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkash-liklarga va testlarni faqat bir yo'nalishda tuzilishiga olib keldi. Testologiya, ya'ni o'kitish

maqsadlarini test topshiriqlari orqali ifodalash pedagogik texnologiyalarni oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Demak, O'zbekis-tonda va boshqa MDH davlatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni ma'lum bir bo'g'inlarini qo'llash ancha oldin boshlangan.

O'zbekistonda 1992 yildan boshlab mamlakatimiz Prizedenti I.A.Kari-mov farmoniga binoan Oliy o'quv yurtlariga qabul pedagogik test sinovlari asosida o'tkaziladigan bo'ldi. Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari institutida pedagogik texnologiyalar va ta'lim sifati bo'limi ochildi.

Geografiya ta'limida ko'pincha o'qitish texnologiyalari ilgaritdan qo'llanilib kelinadi, ayrimlari endi qo'llanilmoqda. I.V.Dushina (2004) geografiya ta'limida qo'llaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo'lgan: mantiqiy tayanch konspektlar texnologiyasi; o'quv ishlari usul-larini shakllantirish texnologiyasi; o'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllan-tirish texnologiyasi; komunikativ – aloqa texnologiyasi; o'quvchilarni loyixalar tuzish faoliyati texnologiyasi.

Hozirgi paytda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnolo-giyalarini qo'llashni ilmiy-metodik asoslari quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilishi lozim.

Geografiya ta'limini maqsadlarini aniqlash. Geografiya ta'limining maqsadlari va vazifalari mavjud ta'lim standartlarida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Standartlar bo'yicha har bir geografiya predmeti bo'yicha ta'lim maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Geografiya ta'limining asosiy ko'rsatkichlarini B.Blumning taksonomik birliklari orqali ifodalansa ular aniq bir o'lchamlarga ega bo'lar edi. Mazkur muammo sohasida hozircha geografiya ta'limida sezilarli ishlar olib borilayotgani yo'q.

Geografiya ta'limida quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Kartografik texnologiyalar. Geografiya ta'limining barcha bosqichlarida qadimdan qo'llanib keladi. Kartografik materiallar ko'pincha darsga qo'shimcha ko'rgazma sifatida ishlatiladi. Alohida kartografik texna-logiyalar yordamida hozircha dars o'tilmaydi. Kartografik texnologiyalarni qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat: a) ilk, sodda kartografik tushun-chalarni shakillantirish bosqichi. Mazkur bosqich umumta'lim maktab-larida 5-sinfda «Boshlang'ich tabiiy geografiya» kursida, Oliy o'quv yurtlarida esa topografiya va kartografiya kurslarida beriladi. Bunda, karta, miqiyos (mashstab),

shartli belgilar, geografik koordinatalar haqida tushunchalar, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Mazkur bosqich o'z navbatida quyidagi texnologiyalardan iborat: Miqiyos (mashstab) texnologiyasi; shartli belgilar texnologiyasi; geografik koordinatalar texnologiyasi; b) kartografik dars texnologiyasi – mazkur darslarda to'la kartografik texnologiyalarni qo'llash asosida o'tilishi mumkin. Mazkur texnologiyalarni o'rta va oliy ta'limda regional tabiiy va iqtisodiy geografiya predmetlarini o'rganishda qo'llanishi mumkin. (materiklar va okeanlar, o'lkalar, davlatlar ma'muriy birliklarning tabiiy va iqtisodiy hamda siyosiy geografik sharoiti).

O'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi (Dushina, Gerasimova, Neklyukova, G'ulomov, Qurboniyozov, Vaxobov va boshqalar). Mazkur usul ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanib kelinadi. Ushbu texnologiya geografik borliqni, xodisa va jarayonlarni tavsiflash tartibi, qoidasi, algoritmlar sifatida ifodalangan. Mazkur texnologiya har bir darslik uchun metodik qo'llanma sifatida kengroq tarqalgan. Masalan, har bir sinf bo'yicha nashr qilingan darsliklar albatta metodik qo'llanmasi bilan birga nashr qilinmoqda. Unda geografik ko'nikmalarni shakllantrish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi (Episheva, Dushina). Ushbu texnologiya ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanib kelinadi. Ushbu usulni qo'llaganda sinf o'quvchilari qobiliyatiga va qiziquvchanligiga ko'ra ma'lum bir guruhlarga bo'linadi. Bunda o'quv maqsadlari tabaqalashtiriladi, har bir guruh uchun o'quv jarayonini ta'minlaydigan texnologiya ishlab chiqiladi. Mazkur texnologiyani regional geografiya fanlarini o'rganishda qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan, Yevropadagi rivojlangan davlatlar iqtisodiy geografiyasini o'rganishda har bir guruh ma'lum bir davlatni o'rganishi mumkin.

O'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi (Suxov, Rom, Dronov, Dushina va boshqalar). Bunda o'quv faoliyati o'quvchilarni faolligini oshirishni maxsus, alohida shakli sifatida ko'riladi. Ushbu texnologiyada o'quvchilar bilimlarni ma'lum bir o'quv topshiriqlarni bajarish orqali olishadi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat: ma'lum bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha topshiriqlar tizimi tuziladi (masalan, Shimoliy Amerika iqlimi; Xitoyning qishloq xo'jaligi; Yaponiya transporti va hokazolar); O'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish loyihasini ishlab chiqish; mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish uchun test topshiriqlarini tuzish;

dars o'tish, o'quvchilar bilimini baholash. Mazkur texnologiyalarga o'quvchilar faoliyatini faollashtirish texnologiyasini ham kiritsa bo'ladi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish geografik o'yinlar texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi, o'quv materiallarini chizmali, belgili va kartografik modellardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Geografik o'yinlar texnologiyasi geografiya ta'limida juda keng qo'llaniladi va o'zining qiziqarliligi, bilimlarni o'quvchilar tomonidan oson o'zlashti-rishlari bilan ajralib turadi. Geografik o'yinlar texnologiyasi barcha geografiya predmetlarini o'rganishda qo'llanishi mumkin. Muammoli o'qitish texnologiyasi ham geografiya ta'limida yangi emas. U ilgaritdan qo'llanilib kelinadi. Bunda asosiy vazifa bo'lib ma'lum bir mavzu bo'yicha muammoli savollar yoki topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni o'quvchilarga tushuntirishdir. Masalan relefni shakllanishi va rivojlanishi; atmosfera yog'inlarini hosil bo'lishi: qishloq xo'jaligini tabiat zonalari bo'yicha ixtisoslashuvi, sanoat tarmoqlarining joylashuvi va hokazolar.

Modul texnologiyasi geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmokda. Darslik, bo'lim, mavzu ayrim modullarga bo'linadi. har bir modulda o'quvchilar albatta egallashi lozim bo'lgan bilimlar tizimi aniqlanadi. Masalan, geografik koordinatalar mavzusini quyidagi modullarga bo'lishimiz mumkin: ekvator, bosh meridian, parallellar, meridianlar, daraja to'ri, geografik kenglik, geografik uzunlik, geografik koordinatalar. Bunda o'quvchilar albatta bilishi shart bo'lgan bilimlarga parallel, meridian, kenglik, uzunlik, geografik koordinata kiradi. Mazkur texnolo-giyani geografiya predmetlarining barchasida qo'llash mumkin. Mazkur texnologiya o'qituvchi va o'quvchini birgalikdagi faoliyatini yengillash-tiradi va jadallashtiriladi.

Alternativ texnologiyalarni juda ko'p variantlari mavjud, ulardan geografiya ta'limda ustaxona texnologiyasidan foydalanish mumkin (Kollen, Okunev). Bunda usta (o'qituvchi) kerakli ma'lumotlarni o'quvchilarga beradi va uning asosida o'quvchilar o'zlarining bilimlariga tayangan holda topshiriqni bajarishadi. Masalan, o'qituvchi bergan quyidagi materiallar asosida (yillik o'rtacha harorat, yildagi eng baland va eng past haroratlar, yog'in miqdori va uning qaysi faslda yog'ishi, shamollar, havo massalari) iqlim turi, yillik havo harorati farqi, iqlim mintaqasi va u tarqalgan hududlarni aniqlashlari lozim.

Integratsiya texnologiyalari. Geografiya ta'limida integrativ predmet-larini o'rganishda qo'llaniladi. Geografiya ta'limida akademik

litsey va kasb–xunar kollejlarida o'tiladigan «Amaliy geografiya» predmeti integ-rativ predmet hisoblanadi. Unda tabiiy geografik, ekologik, iqtisodiy geografiya, siyosiy geografiya va geosiyosiy bilimlar majmuasi berilgan. Bunda geografik qobiqdagi tabiiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ekologik va geosiyosiy tizimlar haqida yaxlit bilimlar berilgan. Shuning uchun mazkur kursning vazifasi geografik borliqni yaxlit tushunish va qabul qilishni shakllantirishdir.

Kommunikativ - suhbat texnologiyasi ham geografiya ta'limida u yoki bu darajada ilgaritdan foydalanib kelinadi. Bunda o'qituvchidan o'quv jarayonida ijodiy yondashish, suhbat texnologiyasi usullaridan foydalana bilish, suhbat uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, o'quvchilar yoki talabalar o'rtasida munozaralarni tashkil qila bilish talab qilinadi. Geografiya predmetlarini deyarli barchasini o'rganishda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Masalan, «Orol dengizini qutqarib qolish mumkinmi», «Qozog'iston past tog'lari o'rnida Himolay tog'lari bo'lsa, O'rta Osiyo iqlimi qanday bo'ladi?», «Qanday tuproqlar hosildor va nima uchun», "SHimoliy Atlantika" iliq oqimi bo'lmasa Yevropa iqlimi qanday bo'ladi va hokazolar.

Bundan tashqari reyting, jamoa, rivojlantiruvchi, shaxsga yo'nalti-rilgan, mualliflik, didaktik maqsadlarni yiriklashtirish, mantiqiy tayanch konspektlar va boshqa texnologiyalar mavjud.

Ta'lim texnologiyalarining ko'p qismi geografiya ta'limida ilgaritdan o'qitish metodikasi sifatida qo'llanib kelingan. Metodika bilan texnologiya bir-biriga juda yaqin, bir-birini to'ldiradi. Masalan, jahon siyosiy kartasini ma'ruza usulida o'rganish texnologiyasi, Quyosh tizimi mavzusini tushuntirish usulida o'rgatish texnologiyasi va hokazolar.

Demak, geografiya fani yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik ishlar boshqa fanlarga qaraganda sust olib borilmoqda.

IV-BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH VA QO'LLASH

4.1. Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni ilmiy-metodik asoslari

Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammosining hozirgi xolati, 4.3. bo'limda yoritilgan.

Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

-geografiya ta'limining maqsadlarini aniqlash va ularni sinflashtirish;

-ta'lim maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash;

-ta'lim maqsadlariga erishish usullari va metodlarni aniqlash:

-ta'lim maqsadlariga erishishni baholash.

4.1.1. Geografiya ta'limining maqsadlarini aniqlash

Pedogogik texnologiyalarni tushunishni muhim jihatlaridan biri quyidagilardir:

a) juda yaxshi aniqlangan maqsadlarga yo'naltirilganligi;

b) o'quvchilarni o'qitish o'quvchilar faoliyati orqali olib borilishi.

Odatda har bir davlatning ta'lim tizimi jamiyatni sotsial buyurtmasini oladi. Mazkur buyurtma ma'orif va oliy ta'lim muassalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sotsial buyurtma asosida har bir o'quv fanining maqsadi ishlab chiqiladi. So'ngra mazkur fanning har bir o'quv predmeti uchun, ma'lum bir predmetlarning bo'limlari, mavzulari va alohida darslar uchun maqsadlar ishlab chiqiladi.

O'zbekistonda sotsial byurtma «Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda Vazirlar mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qarorida ifodalangan.

Mazkur qonunlarda va qarorlarda yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e'tibor berilishi, yangi darslikni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Geografiya ta'limining maqsad va vazifalari Davlat ta'lim standartiga sharhlarda aniqlab berilgan. Ya'ni geografik madaniyatni

shakillantirish, kartalardan moxirona foydalanishni o'rgatish, tabiat bilan jamiyat munosabatlariga kompleks yondoshishni anglatmoq va h.k.

Geografiya fani bo'yicha ta'lim standarti ikki qismdan iborat: a) ta'lim mazmuning majburiy minimumi; b) bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar. «Ta'lim mazmunining majburiy minimumi» qo'yidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilgan: a) geografiyaning nazariy asoslari; b) geografiyaning tadqiqot metodlari;

v)tabiiy va sotsial-iqtisodiy ob'ektlar; g) hodisalar va jarayonlar; d) olamni idrok etishning moddiy va ma'naviy madaniyatda ifodalanishi; ye)hudud geografik tavsifining tuzilishi. «Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar» 5 ta yo'nalishlarda ishlab chiqilgan: a) ayta (ko'rsata) olish; b) aniqlay (o'lchay) olish; v) tasvirlay olish; g)tushuntira olish; d) bashorat qila olish (P.Musaev, A.Baxromov, 1999).

Yangi pedogik texnologiyalarda maqsadlar o'qituvchi uchun alohida ishlab chiqiladi. O'quvchilarning maqsadi vazifalar deb ataladi. Chunki o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatida o'qituvchilarni maqsadi o'qitish o'quvchilarni maqsadi o'rganishdir (Ziyamuhammedov 2002).

B.A.Farberman, S.Ziyamuhammedov va boshqalarning fikricha o'qitishning mazmuni odatda mavzuli yo'nalishga ega bo'lganligi uchun undan aniq ta'lim maqsadlarini ajratib olish mushkul. Shuning uchun vazifalarni shakillanishini osonlashtirish uchun, ularning tavsifida fa'elllar ishlatiladi. Fa'ellar o'quvchilarni o'quv faoliyatini aks ettiradi, masalan aniq faktlarni biladi; qoidalarni biladi; so'z ifodalagan ma'lumotlarni matematik jixatdan ifodalay oladi; chizma va sxemalarni tushuntirib beradi; berilgan ma'lumotlar bo'yicha oqibatlarni aniqlay oladi; chizma va sxemalarni tushuntirib beradi; berilgan ma'lumotlar bo'yicha oqibatlarni aniqlay oladi va h.k.

O'xshash o'quv maqsadlari va vazifalari uchun aniq fa'ellardan foydalanmoq lozim. Aniq fa'ellar bir tarzda tavsiflanadigan va o'lchanadigan, o'quvchilar o'qishi natijasida bajaradigan operatsiyalardan iborat bo'lishi lozim.

Qator olimlarning fikricha, maqsadlarni aniqlashtirishning umumiy usuli- bu aniq natijalar beradigin faoliyatni ko'rsatadigan fa'ellardan foydalanishdir.

O’xshash ta’lim maqsadlarini shakillantirish bir necha bosqichdan iborat: o’quv mavzusini o’rganishning umumiy maqsadi-xususiy maqsadi-o’xshash ta’lim maqsadi.

Ammo ba’zi hollarda o’xshash ta’lim maqsadlarini shakllantirishda qiyinchiliklar tug’iladi. Ayrim hollarda ta’lim natijalarini ayrim qismlarga bo’lish oson bo’ladi. Bunday hollarda Blum tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyadan foydalanish qulay bo’ladi. Mazkur taksonomi asosida umumiyroq maqsadlarni shakillantirish mumkin. So’ngra esa ularni aniqlashtirish mumkin.

Shu maqsadda geografiya ta’limi maqsadlarining taksonomiyasi ishlab chiqiladi. Mazkur taksonomiya asosi bo’lib, B.Blum tomonidan ishlab chiqilgan umumiy ta’lim maqsadlari taksonomiyasi hisoblanadi (3-jadval).

Geografiya ta’limi maqsadlari taksonomiyasini ishlab chiqishda geografiya faning umumiy maqsad va vazifalari, geografiya ta’limi mazmunining majburiy minimumi hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar hisobga olinadi.

3-jadval

Geografiya ta’limi maqsadlari taksonolmiyasi
(B.Blum taksonomiyasi asosida)

№	Geografiya ta’limi maqsadlarining asosiy toifalari	Ta’lim maqsadlarining turlarining ta’rifi
1.	**Bilish** Mazkur toifa geografik bilimlarni eslab qolish va aytib berishdan iborat. Bu yerda gap aniq geografik faktlarning mazmunidan bir butun nazariyalargacha bo’lishi mumkin. Ushbu toifaning asosiy xususiyati-tegishli ma’lumotlarni eslab qolish-dir.	**Geografiyaning nazariy asoslarini bilish.** Geografik tadqiqot metod-larini bilish, tabiiy va sotsial-iqtiso-diy ob’ektlarni bilish va ularni sinf-lashtirish. Geografik hodisa va ja-rayonlarni bilish, olamni idrok etish-ning moddiy va ma’naviy shaklda ifodalanishi bilishi, hudud geografik tavsifining tuzilishini bilishi
2.	**Tushuntirish** Ushbu toifani ko’rsatgichlari qo’yi-dagilardan iborat: geografik ma’lu-motlarni bir shaklga ikkinchi shakldan aylantirish (masalan, sonlarni kartalarda ifodalash):	**Geografik ob’ektlarni ko’rsata bilish.** Geografik voqea va hodisa-larni hamda ob’ektlarni aniqlay (o’lchay) olishi, geografik ma’lumotlarni tal-qin (interpretatsiya) qila olishi,

№	Geografiya ta’limi maqsadlarining asosiy toifalari	Ta’lim maqsadlarining turlarining ta’rifi
	o’quvchilar tomonidan ma’lumot-larni bayoni yoki voqealarni kela-jakdagi holati haqida tavsiyalar berish (masalan, iqlim-muzlarni ri-vojlanishi, o’rmonlar, tabiiy resurs-lar, aholi, xo’jalik, atrof-muhit va h.k) tushintirish (tabiiy geografik va iqtisodiy geografik qonun va qonuniyatlar, ma’lumotlar, hodisa va jarayonlar) oddiy eslab qolish-dan ustundir.	geografik ma’lumotlarni tasvirlay olishi. Geografik voqea va hodisa-larni, qonuniyatlarni, nazariyalarni tushuntira olish. Atrof-muhitni o’z-garishini bashorat qila olish (ekstropolyatsiya).
3.	**Qo’llash** Geografik metodlarni, umumiy tushunchalarni, qoidalarni qo’l-lash. Bunga quyidagilar kiradi: qoida, metod, tushuncha, nazariya, qonuniyatlar. Tegishli ta’lim na-tijalari bilimlarni tushuntirishga nisbatan yuqori darajada bilishni talab etadi.	**Geografik nazariya va ta’limotlarni qo’llay olish:** Geografik qobiq, geografik o’rin, zo-nallik, modda va energiyaning ayla-nishi, suv muvozanati, mehnatni geografik taqsimoti, xududiy ishlab chiqarish komplekslari, rayonlashti-rish. Geogra-fik tadqiqot metodlari: kuzatish tajriba, kartografik, statistik, tizimli, tarixiy, qiyosiy, aerokosmik, modellashtirish.

№	Geografiya ta’limi maqsadlarining asosiy toifalari	Ta’lim maqsadlarining turlarining ta’rifi
4.	**Tahlil** O’quuvchilar qo’yidagilarni uddalay olishlari lozim: yaxlit geografik qobiqni ma’lum bir qismlarga bo’lishini; geog-rafik borliqni elementlarini o’zgarishi-dagi izchilliklarini aniqlashni; geografik borliqlar orasidagi munosabatlarni aniq-lash olishni; geografik tahlil qila olishni; yaxlit jaxon xo’jaligini tuzilishini tahlil qila olishni, ta’lim	**Geografik qobiq qismlari tahlil i** Geografik qobiq qismlari (lito-sfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera, issiqlik, iqlim min-taqalari, tabiat zonalari, land-shaftlar, xo’jalik komplekslari). Tabiiy - xududiy kompleks-larni, hududiy ishlab chiqarish komplekslarni

№	Geografiya ta’limi maqsadlarining asosiy toifalari	Ta’lim maqsadlarining turlarining ta’rifi
	natijalarini tushunti-rish va qo’llashga nisatan yuqori intelek-tual darajasi bilan ajralib turadi, chunki unda o’quv materialini mazmunini ham uning ichki tuzilishini ham bilish lozim bo’ladi.	tashkil topish tamoillarini tahlili.
5.	**Umumlashtirish (sintez).** Berilgan ma’lumotlarni tahlil i aso-sida yaxlit geografik birlikni yaratish, masalan, fatsiyalar yig’indisi urochisheni, urochishelar yig’indisi joyni, joylar yig’indisi yaxlit landshaftlarni tashkil qilishi. Yoki xo’jaliklar yig’indisi tuman xo’ja-ligini, viloyat xo’jaligi iqtisodiy ra-yonlar xo’jaligini, u esa davlat iqtisodini, davlatlar iqtisodiyoti jaxon xo’jaligini tashkil qilishini. Ta’lim natijalari yangi chizma va tuzilmalarni yaratishga yo’nal-tirilgan, ijodiy faoliyat bo’lishini taqo-zo qiladi.	**Turli - mavzuli kartalar va ma’lumotlarning tahlil i asosida yozma ish tayyorlash.** Ma’lum bir geografik muam-moni yechish bo’yicha faoliyat rejasini ishlab chiqish. Xususiy ma’lumotlar asosida yaxlit tabiiy geografik va iqtisodiy geografik yoki geo-siyosiy yaxlit obrazni yaratish.
6.	**Baholash.** Mavjud qabul qilingan ta’lim maqsad-larini hisobga olgan holda ma’lumotlarni va metodlarni baholash. Masalan, meto-rologik, gidrologik, statistik ma’lumot-larni hamda kuzatish, kartografik, qiyo-siy-gegrafik matematik metodlarni baho-lash. Ushbu toifa ta’lim natijalari yuqori-dagi toifalar bo’yicha natijalar olinishi aniq ifodalangan o’lchamlar asosida ba-holashni talab qiladi.	Tabiiy geografik va iqtisodiy geografik rayonlarni ichki o’lchamlar (ma’lumotlar) asosida baholash. Geografik qobiq va va uning qismlarini hamda jaxon xo’ja-ligini, jaxon geosiyosiy may-donlarini tegishli o’lchamlar asosida baholash.

4.1.2.Geografiya ta’limi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash

Pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo’lgan test topshiriqlari barcha o’quv fanlarida bilimlarni tekshirishni asosiy usuli bo’lib qoldi, ayniqsa XX-asrning 90-yillaridan boshlab kirish imtixonlarida keng qo’llanila boshlandi. Shuni ham aytib o’tish lozimki, deyarli barcha fanlarda ham test topshiriqlarini tuzish bo’yicha aniq bir metodik qullanmalar va ko’rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarni keltirib chiqardi. Testalogiya, ya’ni o’qitish maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash pedagogik texnologiyalarning oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Demak, O’zbekistonda va boshqa qator MDH davlatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash uning oxirgi bosqichlaridan bosh-langan.

Umumta’lim va o’rta maxsus maktablarni eng dolzarb, murakkab va muxim muammolaridan biri o’quvchilarning bilim va malakalarini tekshirishdir. XX-asrning 90-yillarigacha o’quvchilar bilim va malakalarini tekshirishni og’zaki va yozma usuli keng tarqalgan edi. Mazkur usullarning asosiy kamchiligi bilim va malakalarga baho qo’yishdagi sub’ektivlikdir. Har bir imtixon oluvchi bir xil ishga turlicha yondoshib, turlicha baho qo’yish mumkin, eng muximi bu usulda aniq bir muvozanatning sust ishlanganligidir.

SHu munosabat bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasi Oliy o’quv yurtlarining kunduzgi bo’limlariga qabul tizimini takomillashtirish haqida» farmoniga binoan, hamda 1992 yilgi Oliy o’quv yurtlariga test bo’yicha qabulning ijobiy natijalarini hisobga olib, Vazirlar mahkamasi O’zbekistondagi barcha o’quv yurtlari qabulini test usulida o’tkazish haqida qaror qabul qildi.

O’zbekistonda geografiya fani bo’yicha test topshiriqlari tuzib nashr qilina boshladi. Bu soxada X.Vaxobov, P G’ulomov, R.Qurbonniyozov, A.Soatov, A.Qayumov va boshqalar tomonidan katta ishlar amalga ogshirildi. 1994 yildan 2002 yilgacha Davlat test markazi tomonidan test topshiriqlari to’plamlari «Axbarotnoma» shaklida nashr qilindi.

Test ingilizcha «Test» so’zidan olingan bo’lib, topshirish, sinash, nazorat qilish ma’nolarini anglatadi (BSE, 42 t, 1956 g). dastlab testlar psixologiya fanida kishining fikrlash qobiliyati, alohida muhim imkoniyatlari, irodasini va boshqa tomonlarni aniqlashda qo’llaniladigan bir qolipdagi topshiriqlardan iborat bo’lgan (so’zli yoki rasmli shaklda).

Maktablarda testlar (N.Grayvz, 1979) dastlab asrimizning 20-yillaridan boshlab AQSHda qo'llanila boshlangan, bu paytgacha AQSH va Buyuk Britaniyada imtixonlar asosan yozma shaklda o'tkazilar edi. XX-asr boshlarida AQSHda yozma imtixonlar qattiq tanqid ostiga olina boshlandi, natijada bilim va malakalarni tekshirish bo'yicha turli tajribalar sinab ko'rila boshlandi. Chunki AQSHda o'quv jarayonini rejalashtirish bo'yicha maktablar juda katta xuquqqa ega edilar, natijada o'quvchilarning umumiy ta'lim darajalari turlicha bo'lgan. 1920 yildan boshlab Nyu-York shtatining maorif bo'limi aniq (ob'ektlar) testlar bo'yicha imtixon olish tajribasini boshladilar va 30-yillardan boshlab bunday usul AQSHning hamma maktablarida qo'llanila boshlandi. AQSHning shimoliy –sharqiy shtatlarining oliy o'quv yurtlariga kirish imtixonlari bo'yicha kengash ham universitetlarga kirishni rejaga solish maqsadida 30-yillarda testlar tuzishga kirishdi. Natijada testlar tuzish bo'yicha kooperativ xizmati tashkil qilindi, uning asosiy vazifasi, AQSHning maktab va kollejlarida o'quvchilar o'zlashtirishini ko'rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta'minlash edi. 1948 yilda Ushbu kooperativ xizmat ta'lim testlari xizmatiga aylantirildi. Imtixonlar bo'yicha kengash test xizmat-larining ma'lumotlarini kollej va univesitetlarga kiruvchilarning bilimini tekshirishda ishlata boshladi.

Test bo'yicha bilim va malakalarni tekshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: a)fikrlash va matematik qobiliyatni aniqlashga mo'ljallangan testlar (ko'p javobli savollardan tuzilgan, imtixon 3-soat davom etadi); b) yakuniy test, asosan ingliz tili, ijtimoiy fanlar, matematika, chet tilllari va tarix bo'yicha bilimlarni tekshiradi, kiruvchilardan 3-ta predmet bo'yicha testdan o'tish talab qilinadi (har bir predmet bo'yicha imtixon 1-soat davom etadi, hammasi ket-ma ket bo'ladi). Barcha testlar (ingliz tilidan tashqari) ko'p savolli toshiriqlar iborat. Buyuk Britaniyada testlar boshlang'ich maktablarning bitiruvchi sinflarida qobiliyatli o'quvchilarni o'rta maktablarga taqsimlash maqsadida o'tkaziladi. Imtixon topshiradigan o'quvlaridan to'g'ri javobni aniqlash talab qilinadi va har bir to'g'ri javob uchun bir ball qo'yiladi. Baholar aniq bo'lgani uchun imtixon oluvchi-larning subektiv qarashlari yo'q bo'ladi.

Sobiq ittifoqda bilim va malakalarni test orqali tekshirish noilmiy deb qaralib, VKP (b)ning 1936 yil 4-iyulda chiqqan «Xalq maorifi komisarligi tizimidagi pedagogik noto'g'ri talqinlar haqida» nomli

qarorida qattiq tanqid ostiga olindi va man qilindi. 1970 yildan boshlab test usuli maktablarda yana asta sekin tajriba sifatida olimlar va ilg'or o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlandi.

Geografiya soxasida mazkur ishlar T.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, V.A.Korinskaya, L.M. Teltevskaya va boshqalar tomonidan amalga oshirildi.

Hozirgi paytda jaxonda testlarning juda ko'p turlari mavjud, ulardan eng asosiylari , quyidagilar (G'ulomov, Vaxobov, Qurbonniyozov, 1993):

1.Ko'p javobli testlar. Bunday testlar juda keng tarqalgan. O'zbekistonda ham hozir asosan shunday testlar qo'llanilmoqda. Maskur testlarda bitta savolga uchtadan beshtagacha javob bo'ladi, imtihon topshiruvchi to'g'ri javobni aniqlab belgilashi lozim masalan,:

Ikki materik, ikki qit'a, ikki okean, ikki dengiz, ikki yarim orol va ikki davlatni ajratib turuvchi bo'g'izni aniqlang.

A.Bosfor

V.Gibraltar

S.Dreyk

D.Torres

E.Bering

2."To'g'ri- noto'g'ri" xilidagi savollardan iborat tetstlar (alternativ testlar). Bunda imtixon topshiruvchi topshiriqqa binoan to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarni aniqlash kerak. Masalan, Yevropaga kirmaydigan davlatlarni tagiga chizing.

Ispaniya, Kuba, Frantsiya, Lixtenshteyn, Shri Lanka, Chexiya, Surinam, Barbados.

Yoki quyidagi to'g'ri yozilgan nomlarni tagiga chizing.

Andijon, Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo, Namangan, Jizzax viloyatlari Farg'ona vodiysida joylashgan.

3.Uyg'unlashgan savolli testlar. Bunday testlarda berilgan savollar yoki nomlar yoniga ularga mos bo'lgan tayyor javoblarni yozib qo'yish talab qilinadi. Masalan,

Toshkent viloyatida joylashgan shaharlar yoniga, ular uchun hos bo'lgan sanoat tarmog'ini yozing.

Yoqilg'i – energitika sanoati, rangli metallurgiya, oziq-ovqat, ximya, qurilish maxsulotlari ishlab chiqarish sanoati.

Yangiyo'l-

Chirchiq-

Ohangaron-
Olmaliq-
Bekobod-
Angren-

4.Tushrib qoldirilgan so’zlarni to’ldirishga mo’ljallangan testlar.

Ushbu testlar tabiiy geografiyada keng tarqalgan geografik diktantlarga to’g’ri keladi. Masalan, «Farg’ona vodiysini shimoli g’arbdan .....tizmasi, ...dan Farg’ona tizmasi, ...dan Oloy va Turkiston tizmalari o’rab turadi. Ma’muriy jixatdan Farg’ona vodiysida O’zbekistonga qarashli 3 ta viloyat- ....viloyatlari Qirg’izistonning .....viloyatlari va .....ning Xo’jand viloyati joylashgan».

5. Rasm yoki chizmali testlar. Ushbu testlarda 3-5 ta rasm yoki chizma beriladi, ularning ichidan geografiya ob’ektini topish, yoki bo’lmasa chizmadagi xatolarni topish talab qilinadi. Masalan, «Quyidagi rasmlar ichidan Tanganika ko’lini aniqlang»

6. Murakkab testlar, ular o’quvchilarni fikrlashga va olgan bilimlarini qo’llay bilishga majbur qiladi.

Misol, Ishbilarmonlar g’isht ishlab chiqarishning Yang usulini o’ylab topishdi. G’ishtni ishlab chiqarishni boshlash uchun ish kuchi, rangli metallurgiya sanoati chiqindilari kerak, mablag’ni tog’- metallurgiya birlashmasi beradi. Bu g’ishtlar assan shaxsiy uylar qurishda ishlatiladi, shuning uchun axoliga sotishga mo’ljallangan, ammo maxsulotning 60% ni tog’-metallurgiya birlashmasi oladi. Hokimiyat quyidagi shaxarlardan biriga mazkur zavodni qurishga ruhsat berdi. Ishbilarmonlar g’isht zavodi qurish uchun qaysi shaharni tanlashadi (erning narxi hama joyda bir hil)?

A.Andijon, V.Olmaliq S.Bekobod D.Toshkent Ye.Chirchiq.

7. Jadval shaklida testlar. Jadvalli testlar uch qismdan (ustundan) iborat bo’dadi. Birinchi ustunda geografik joy, voqea va hodisalarning nomlari beriladi, ikkinchi ustunda ularning shakli, xususiyati va xossalari ko’rsatiladi, uchinchi ustunda Ushbu xususiyatlar qaysi joyga, voqea va xodisaga xos bo’lsa, o’sha voqea va hodisaning hamda joyning tartib raqamni imtixon topshiruvchi yozib chiqishi kerak. Misol, Yevrosiyo relifining qanday shakllari qaysi geologik tuzilishlarga to’g’ri kelishini ko’rsating? (4-jadval).

4-jadval

Evrosiyo relef shakllari	Geologik tuzilmalari	Javoblar
1.O'rta Sibir yassi tog'ligi 2.Turon pasttekisligi 3.Tyanshan 4.SHarqiy Yevropa tekisligi 5.Dekan yassi tog'ligi 6.G'arbiy Sibr pasttekisligi 7.O'rta russiya balandligi 8.Arabiston yarim oroli cho'llari va yassi tog'lari	Platforma Plita Qalqon	1,4,5,8 2,6 7

8.Didaktik testlar yoki ko'p savolli va javobli testlar. Bu turdagi testlarda avval javoblar ro'yxati beriladi, keyin savollar beriladi, imtixon topshiruvchidan tayyor javoblardan moslarini topish talab qilinadi.

Misol. Javoblar.

Ptolemey

Beruniy

Kolumb

Magellan

Eratosfen

Savollar: 1.Amerika qit'asiga kim boshchiligidagi ekspeditsiya birinchi bo'lib borgan?

2. «Geografika» degan kitobni kim yozgan?

3.Kartalarni daraja to'ri bilan tuzishni kim birinchi bo'lib taklif qilgan?

4.Globusni birinchi bo'lib kim yasagan?

5.Dunyo bo'ylab kim birincha sayohat qilgan?

Test savollari va javoblarini tuzishning eng muhim tomonlaridan biri uning vazifasini, maqsadlarini va kimlarga mo'ljallangan hamda nimalar asosida tuzishni aniqlab olishdir.

Testlar vazifasiga ko'ra kundalik, oraliq va yakuniy testlarga hamda oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda qo'llaniladigan umumiy yoki maxsus testlarga bo'linadi. Har bir yirik mavzu o'tib bo'lingandan so'ng o'tkaziladigan testlarning maqsadi, o'quvchilar va talabalarning mazkur mavzu bo'yicha bilimlarini qay darajada bilib olganliklarini aniqlashdir (kundalik nazorat). Har bir yirik bo'lim o'tib bo'lingandan keyin

o’tkaziladigan testlar oraliq yoki chegaraviy nazoratni tashkil qiladi. Yakuniy test butun kurs o’tib bo’lingandan keyin sinov yoki imtihon tarzida o’tkaziladigan va o’quvchilar hamda talabalar egallagan bilim, malakalar ball bilan aniqlanadi. Oliy o’quv yurtlariga qabul qilishda ishlatiladigan testlar tegishli soxalar bo’yicha mutaxasislar tomonidan tuziladi.

Testlarning maqsadi o’quvchilar va talabalarning olgan bilim va malakalarini, fikrlash qobiliyatini, qaysi fanga yoki soxaga moyilligini aniqlashdan iboratdir. Har bir sinfda, har bir kursda turli xil murak-kablikdagi bilim va malakalar tekshiriladi. Boshlang’ich tabiiy geografiya kursida test savollari va javoblari asosan quyidagi yo’nalishlar bo’yicha o’quvchilar bilim va malakalarini tekshirishga mo’ljallanadi: topografik va kartografik bilim va malakalar, tasavvurlar (Erning qobiqlari, tuzilishi, o’lchamlari, tabiat uyg’unliklari va h.k.); o’z yashash joyining geografik xususiyatlari haqida bilimlar va dunyo aholisi haqidagi bilimlar.

Materiklar va okeanlar geografiyasi kursi bo’yicha test savollari va javoblari ikki yo’nalishda tuzilishi mumkin:

- umumiy tushunchalar bo’yicha testlar quyidagi bilimlarni tekshirish uchun tuzilishi kerak: tabiat tarkiblari haqida umumiy tushunchalar tizimi bo’yicha bilimlar; umumiy geografik qonunlar haqidagi bilimlar;

- yakka tushunchalar bo’yicha testlar har bir materik va okeanlar haqida quyidagi bilimlarni tekshirish uchun tuziladi; materik va okean-larning geografik joylashishi; tabiat tarkibining asosiy xususiyatlari,yirik geografik borliqlar (ob’ektlar) ning joylashishi; tabiat uyg’unliklari (birliklari) ning joylashishi: har bir materikning aholisi va yirik davlatlari.

Iqtisodiy geografiya kursi bo’yicha test savollari quyidagi bilim va malakalarni tekshirish uchun tuzilishi kerak:

-umumiy iqtisodiy geografik tushunchalar haqida bilimlar;

-tarmoqlar geografiyasi haqida bilimlar;

-alohida davlatlar, iqtisodiy zonalar, hududlar, viloyatlar iqtisodiy geografiyasi haqida bilmlar;

Test savollari va javoblarini qanday ma’lumotlar vositasida tuzish kerak, bu ham eng muhim masalalardan biri bo’lib hisoblanadi. Test tuzayotganda doimo bitta qoidani esdan chiqarmaslik kerak, u ham bo’lsa test savollari va javoblarini dastur doirasida bo’lishi qoidasidir.

Agar test savollari va javoblari dastur doirasiga kirmasa, o'quvchilar yoki talabalar savollarga noto'g'ri javob berishi mumkin. Har bir kurs va uning qoidalari bo'yicha tuzilgan testlar xam shu kurs yoki qism doirasidagi bilimlar asosida tuzilishi kerak. Test savollari va javoblari quyidagi ma'lumotlar asosida tuziladi:

- tegishli darslik matni asosida;

-darslikdagi kartalar, rasmlar, chizmalar va jadvallar vositasida;

-tegishli sinflar va kurslar uchun chiqarilgan atlaslar va kartalar asosida;

-tegishli kurslar uchun chiqarilgan metodik qo'llanma, ko'rsatma va yo'riqnomalar asosida;

-fakultativ mashg'ulotlar bo'yicha darslik va qo'llanmalar asosida Geografik ma'lumotlar test savollari va javoblari tuzish darajasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

-test savollari va javoblari oson tuziladigan ma'lumotlar ;

-test savollari va javoblari qiyin tuziladigan ma'lumotlar;

-test savollari va javoblari tuzib bo'lmaydigan yoki juda qiyin tuziladigan ma'lumotlar. Masalan, ayrim tushuncha va ta'riflar, jarayon-ning tavsifi kabi masalalar.

Testlar qamroviga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Kursning ayrim mavzulariga, bo'limlariga tuzilgan testlar masalaning mohiyatini chuqur ochib beradi, mavzular juda chuqur va aniq yoritiladi. Yakuniy testlar esa asosan umumiy qonuniyatlar va xususiyatlarni ochib berishga yo'nal-tirilgan bo'lishi kerak. Testlar o'quvchilar bilmini tekshirishda va baho-lashda har qanday sub'ektiv shart – sharoitlarga qaramasdan bahoning ob'ektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'p javobli testlar tuzilayotganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

-javoblar eng kamida 3 ta bo'lishi kerak, javoblar qancha ko'p bo'lsa, tasodifiy baholar soni shuncha kam bo'ladi, odatda hozirgi paytda beshta javobli testlar keng tarqalgan;

-noto'g'ri javoblar ham haqiqatga yaqinroq bo'lishi kerak;

Testdagi har bir savol va unga berilgan javoblar o'quvchi va talabarni chuqur o'ylashga, tafakkur qilishga majbur qilish kerak. Talabalar bilimini va malakasini tekshirishda test usulini qo'llashni quyidagi afzalliklari bor:

-test usulida o’tkazilgan imtihonda o’rganilgan hamma masalalarni talabalar qanday o’zlashtirganligini bira to’la aniqlash mumkin. Oddiy imtixonda buni iloji yo’q.

-talabalar yoki ko’pchilik talabalar qaysi mavzularni to’liq o’zlash-tirgan, qaysilarini kam o’zlashtirgan, qaysi masalalarni qisman o’zlash-tirgan, qaysilarini kam o’zlashtirgan yoki butunlay bilib olmaganligini aniqlash mumkin:

-barcha talabalar bilimini qisqa vaqt ichida tekshirib olish mumkin;

-talabalar bilimini ob’ektiv baholash mumkin.

Test usulini qo’llashning qiyinchiliklari va noqulayliklari quyidagilar-dan iborat:

-test savollari va javoblarini tuzish juda qiyin va katta ma’suliyatni talab qiladi;

- talabalar bilan bevosita muloqotda bo’linmaydi;

-talabaning ilmiy va og’zaki nutqini o’stirishga yordam bermaydi;

-an’anaviy imtixon va sinovlarda talabalar bilmagan narsalarni bilib olishadi, ya’ni imtixon va sinov bilim berish usullaridan biri ekanligi test usulida bo’lmaydi;

-talabalar 40-50 ta savolning qaysi biriga to’g’ri va qaysi biriga noto’g’ri javob berganliklarini ham bilmaydilar.

SHuning uchun testga talabalar bilmini tekshirish usullaridan biri sifatida qarash lozim. Lekin oliy o’quv yurtlariga qabul imtixonini test usulida o’tkazish eng maqul usul. Chunki bunda sub’ektivlikka o’rin qolmaydi. Test usuli EXM yordamida amalga oshirilishi kerak. Javoblarga qo’yiladagan ballarni ham mashina hisoblashi kerak.

Endi test savollari va unga kalit tayyorlash haqida. Joriy testda muayyan mazmuni o’quvchilar yoki talabalar qanday o’zlashtirganini nazorat qilinadi, shuning uchun savollar maydaroq va chuqurroq bo’ladi. Oraliq testda savollar kengroq bo’ladi. Yakuniy testlar butun o’quv kursi materialini o’z ichiga oladi.

4.2. Didaktik o’yinlar texnologiyasi

Geografiya ta’limida didaktik o’yinlar texnologiyasi o’quvchilarni bilim faoliyatini jadallashtirishni asosiy usullaridan biri sifatida ilgaridan qo’llanib kelinadi.

O’quvchilarga geografik o’yinlar orqali bilim berish didaktik o’yinli darslar deb ataladi.

Geografik o’yinlarning asosiy xususiyatlari qo’yidagilardan iborat.

1. Geografik o’yinlar bilan dars o’tilganda o’quvchilarda rivojlantiruv-chi faoliyat vujudga keladi. Bunda o’yinda ishtirok etayotgan o’quvchilar rollarini, vazifalarini erkin tanlashadi. Masalan, ekspeditsiya o’yinlarida kema darg’asi, boshqaruvchi, kuzatuvchi, kartograflar, dengizchilar va boshqa rollar.

2. Geografik o’yinlar bilan shug’ullanish jarayonida ijodiy muhitni va munozarali vazifalarni vujudga kelishi. O’quvchilar geografik o’yin davomida aniq bir rollar va vazifalarni bajarish jarayonida ijodiy ishlar bilan mashg’ul bo’ladi, ma’lum bir muammoli vaziyat vujudga kelsa ularni hamkorlikda yechishadi.

Geografik o’yinlar darsini mavzusi va o’tkaziladigan muddatini o’qituvchi oldindan belgilaydi. O’yinga tayyorgarlik davomida o’qituvchi geografik o’yinlarning tarkibiy tuzilishini aniqlab oladi. Geografik o’yinlarning tarkibiy tuzilishiga quyidalilar kiradi: o’yining maqsadi va loyihasini ishlab chiqish; o’yinda ishtirok etadigan personajlarni (rollarni) aniqlash; o’yinda ko’zda tutilgan personajlarni vazifalarini ishlab chiqish; ma’lum bir personajlar bajaradigan vazifalarni metodini ishlab chiqish yoki tanlash; geografik o’yinda ishtirok etadigan personajlar o’rtasidagi munosabatlarni ishlab chiqish.

Geografik o’yinlar individual, guruhli va ommaviy turlarga bo’linadi. Ularning barchasi ma’lum bir o’quv sharoitlarida qo’llaniladi. Geografik o’yinlar syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlik, konferentsiya va boshqa turlarga bo’linadi.

Syujetli-rolli o’yinlar tabiiy va ijtimoiy- iqtisodiy borliq voqea va hodisalar o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganishga yo’naltirilgan bo’ladi.

Ijodiy o’yinlar o’quvchilarni avval olgan bilimlariga asoslanib ma’lum bir muammoli geografik masalani didaktik o’yin orqali yechishga mo’ljallangan bo’ladi.

Ishbilarmonlik yoki biznes o’yini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida ko’proq qo’llaniladi.

Bunday iqtisodiy, ijtimoiy va geografik muammolar geografik o’yinlar yordamida hal qilinadi.

Geografiya fanida qo’llaniladigan didaktik o’yinlarni ikkita katta guruhga bo’lishimiz mumkin: tabiiy geografik o’yinlar va ijtimoiy-iqtisodiy geografik o’yinlar.

4.2.1. Tabiiy geografik o’yinlar

Didaktik o’yinlar texnologiyasi tabiiy geografik bilimlarni o’rganishni va o’zlatirishni faollashtiradi. Mazkur didaktik o’yinlarni

sinflar bo'yicha ham aniq bir mavzular bo'yicha ishlab chiqish mumkin, sinflar bo'yicha quyidagi predmetlar uchun ishlab chiqish mumkin. Tabiiy geografiya darslarida qo'yidagi mavzular bo'yicha didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin:

-geografik tadqiqotlar tarixi. Fanning rivojlanish tarixi, hududlarni va ayrim muammolarni o'rganish tarixi;

-plan va karta, shartli belgilar, andozalar, gorizontallar, geografik kordinatalar, mashstab va h.k.;

-litosfera: yerning ichki tuzilishi; yer po'sti; tog' jinslari; relef va uning turlari, ayrim hududlar relefi;

-gidrosfera va uning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani. Quruqlik suvlari, yer osti va yer usti suvlari. Materiklar va ayrim hududlar ichki suvlari;

-atmosfera, uning tuzilishi, tarkibi, havo massalari. Ob-havo va iqlim. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Iqlim mintaqalari. Tsiklonlar, yog'inlar. Materiklar va ayrim hududlar iqlimi;

-biosfera. Materiklar ayrim hududlarining tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi.

Yuqorida keltirilgan tabiat tarkiblarining har biri bo'yicha juda ko'p didaktik o'yinlar ishlab chiqish mumkin. Individual didaktik o'yinni quyidagicha tuzishimiz mumkin.

1. Ekvator bo'yicha atlantika okeannining kengligi 60^0 bo'lsa, yerning harakat tezigida uchayotgan kosmik kema uni necha soatda bir qirg'og'dan ikkinchi qirg'og'iga yetib boradi. Mazkur o'yinni yechish uchun o'quvchi quyidagilarni bilishi lozim. Yerning burchak tezligini, ekvatorda 1^0 yoyning uzunligini. Yerning burchak tezligi soatiga 15^0, ya'ni yer bir soatda 15^0 masofani bosib o'tadi. Demak kosmik kema yer tezligida uchayotgan bo'lsa Atlantika okeanining kengligi 60^0 bo'lsa, uni bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'iga 60^0:15= 4 soatda yetib boradi. Ekvator bo'ylab 1^0 yoyning uzunligi 111,0 km^2 teng, unda ekvator bo'yicha Atlantika okeanining kengligi 60 x 111,1km^2=6666 km.

Yoki bo'lmasa koordinata to'ri bo'yicha quyidagicha individual o'yinni ishlab chiqish mumkin: Sharqiy yarimsharning 105^0 meridiani g'arbiy yarim sharning qaysi meridianiga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim: har bir yarim sharning va yer sharining necha gradusga teng ekanligini. Shundan so'ng mazkur o'yin quyidagicha yechiladi:

180^0-105^0=75^0 demak sharqiy yarim sharning 105^0 meridiani g'arbiy yarim sharning 75^0 meridianiga to'g'ri kelar ekan.

"O'rta Osiyo foydali qazilmalari" mavzusida guruhli o'yinni tashkil qilish mumkin. O'rta Osiyo yozuvsiz kartasi shunday bo'laklarga ajratiladiki uning har bir bo'lagida ma'lum bir foydali qazilma albatta bo'lsin. Bo'laklarga mos qilib kartochkalar kesiladi uning har biriga foydali qazilma koni bor joy nomi yozib chiqiladi. Masalan, Angren, Polvon tosh, Boysun. Boshqaruvchi kartochkalarni yig'ib olib yozuvsiz kartalarni o'yin ishtirokchilariga tarqatadi. O'yin boshqaruvchi joy nomlari yozilgan kartochkalarni bittadan olib o'qiydi va ishtirokchilardan kimni qo'l ko'tarishini kuzatadi qo'l ko'targan o'quvchiga kartochkani beradi. Mazkur kartochka yozuvsiz kartaning kerakli joyiga qo'yilishi lozim. Qachon o'yin ishtirokchilaridan biri yozuvsiz kartalarni kerakli kartochkalar bilan to'ldirib bo'lgandan so'ng o'yin tugaydi va u o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Ommaviy geografik o'yinlar 2-3 ta parallel sinflar bilan o'tkazilishi mumkin. Ommaviy o'yinlar odatda chorak oxirida yoki o'quv yili oxirida, bayramlarda, maktab olimpiadalarida o'tkazilishi mumkin.

4.2.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida didaktik o'yinlar o'tkazish texnologiyasi

Umumta'lim maktablarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslari VIII- IX sinflarda o'rganiladi. Mazkur kurslarda quyidagi mavzular bo'yicha didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin:

-tabiiy resurslar va ulardan foydalanish;

-siyosiy karta va uning shakillanish bosqichlari. Davlatlar va ularning turlari;

-aholi geografiyasi, ko'payishi, tarkibi, shahar va qishloq aholisi, urbanizatsiya darajasi, axolini ko'chib yurishi;

-ilmiy - texnik inqilob va uning ishlab chiqarishni rivojlanishiga ta'siri. Sanoatini industrial orti rivojlanishi;

-mehnatni xalqaro geografik taqsimoti. Xalqaro ixtisoslashuv, mintaqaviy va tarmoq ixtisoslashuvi;

-sanoat va uning tarmoqlari. Materiklar va alohida davlatlar sanoati;

-qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari. Materikklar va alohida davlatlar qishloq xo'jaligi;

-transport va xalqaro iqtisodiy aloqalar;

-mintaqalar va davlatlar iqtisodiy geografiyasi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi bo'yicha individual va guruhli didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin.

1.Afrika materigi siyosiy kartasidagi davlatlarni chegarasi bo'yicha qirqib olib, ularni joylashtirish bo'yicha o'yin tashkil qilinadi. Bunda 2-3 ta o'quvchi navbat bilan davlatlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yib chiqadi. Kim qisqa vaqtda mazkur ishni bajarsa o'sha g'olib hisoblanadi. Bunda o'quvchilarni siyosiy karta va davlatlarni geografik joylanishi xaqidagi bilimlari tekshiriladi.

2. Maydoni 1 mln. km^2 ortiq bo'lgan davlatlar soni qaysi materikda ko'p ekanligini aniqlang.

3. SHarqdan-g'arbga, shimoldan-janubga geografik o'yini. O'qituvchi yoki o'yin boshqaruvchisi sinf o'quvchilariga besh va undan ortiq davlat nomi yozilgan kartochkalar tarqatadi. O'yin ishtirokchilariga kartochkada yozilgan davlatlarni ma'lum tartibda ya'ni sharqdan g'arbga yoki shimoldan janubga tomon tartib bilan, ma'lum ajratilgan vaqt ichida yozib chiqishlari topshiriladi. Masalan, kartochkada quyidagi davlatlar yozilgan deylik: Jazoir, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi, Liviya, Misr, Saudiya Arabistoni, Marokash, Kongo, Tunis, Efiopiya. Agar sharqdan g'arbga ma'lum tartibda davlatlarning nomini yozish talab etilsa – Saudiya Arabistoni, Misr, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash tartibida yoziladi. Agar shimoldan janubga tomon yozish talab etilsa quyidagi tartibda Latviya, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi, Kongo.

SHunga o'xshash geografik o'yinlarni har bir davlat iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bo'yicha ham ishlab chiqish mumkin.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiiy geografiyasi va uning tarmoqlari bo'yicha qator didaktik o'yinlar ishlab chiqib, o'quvchilarni bilish faoliyatini jadallashtirish mumkin.

4.3. Modulli ta'lim texnologiyasi

Umumta'lim maktablarida geografiya predmetlari oddiydan murakablikka tomon bir – birini to'ldiradigan holda joylashtirigan. Har bir geografiya predmetida bir- biri bilan bog'langan voqea va hodisalar xususiyatlari va qonunyatlari ochib berilgan. Shuning uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan borliq, voqea va hodisalar haqidagi bilimlar tizimiga geografik modullar deb ataladi. Har bir modul yanada mayda modullarga bo'linib ketadi. Agar umumta'lim maktablarida geografiya

predmetlarini bitta katta modul deb qaraydigan bo'lsak har bir sinf geografiyasi alohida modul deb qaralishi mumkin. (1- rasm.)



1-rasm. Geografiya ta'limining yirik modullari

1-modul 2-modul 3-modul 4-modul 5-modul

Yirik modullarni yanada kichikroq modullarga bo'lish mumkin.Bunda har bir sinf geografiya dasturi mazmunidan kelib chiqqan holda tegishli modullarga bo'linadi.

Mazkur xolni beshinchi sinf geografiya predmeti misolida ko'rib chiqamiz. 5-sinfda o'rganiladigan «Boshlang'ich tabiiy geografiya» predmetini 5 ta modulga bo'lishimiz mumkin.

1-modul. Kirish. ya'ni geografiya fanining predmeti, tarmoqlari, rivojlanish tarixi. Mazkur modulni yanada mayda modullalarga bo'lib yuboramiz.

1.1-modul. Geografiya fani nimani o'rganadi va u qanday tarmoqlarga bo'linadi. Demak bu yerda geografiya fani haqida umumiy tasavvur va bilimlar beriladi. Shundan so'ng geografiya fanini ikkita yirik tarmoqkka ya'ni tabiatni va tabiiy sharoitni o'rganadigan tabiiy geografiyaga aholini va uning xo'jalik faoliyatini o'rganadigan iqtisodiy va ijtimoiy geogra-fiyaga, bo'linishi haqida o'quvchilar ga bilimlar beriladi.

1.2-modul. Geografik bilimlarning rivojlanishi. Mazkur modulni tushuntirish qadimgi Yunoniston geografiya maktabi vakillari Aristotel, Ptolomey, Strabon geografiyasidan boshlanadi. So'ngra O'rta asrlarda sharq, jumladan O'rta Osiyoda geografiya fanini rivojlanishi, buyuk georafik kashfiyotlar, 18-19 asrlarda va XX asrlarda geografiya fanlarining rivojlanishi haqida bilimlar beriladi.

1.3 - modul. Zamonaviy geografiya. Hozirgi davrda geografiya fani-ning asosiy vazifalari hakida bilimlar beriladi.

Ikkinchi yirik modul plan ya'ni tarx mavzusiga bog'ishlanadi.

2- modul. Tarx.Mazkur modul quyidagi kichik modullarga bo'linadi.

2.1 - modul. Joy tarxi haqida tushuncha. Rasm, aerosurat, kosmosurat va tarx. Ularning bir- biridan farqi.

2.2- modul. Masshtab. Sonli, chiziqli va so'zli,bir masshtabni ikkinchi masshtabga o'tkazish. Masalan, so'zli mashtabni sonli yoki chiziqli mashtabda ifodalash. Masshtab bilan mashqlarni amalga oshirish.

2.3–modul. Shartli belgilar, ularning turlari. Masshtabli va massht-siz shartli belgilar.

2.4- modul. Azimut. Ufq tomonlari. Kompas va u bilan ishlash.

2.5 – modul.Mutloq va nisbiy balandlik. Joyda masofani aniqlash. Gorizontallar va ular bilan ishlash**.**

2.6- modul. Tarx olish. Qutbiy va yo'nalish bo'yicha tarx olish.

3 – modul. Geografik kartalar.

3.1- modul. Kartalar haqida tushuncha. Globus. Dunyo kartasi. Yarim sharlar kartasi. O'zbekiston kartalari. Yozuvsiz kartalar. Atlaslar.

3.2- modul. Daraja to'ri. Ekvator, meridian, parallellar. Qutblar.

3.3- modul. Geografik kordinatalar.Geografik uzunlik. Geografik kenglik. Geografik koordinatalarni aniqlash.

Qolgan modullar ham xuddi shu tartibda tuzib chiqiladi (14 modul Yer Quyosh tizimida; 5 –modul – Yer qobiqlari. Yer qobiqlari o'z navbatida 7- ta kichik modulga bo'linadi.)

Modulli texnologiya bilan dars o'tilganda bilimlar bosqichma-bosqich beriladi va o'zlashtiriladi. Mazkur texnologiya o'qituvchi uchun ham juda qulay.

6-sinfda o'rganiladigan "Materiklar va okeanlar" tabiiy geografiya kursini 10 ta yirik modulga bo'lishimiz mumkin: 1.Kirish; 2.Geografik qobiq; 3.Dunyo okeani; 4.Afrika; 5.Avstraliya va Okeaniya; 6.Antarktida; 7. Janubiy Amerika; 8. Shimoliy Amerika; 9.Evrosiyo; 10. Dunyo aholisi va siyosiy kartasi. Mazkur ajratilgan modullarni yanada maydaroq modul-larga bo'lish mumkin. Masalan, geografik qobiq modulini quyidagi kichik modullarga bo'lish mumkin: 2.1. Geografik qobiqning xususiyatlari. 2.2. Geografik qobiqning bo'ylama (vertikal) tuzilishi. 2.3. Geografik qobiqning yuzalama (gorizontal) tuzilishi.

4.4. Hamkorlikda o’qitish texnologiyalari

Hamkorlikda o’qitish texnologiyasi XX-asrning oxirlarida AQSH olimlari tomonidan ishlab chiqilgan, so’ngra Yevropa davlatlarida qo’llanila boshlangan. O’zbekistonda mazkur usul biologiya ta’limi uchun J.O.Tolipova va A.T.G’ofurovlar (2002) tomonidan qo’llangan va uning ilmiy metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Hamkorlikda o’qitish texnologiyasining asosiy g’oyasi birgalikda yangi bilimlarni o’rganish va topshiriqlarni bajarish hisoblanadi. Mazkur usulni bir necha variantlari mavjud. Ulardan keng tarqalgani quyidagilardir: a)kichik guruhlarda ijodiy izlanishlarni tashkil qilish metodi; b) xamkorlikda o’qitishni “arra” usuli; v)kichik guruhlarda xamkorlikda o’qitish; “Birgalikda o’qiymiz” metodi; guruhda o’qitish (Tolipova, G’ofurov, 2002)

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish usuli 1976 yil Sh.SHaron (Isroil) tomonidan ishlab chiqarilgan. Mazkur metod bilan o’qitish texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

- 6 kishidan iborat o’quvchilar ijodiy guruhi tuziladi;
- darsda o’rganiladigan mavzu yanada kichik modullarga (qismlarga) ajratiladi;
- so’ngra modullar (qismlar) o’quvchilar o’rtasida taqsimlanadi;
- har bir o’quvchi o’ziga taqsimlangan modulni bajaradi;
- modulni topshiriqlari bajarib bo’lingandan so’ng munozara o’tkaziladi, so’ngra guruh tomonidan ma’ruza tayyorlanadi;
- guruh a’zolari tayyorlagan ma’ruzani sinfda himoya qilishadi.

Masalan, Afrika iqlimini o’rganish 6 kishilik guruhga topshirildi deb faraz qilsak, uni quyidagi 6 ta modulga (qismga) bo’lamiz:

1 modulcha-Afrika iqlimini shakillanish omillarini o’rganish.

2 modulcha- Afrikani qish faslidagi iqlimini asosiy xususiyatlarini ochib berish.

3 modulcha-Afrikani yoz faslidagi iqlimini asosiy hususiyatlarini ochib berish

4 modulcha-Afrika materigida yog’inlar taqsimotini asoslab berish

5 modulcha-Afrika materigidagi shamollarni asosiy turlari va yo’na-lishlarini aniqlash

6 modulcha- Afrika iqlim mintaqalarini tavsifini tuzish

Mazkur topshiriqlar (modullar)bajarilgandan so’ng guruh talabalari tomonidan Afrika iqlimi haqida ma’ruza tayyorlanadi va sinf o’quvchilari oldida ximoya qilinadi.

Xamkorlikda o’qitishni aralash usuli 1978 yilda E.Aronson tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metod bilan dars o’tish texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

- 6-8 ta o’quvchidan iborat kichik guruh tashkil qilinadi;
- bunda ham darsda o’rganiladigan mavzu ma’lum bir mantiqiy modullarga bo’linadi;
- har bir modul bo’yicha o’quvchilar bajarishi lozim bo’lgan topshiriqlar tizimi tuziladi;
- ma’lum bir o’quvchilar guruhi bitta topshiriqni bajaradi va mazkur topshiriq bo’yicha mutaxasisga aylanadi;
- guruhlar qayta tashkil etiladi va har bir guruhda ma’lum bir topshiriq bo’yicha mutaxassis albatta qatnashishi zarur;
- har bir topshiriq bo’yicha shakllangan “mutaxassis” o’zi egallagan bilimlarini sinfdoshlariga gapirib beradi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o’qitish usuli 1986 yil R.Slavin tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metod bilan o’qitish texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat; a) o’qituvchi 4 ta o’quvchidan iborat kichik guruhlar tuzadi; b) o’qituvchi ma’lum mavzu bo’yicha o’quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil etadi; v) topshiriq 4 qismga bo’linib, har bir topshiriqni bittadan o’quvchi bajaradi; g) har bir o’quvchi bajargan topshirig’ini guruhdoshiga tushuntiradi; d) har bir guruh topshiriq yuzasidan xulosa tayyorlaydi; ye) o’qituvchi xar bir guruh xulosasini tinglaydi va ular bilimini baholaydi.

Masalan, O’zbekistonni ma’lum bir tabiiy geografik o’lkasini tabiatini o’rganishda, sinf o’quvchilarini 4 kishidan iborat kichik-kichik guruhlarga bo’lib quyidagi topshiriqni berish mumkin (Farg’ona vodiysi misolida):

1-guruh. Farg’ona vodiysining geografik joylashishi va chegaralari hamda tekshirish tarixi.

2-guruh. Farg’ona vodiysining geologik tuzilishi, relefi va foydali qazilmalari;

3-guruh. Farg’ona vodiysining iqlimi;

4-guruh. Farg’ona vodiysining ichki suvlari;

5-guruh. Farg’ona vodiysining tuproqlari, o’simligi va hayvonot dunyosi.

Guruhli usulda o’qitish texnologiyasida sinf ikkita guruhga bo’linadi va ikkala guruhga bir xil topshiriq beriladi. Masalan, yog’inlar va ularning turlari.

V BOB. AMALIY GEOGRAFIYA DARSI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

5.1 Darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini ishlab chiqish.

O'quvchilarga bilim berish va ularni tarbiyalash dars jarayonida olib boriladi. Shuning uchun dars geografiya ta'limining eng asosiy va markaziy qismi hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi darsga ajratilgan aniq vaqt davomida belgilangan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishadi. Har bir darsni maqsadi aniq ifodalangan bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilar ko'zda tutilgan bilim va ko'nikmalarni samarali bilish uchun geografiya darslariga qator talablar qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat: darsning ta'limiy va tarbiyavty maqsadlarini aniq ishlab chiqish; darsning mazmunini ilmiyligiga erishish; dars o'quvchilarni kasbga yo'naltirishi lozim; tanlangan o'qitish metodi dars mazmuniga mos kelmog'i lozim; geografiya darslarida predmetlararo aloqalar o'rnatilishi lozim; har bir dars ekologik yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim; har bir geografiya darsida o'lkashunoslik ta'moyillari hisobga olinmog'i zarur.

Darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini ishlab chiqish. Geogra-fiya darslarini ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini to'g'ri va aniq ishlab chiqish darsni samaradorligini belgilab beradi. Dastlab darsni ta'limiy maqsadlari ishlab chiqiladi. Buning uchun: geografik borliq, voqea va hodisalar haqida tasavvurlar, ilmiy tushunchalar, tamoillar, qonuniyatlar shakllantiriladi; asosiy ilmiy ma'lumotlar va bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi; geografik ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish ta'min-lanadi va takomillashtiriladi; umumiy ko'nikmalarni shakllantirish davom ettiriladi (javoblarni rejalashtirish, darslik bilan ishlash, qo'shimcha ada-biyotlar bilan ishlash va h.k.); dunyoqarash, g'oyaviy-siyosiy, ahloqiy va kasbga yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish; mexnat va estetik tarbiya berish; o'quvchilarni tafakkurini, qiziquvchanligini rivojlanitirish.

Geografiya darslari aniq tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Bu esa o'quvchilarni vatanparvarlik, aqliy, g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga imkon beradi. Geografiya darslari olamning yaxlitligi g'oya-sini shaklantirishga, geografik voqea va hodisalar hamda xo'jalik faoliyati orasidagi sabab va oqibatlarni ochishga yo'naltiradi. Darsning tarbiyaviy vazifalariga Vatanimizni mustaqillik davrida rivojlanishini o'rganish, mustaqil mamlakatimizning

erishgan yutuqlarini bo’rttirib ko’rsatish, fan, madaniyat va sport soxasidagi yutuqlarimiz ruxida tarbiyalash katta samara beradi.

Darsning aniq vazifalari undan oldinga va keyingi darslarni maqsad-lari bilan bog’langan bo’lmog’i lozim. Darsni maqsadi va vazifalariga misollar keltiramiz. “O’rta Osiyoning relefi va foydali qazilmalari” mav-zusida quyidagi vazifalarni ko’rish mumkin: yirik relef shakllarini joylashish xususiyatlari va sabablarini ochib berish; yirik relef shakllari haqida bilimlarni kengaytirish; cho’l relef shakllarini hosil bo’lishida shamolni o’rni va ahamiyatini ochib berish; relefni hosil bo’lishida va rivojlanishida ichki va tashqi kuchlarni o’zaro ta’siri g’oyasini yanada rivojlantirish; O’rta Osiyo foydali qazilma konlarini joylashishini o’rganish va ularni hosil bo’lishini yer po’sti tuzilishi bilan bog’liqligini ochib berish; karta asosida relefga tavsif berish ko’nikmalarini shaklantirishni davom ettirish (Dushina, 1985)

Darsning mazmuni ilmiy bo’lmog’i zarur. Amaliy geografiya darslarida bilim, malaka, tarbiyaviy g’oyalar va ular bilan bog’liq bo’lgan tushun-chalar ochib beriladi. Ammo darsning asosiy maqsadi dasturda ko’rsa-tilgan nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalarni shakllantirishdir. Geografik ilmiy bilimlar asosiy va ikkinchi darajali qismlarga bo’linadi. Asosiy bilim va ko’nikmalarga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradigan, amaliy faoliyat va hayot bilan bog’liq bo’lgan ko’nikma va malakalar kiradi. Asosiy bilimlarga dalillar, umumiy tushunchalar va tasavvurlar, o’zaro aloqa va qonuniyatlar haqidagi bilimlar dunyoqarash g’oyalari, faoliyat turlari haqidagi bilimlar kiradi. Mazkur bilimlar har bir geografiya predmeti bo’yicha asosiy yakuniy bilimlar bo’lib hisoblanadi.

Asosiy bilimlarni chuqurroq va to’laroq o’zlashtirish uchun geografiya ta’limida ikkinchi darajali bilimlar ham ishlatiladi. Ular asosan tasavvurlarni shakllantirish, tushunchalarni belgilanishini aniqlashtirishda ko’proq foydalaniladi. Ikkinchi darajali bilimlar ham ishlatiladi. Ular asosan tasavvurlarni shakllantirish, tushunchalarni aniqlashtirishda ko’p-roq foydalaniladi. Ikkinchi darajadi bilimlarga tabiiy geografiyada tadqiqot materiallarini o’rganish ya’ni yer po’stini, okeanni, atmosferani o’rganish usullari haqidagi ma’lumotlar, materiklarni o’rganish va ulardagi aho-lining xo’jalik faoliyati haqida bilimlar, ular dasturda albbata o’zlashti-rilishi zarur bo’lgan bilimlar qatoriga kiritilgan.

Yuqoridagi bilimlardan tashqari dastur va darsliklarda uchramaydigan qo'shimcha bilimlar ham ishlatiladi. Masalan, davlatlar bayrog'i, gerbi (tamg'asi), aholini turmush sharoiti, odatlari haqidagi bilimlar o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladi, qo'shimcha material darsda qo'shimcha vaqt bo'lganida foydalaniladi.

Geografik bilimlarni hayot bilan bog'lash. Amaliy geografiya darslariga qo'yiladimgan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. Geografiya predmetlarida beriladigan bilimlarning deyarli barchasi xayot bilan bog'langan. Atrof muhitni muhofaza qilish, siyosiy, iqtisodiy soha bo'yicha davlat qarorlari geografik bilimlarni hayotga bog'lash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Masalan, atmosfera mavzusida atmosfera xavosini muxofaza qilish va qo'riqlash bo'yicha davlat qarorlariga suyanmoq lozim. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganishda mamlakatimiz prezidenti asarlari, davlat qarorlariga asoslanmoq zarur. Mazkur material-lardan dars jarayonida foydalanish uchun mavzu mazmuniga mos bo'lgan ma'lumotlarni topmoq lozim. Shundagina o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni hayot bilan bog'lay oladi.

Darsni kasbga yo'naltirilganligi. Geografik bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida o'quvchilar juda ko'p kasblar bilan tanishadi. Masalan, "Boshlang'ich tabiiy geografiya" kursida "plan va karta" mavzusi o'tilganida geodezist va topograflar kasbi haqida, litosferani o'rganishda geologlar kasbi haqida, gidrosferani o'rganishda gidrolog kasbi, iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodchi va Amaliy geografiya darslarida muhandis boshqa kasblar haqida bilimlar va ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari har bir materikni tekirilish tarixini o'rganganda sayyohlar va olimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi. Olimlar kasbi haqidagi ma'lumotlar turli xil qonun va qonuniyatlarni ochgan olimlarini hayoti va faoliyatini o'rganishda berib boriladi.

Dars tuzilishini aniqlash ham asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. Dars tuzilishini aniqlashga quyidagilar kiradi: a) darsni turini tanlash. O'quv materialini mazmuniga ko'ra ma'lum bir dars turi tanlanadi. Quyi sinflarda ko'proq aralash dars turiga e'tibor beriladi, ya'ni o'tgan darsni takrorlash, yangi darsni o'qitish, o'rganilgan darsni mus-tahkamlash va uyga vazifa berish; darsning alohida qismlarini asoslash va ular orasidagi bog'liqliklarni bo'rttirib ko'rsatish; Masalan "Masshtab" mavzusini o'rganganda uni quyidagi qismlarga bo'lish mumkin: masshtab xaqidagi umumiy tushuncha, sonli masshtab; chiziqli

masshtab; so’zli masshtab; masshtab bilan ishlash. Darsning tuzilishi uning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlari bilan xamda ulardan oldingi va keyingi darslar bilan bog’liqligi bilan aniqlanadi.

O’qitish metodlarini tanlash. O’qitish metodlarini tanlash darsning tuzilishi bilan bevosita bog’langan. Har bir dars tuzilmasi uchun alohida metod tanlanadi. O’qitish metodlari deganda o’qituvchi va o’quvchilarni ta’lim maqsadlarga erishishdagi birgalikdagi va xamkorlikdagi faoliyatidir. Darsning mazmuniga ko’ra tanlangan o’qitish metodlariga qo’yiladigan asosiy talablaridan biri dars jadvalida o’quvchilarni bilish faoliyatini ta’minlashi lozim. Tanlangan o’qitish metodi sinfdagi barcha o’quvchilarni bilish faoliyatini jadallashtirishi, geografik bilim va ko’nikmalarni olishga qiziquvchanlikni kuchaytirishi lozim. Bunda shuni esdan chiqarmaslik lozimki o’quvchilarni faol bilish faoliyati geografik bilim manbalaridan foydalanish ko’nikmalari shakllantirilgandagina ta’minlanadi. Masalan, kartalar, darslik, chizmalar va h.k.

Geografiya darslarida predmetlararo aloqalarni aniqlash. Amaliy geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy fanlar tizimiga kirganligi munosabati bilan qator predmetlar bilan chambarchas bog’langan. Amaliy geografiya predmetining noyob va o’ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy vazifasi atrof muxit to’g’risida, xo’jalik va ijtimoiy soha bo’yicha turli xil bilimlarni umumlashtirishiga imkon beradi. Amaliy geografiya darslarida tarix, biologiya, ximiya, fizika, matematika fanlari bilan aloqalarni aniqlash va asoslab berish o’quvchilarni bilish faoliyatini jadallashtiradi.

Geografiya darslarida o’lkashunoslik tamoillariga amal qilish. Amaliy geografiya fani tabiat va jamiyat xaqidagi bilimlarni bergani uchun unda o’lkashunoslik tamoillaridan foydalanishni katta imkoniyatlari mavjud. Geografiya predmetlaridagi deyarli barcha mavzularni o’lkashunoslik tamoillaridan foydalanib o’rganish mumkin. Relef mavzusini hududdagi relef shakllari orqali tushuntirish mumkin, gidrosfera mavzusini atrofdagi suv ob’ektlari misolida, qishloq xo’jaligi yoki sanoatni o’z yashayotgan joyi misolida o’tish mumkin. Mazkur tamoilni qo’llash geografik bilimlarni oson va tez o’zlashtirilishiga hamda o’quvchilarni o’z vataniga va yashab turgan joyiga mexr muxabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Iqtisodiy ta’lim tamoilini hisobga olish. Geografiya ayniqsa iqtisodiy geografiya darslarida o’quvchilarga iqtisodiy ta’lim va tarbiya

berish katta axamiyatga ega. Har bir xo'jalik tarmog'ini o'rganishda ularni iqtisodiy samarasi haqida bilimlar beriladi, shu bilan birga xom ashyo va tabiiy resurslardan tejab tergab foydalanish, o'z mulkiga va davlat mulkiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyasini yuqori darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Amaliy geografiya darslarida ekologik tarbiya berish. Amaliy geografiya fani atrof muxit va xo'jalik xaqida bilim beradigan yagona fan bo'lganligi sababli unda o'quvchilarga ekologik tarbiya berish katta imkoniyatlariga ega. Tabiiy va iqtisodiy geografiya predmetlarini o'rganishda har bir mavzu bo'yicha ekologik bilim ta'lim va tarbiya berish mumkin. Ayniqsa O'rta Osiyodagi regional ekologik muammolarni yoritib berish yoki ulardan misollar keltirish katta axamiyatga ega.

5.2. Amaliy geografiya darslarining tuzilishi

Geografiya darslarini tuzilishi didaktika va geografiya o'qitish metodikasida umum qabul qilingan qoidalarga asoslangan. Mazkur qoidalarga binoan geografiya darslari quyidagi qismlardan iborat: bilimini tekshirish (uyga berilgan vazifalarni tekshirish va baxolash); yangi mavzuni o'tish; yangi mavzuni mustahkamlash; uyga vazifa berish.

Tashkiliy qism. Mazkur qismda yoki bosqichda o'quvchilar bilan salomlashiladi, yo'qlama qilinadi, tozalik tekshiriladi, o'quvchilarni kitob, daftar, atlaslari borligi tekshiriladi. So'ngra o'quvchilarni darsga tayyorlay-di. Bunda o'tgan mavzu va yangi mavzuni ilmiy va amaliy ahamiyati haqida o'quvchilarga ma'lumotlar beriladi va ularni darsga tayyorlaydi.

O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash. Amaliy geografiya darslarining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur qism yangi darsni o'tish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Darsda asosiy materialni o'zlashtirish darajasi tekshiriladi. Olingan bilimlarni o'xshash va yangi o'quv sharoitida qo'llash tekshiriladi. Bunday bilimlarga dunyoqarash g'oyalari, nazariy bilimlar (umumiy tushunchalar, tamoillar, aloqalar, qonuniyatlar), dalillar va o'quv ishlari usullari kiradi. Bilimlarni tekshirishning mazmuni mazkur bo'limni yoki kursni o'qitishni yakuniy natijalariga mos kelishi lozim. Ular dasturlarda berilgan bo'ladi. O'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini tekshirish uchun turli xil usullar

qo’llaniladi. O’quvchilarni bilim va malakalarini ma’lum bir mavzu bo’yicha tekshirish uchun o’qituvchi svollarni yoki tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab qo’ymog’i lozim.

Yangi mavzuni o’rganish. Deyarli barcha darslarda yangi mavzuni o’tish qismi albatta bo’ladi. Yangi mavzuni o’tishda yangi bilimlar, ko’nikma va malakalar shakllantiriladi. Darsga ajratilgan vaqtning katta qism yangi mavzuni o’rganishga sarflanadi. Yangi mavzuni mazmuni va xajmi o’quv dasturlarida berilgan bo’ladi, darsliklarda esa ular aniqlashtiriladi. Dastur o’qituvchi uchun asosiy vosita bo’lib hisoblanadi. Yangi darsning mazmuni o’qituvchi tomonidan tanlab olinadi. Bunda mavzu bo’lim yoki butun kursni o’quv maqsadlaridan kelib chiqdi. O’qituvchi uchun dasturda yangi materialni o’tish uchun asosiy va qo’shimcha materiallar tizimi beriladi. Qo’shimcha materiallarga turli xil daliliy ma’lumotlar kiradi. Ular mavzuni asosiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Yangi mavzuni o’rganish natijasida o’quvchilarni bilimi kengayadi va chuqurlashadi, o’rganilayotgan voqea va hoisalarni moxiyati ochib beriladi. Geografik bilimlar va ko’nikmalarni amaliy tomonlari ko’rsatiladi. Yangi mavzuni o’rganish ilgari olingan bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Demak, xar bir mavzuni o’rganayotganda predmetlararo va ichki predmetlararo aloqalar ochib beriladi.

Olingan bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash geografiya darslarini asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. O’quvchilar bilimini mustahkamlash ikki usulda olib boriladi: bosqichli, yakuniy.

Amaliy geografiya darslarida ko’proq bosqichma - bosqich bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash keng tarqalgan. Bunda o’rganiladigan yangi mavzu bir necha mantiqiy qismlarga bo’linali. Har bir qismni o’tib bo’lingandan so’ng olingan bilimlar mustahkamlanadi.

Olingan bilimlarni bir necha usullar yordamida mustahkamlash mumkin: test topshiriqlari; amaliy ishlar; mustaqil ishlar va h.k

O’quvchilar bilim va ko’nikmalarini bosqichma-bosqich mustahkam-lash bilan birga yakuniy mustahkamlash xam mumkmn. Bunda o’quv-chilarga tarqama material berish, yoki bo’lmasa 3-4 ta o’quvchidan og’zaki so’rash orqali xam bilimlarni yakuniy mustahkamlash mumkin. Shundan so’ng o’quvchilar bilimlariga qo’yilgan baholar e’lon qilinadi, ularning kamchiliklar to’g’rilaniladi va dars yakundanadi.

Uyga vazifa berish. Darsning yakunida uyga vazifa beriladi. Uyga vazifa mavzusi sinf taxtasiga yozib qo'yiladi. Shundan so'ng uni bajarish bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarga ko'rsatmalar beradi.

Uyga vazifa ko'p hollarda darsning oxirida beriladi. Bunda o'quvchilar uy vazifasini maqsadi va mohiyatini tushunib yetishmaydi. Ko'p xollarda o'qituvchi ham uy vazifasini berib ham, tushuntirib xam ulgurmaydi. Shuning uchun uyga vazifa darsning boshida, yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng berilsa uni qanday bajarishni o'quvchilarga to'laroq tushuntirib berish mumkin.

Uyga berilgan vazifani tushuntirganda uni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmoq zarurdir. Matn bo'yicha beriladigan vazifalarni kartalar, jadvallar va chizmalar bo'yicha beriladigan topshiriqlarni alohida tushuntirish lozim.

5.3. Amaliy geografiya darslarini rejalashtirish

Amaliy geografiya darslarini rejalashtirish geografiya ta'limidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Geografiya darslarini rejalashtirish ikki qismdan iborat: mavzuli va dars rejasi, darsning samaradorligi uni qanday rejalashtirilganligi bog'liq. Mavzuli va dars rejalari qanday mukammal tuzilgan bo'lsa o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashi shuncha tez va oson bo'ladi.

Mavzuli rejalashtirish. Mavzuli rejalashtirishda ma'lum bir geografiya predmeti bo'limlari bo'yicha o'quv yili bo'yiga berilgan soatlar hajmi doirasida taqsimlab chiqiladi. Bunda o'qituvchini bilimlar tizimini shakl-lantirish, mavzular va darslar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash, tushunchalarni shakllantirish yo'llarini aniqlash va ularni shakllantirishni asosiy bosqichlarni, tayanch bilim va tushunchalarni ajratishni, amaliy ishlar tizimini aniqlashni rejalashtirish ko'zda tutiladi. Mavzuli rejalash-tirish quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: a) ma'lum bir kurs bo'yicha o'quv jarayonlarnini to'la ko'rishga imkon beradi; b) ma'lum bir kurs bo'yicha dars turlarini aniqlashga; v) o'qituvchi va o'quvchilarni ham-korlikda faoliyatini metodlari va usullarini birgalikda qo'llashga. Odatda mavzuli rejalar soatlar hajmini o'zgarmagan taqdirda ayrim o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritilgan holda 3-4 yil davomida foydalanishga mo'jal-langan bo'ladi.

Hozirgi davrda georafiya dasturlarning va predmetlarining asosiy xususiyati ulardagi bilimlarni murakkablashib borishidir. Shu munosabat bilan har bir Amaliy geografiya darsi ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirishini shakllan-

tirishda alahida bosqich bo'lmog'i lozim. Shuning uchun umuta'lim maktablaridagi har bir sinf predmeti bo'yicha, bo'limlar va mavzular bo'yicha rejasi ma'lum bir – biri bilan bog'langan tizim deb qaralmohi lozim. Mazkur tizimning barcha qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan.

Darslar tizimida turli xil darslar turlari ko'zda tutilmog'i lozim. Ular turli xil didaktik maqsadlarga ega bo'lishi mumkin. Ayrim darslarda faqat yangi material o'rganilishi mumkin, ayrimlarida darsni hamma qismlari bo'lishi mumkin ya'ni tashkilliy qism, bilimlarni tekshirish yangi mavzuni o'rganish, olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Mavzuli rejalatirishda quyidagi ma'lumotlar aks etish lozim: dars mavzusi; dars turi; ta'limiy maqsadi; tarbiyaviy maqsadi; qo'llaniladigan o'qitish metodi; darsning tuzulishi; dars jihozi; tayanch tushunchalar; predmetlararo aloqalar; ichki predmetlararo aloqalar. (5-jadval).

5-jadval

Mazkur ma'lumotlar jadval shaklida quyidagicha ifodalanishi lozim (Dushina, 1985)

Dars mav-zusi	Dars turi	Ta'lim iy maq-sadlari	Tarbiy a viy maqsa d-lari	O'quv mate-riali maz-muni	Dar s-nin g tuzi - lishi	Dars - ning jixoz i	Tayan ch tushu n-chalar	Pred metl ar aro aloqa lar	Ichki pred-met larar o aloqa -lar

Mazkur mavzuni rejalashtirishni asos sifatiida qabul qilish mumkin. Aniq o'quv sharoitida geografiya o'qituvchisi unga o'zining o'zgarti-rishlarini va qo'shimchalarini kiritish mumkin.

Dars rejasi. Dars rejasi har bir ajratilgan soat doirasidagi mavzuga tuziladi. Dars rejasi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi. Darsning mavzusi: darsning maqsadi; darsning jihozi; darsda qo'llaniladigan o'qitish metodi; dars mavzusining qisqacha tavsifi; dars mavzusida uchraydigan geografik nomlar tizimi; dars mavzusida uchraydigan olimlar; dars mavzusida uchraydigan atamalar; darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriq-lartizimi; uyga vazifa berish.

5.4. O’qituvchini darsga tayyorgarligi

O’qituvchi har bir darsga chuqur va to’la tayyorlanmog’i lozim. O’qituvchini darsga tayyorgarligi quyidagi qismlardan iborat: darsni maqsad va vazifalarini aniqlash; darsning mazmunini aniqlash; o’qitishni metodlarni aniqlash; o’qitish vositalarini tanlash; darsni tarkibiy tuzilishini aniqlash. Darsni maqsadi bu mazkur dars davomida o’quvchilar o’qituvchi raxbarligida o’quv tarbiya va rivojlantirish bo’yicha erishadigan oldindan rejalashtirilgan yakuniy natijadir. Darsning maqsadi mazkur mavzu bo’yicha dasturdagi va darslikdagi materiallar mazmunini ishlab chiqish asosida aniqlanadi. Darsning maqsadini aniqlash uni mazmunini ishlab chiqishga, o’qitish materialini tanlashga va darsni borishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Maqsad aniqlangandan so’ng ushbu maqsadga erishish uchun darsning tuzilishi ishlab chiqiladi. Darsning maqsadini aniqlash quyidagi talablarga javob berishi mumkin:

- darsning maqsadi juda qisqa shaklda ifodalangan bo’lmog’i lozim;

- darsning maqsadida o’quvchilar qanday bilimlarni egallashlari, qanday ko’nikmalar shakllantirilishi ifodalangan bo’lmog’i lozim;

-darsda qanday bilim va ko’nikmalarni shakllantirilishi yoki ularni chuqurlashtirish ko’rsatilishi lozim.

Darsning mazmunini aniqlash. Darsni mazmunini quyidagi bilim manbalar asosida aniqlash mumkin:

-darslik asosida. Darslikda har bir mavzu uchun alohida matn ajratilgan bo’ladi. Matn, rasmlar, chizmalar va jadvallar bilan jihozlangan bo’ladi. Matnni oldida o’tgan darsga doir yoki matnni mazmunini tushu-nishni yengillashtiradigan savollar beriladi. Matnni oxirida esa olingan bilimlarni va ko’nikmalarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar tizimi beriladi;

- mazkur kurs uchun nashr qilingan metodik qo’llanmalarda xar bir mavzu yoki bo’limni o’qitish metodikasi bo’yicha tavsiyalar berilgan. Demak, darslik bilan birga metodik qo’llanma ham dars mazmunini ishlab chiqishda asosiy manba bo’lishi mumkin;

- qo’shimcha adabiyotlar dars mavzusi mazmunini ishlab chiqishda muxim manba bo’lib hisoblanadi. Masalan, O’zbekiston iqtisodiy rayon-larini o’rganayotganda har bir viloyat bo’yicha chiqarilgan kitob va risolalardan foydalanish mumkin. Materiklar va okeanlar kursini o’rga-nayotganda har bir materik yoki okean tabiiy sharoitiga bag’ishlangan kitoblardan foydalanish mumkin;

- kundalik matbuot. Radio va tilevideniya ma’lumotlaridan ham dars mazmunini ishlab chiqishda foydalanish mumkin;

- dars yanada qiziqarliroq o'tishini ta'minlash uchun sayyoxlar va olimlarning esdaliklari, turli xil xalqlarning urf-odatlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanish ham katta natija beradi.

Dastlab darsni ta'limiy va g'oyaviy mazmuni ishlab chiqiladi. Dars nixoyatda murakkablashib, materiallar ko'payib ketmasligi uchun o'quv mavzusi mazmuni ishlab chiqilayotganda asosiy, ikkinchi darajali va qo'shimcha materiallar ajratiladi. Ikkinchi darajali va qo'shimcha materiallar darsni asosiy mazmunini oydinlashtirish va chuqurlashtirish maqsadida ishlatiladi. Ayrim xollarda darsda ko'zlangan materiallarni o'rganib bo'lmaydi, bunday xollarda qolgan material uyga vazifa sifatida beriladi va uni o'quvchilar mustaqil o'rganishadi.

Dars mazmuni ishlab chiqilagandan so'ng o'qituvchi uni bayon qilish rejasini ishlab chiqadi.

O'qitish metodini tanlash. O'qitish metodlarini tanlash darsni maqsadi va o'quv materiallari mazmuniga bog'liq.

O'qitish metodini tanlash o'rganiladigan mavzuni mazkur kursda tutgan o'rniga bog'liq. Ma'lum bir kursni o'rgangan sari o'quvchilarni bilimlari ortib boradi, shundan so'ng reproduktiv usulni qo'llash mumkin. Bundan tashqari ijodiy usullarni ham qo'llash mumkin. Masalan, O'zbekiston tabiiy geografiyasini ikkinchi regional qismini o'quvchilar kartalar yordamida mustaqil o'rganishlari mumkin. Xuddi shunday ishlarni o'quvchilar jaxonnning iqtisoditsy va ijtimoiy geografiyasini alohida davlatga bag'ishlangan qismini o'rganishda ham amalga oshirishlari mumkin. O'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarni yoshlari ham hisobga olinmog'i lozim. Quyi sinf o'quvchilari uzoq vaqt diqqat bilan eshita olishmaydi, tez toliqishadi va zerikishadi. Shuning uchun quyi sinflarda o'qituvchi o'qitish metodlarini tez-tez o'zgartirib turishi zarur. Bunda o'yinlardan foydalanish katta samara beradi, chunki bunday sharoitda o'quvchilar toliqmaydi va kerakli bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtiradilar.

Dars uchun o'quv vositalarini tanlash ham muhim ishlardan hisoblanadi. O'quv vositalarini tanlash o'qituvchi uchun uncha murakkab bo'lmagan ish hisoblanadi, chunki dasturda har bir mavzu bo'yicha zarur bo'lgan o'quv vositalarining turlari berilgan bo'ladi. O'qituvchini vazifasi ulardan darsning qaysi qismida va qanday foydalanishni aniqlash hisoblanadi. O'quv vositalari bo'yicha savollar va topshiriqlar ishlab chiqiladi. Bu esa o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini egallashlarini osonlashtiradi. O'quv vositalarini tanlaganda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'quv vositalari darsni mazmuniga mos bo'lishi lozim;

- o’quv vositalari tanlangan o’quv metodi mazmunini to’ldirishi zarur;

- o’quv vositalari o’quvchilarni yoshiga va qobiliyatlariga mos tushishi lozim;

- o’quv vositlari amaliy va mustaqil ishlarni olib borish uchun imkon yaratishi lozim;

-o’quv vositalari o’quvchilarni bilim va ko’nikmalarini egallashlarini osonlashtirishi lozim.

VI-BOB. AMALIY GEOGRAFIYA DARSI TURLARI

Amaliy geografiya darslari ta’limni tashkil qilishning eng asosiy turlardan hisoblanadi. Geografiya darslari didaktik maqsadlarga ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi: kirish darsi; yangi mavzuni o’rganish darsi; aralash dars; ma’ruza darsi; takrarlash darsi.

6.1. Kirish darsi.

Kirish darsi umumta’lim maktablarida geografiya predmetlarini va yirik mavzularni o’rganishda yo’llanma vazifasini o’taydi.

Kirish darsining asosiy maqsadi ma’lum bir kurs va mavzu bo’yicha bilim va ko’nikmalar berishdir. Kirish darsi quyidagi qismlardan iborat: o’quv yilini boshida o’tkaziladigan kirish darslari; yirik mavzularni o’rga-nishdan olidin tashkil qilinadigan kirish darslari; chorak boshlanishida o’tkaziladigan kirish darslari.

O’quv yilining boshida birinchi darsda o’qituvchi quyidagi ishlarni bajaradi:

- darslik va uning mualliflari bilan tanishtirish;
- darslikni tuzilishi bilan tanishtirish (qismlar, boblar, ilovalar, rasmlar, jadvallar);
- darslikdan foydalanish tartibi bilan tanishtirish. Toza tutish yirtmaslik, chizmaslik, yozmaslik va h.k.

Yirik bo’limlarni o’rganishda ham kirish darslaridan foydalanish mumkin. “Boshlang’ich tabiiy geografiya” kursida Yer qobiqlari bo’limini o’rganishdan oldin kirish darsi o’tkazish mumkin. Unda quyidagii xolatlarga e’tibor bermoq lozim:

- geografik qobiqni qatlamsimon bo’lib tuzilganligi, ya’ni litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalardan iborat ekanligi;
- har bir qobiq alohida moddalardan tuzilganligi, ya’ni litosfera qattiq moddalardan, gidrosfera suyuq modalardan (suv), atmosfera gazsimon moddalardan, biosfera esa tirik moddalardan iborat ekanligi xaqida bilimlar shakllantiriladi. Shundan so’ng o’quvchilar ongida Yer qobiqlari haqida tushunchalar shakllanadi va umumiy tasavvurlar xosil bo’ladi.

Iqtisodiy geografiya darslarida xam xuddi shunday kirish darslarini tashkil qilish mumkin. Masalan, “Jaxon iqtisodiy va ijtimoiy georafiyasi” kursida jaxon xo’jaligini o’tishdan oldin kirish darsi o’tkazish mumkin: unda quyidagi holatlarga o’quvchilar diqqati qaratiladi:

- jahon xo’jaligi haqida tushuncha beriladi;
- jahon xo’jaligining tarkibiy qismlari chizib ko’rsatiladi (2-rasm);



2-rasm. Jaxon xo'jaligi tarkibiy qismlari.

- shundan so'ng sonoat, qishloq xo'jaligi, transport va xalqaro iqtisodiy aloqalarni tuzilishi alohida tushuntriladi. Masalan, transport tarmog'i quyidagi qismlarga bo'linadi: quruqlik, suv, havo, quvur, elektron.

Amaliy geografiya darslarida xam xuddi shunday kirish darslarini tashkil qilish mumkin. Masalan, unda quyidagi holatlarga o'quvchilar diqqati qaratiladi: Amaliy geografiyaning asosiy vazifalari, landshaftlarni baholash hamda bashoratlashni amalga oshirishga, rayon planirovkasi va shaharsozlik haqida umumiy tushunchalar beriladi, tabiiy resurslarga iqtisodiy baho berish, geografik ekspertiza, rayonlashtirish va iqtisodiy geografik bashoratlar ko`rib chiqiladi.

Bundan tashqri kirish darslarida quyidagi maqsadlar ham amalga oshiriladi; bo'lajak o'quv ishlari uchun o'quvchilar pisixalogik jixatdan tayyorlanadi; o'quvchilarga geografiya fani va geografik bilimlariga nisbatan qiziqish uyg'otiladi.

Kirish darsida bitta mavzu o'rganilganligi uchun unda darsni barcha elementlari mavjud emas. Unda tashkiliy qism, yangi bilimlarni o'rganish, ayrim xollarda vaqt yetarli bo'lsa bilimlarni mustahkamlash va uyga vazifa berish amalga oshiriladi. Ko'p hollarda kirish darsida asosan yangi material o'tiladi, uyga vazifa berilmasligi ham mumkin.

6.2. Aralash dars

Aralash darslarda bir necha didaktik maqsadlar amalga oshiriladi va ularda o'quv jarayonini barcha qismlari mavjud: yangi bilimlarni o'zlashtirish; olingan bilimlarni tahlil qilish va fikrlash; olingan bilimlarni mustahkamlash; olingan bilimlarni esda saqlab qolish; o'zlashtrilgan bilimlarni qo'llash.

Mazkur darslarda quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi: yangi mav-zuni o'rganish; geografik ko'nikmalarni shakillantirish; olingan bilim va ko'nikmalarni tekshirish.

Aralash dars quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: tashkiliy qism. Ushbu qismda yo'qlama qilinadi, o'quvchilarni darsga tayyorgarligi ya'ni o'quv qurollari bor yo'qligi aniqlanadi; uyga berilgan vazifa tekshiriladi; yangi darsni maqsad va vazifalari tushuntiriladi, oldingi dars bilan yangi mavzu o'rtasida bog'liqlik aniqlanadi va tushuntiriladi; yangi mavzu o'rganiladi va umumlashtiriladi; olingan bilimlar mustahkamlanadi va darsda o'quvchilar faoliyati tekshiriladi; uyga vazifa beriladi va uni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. (I.V. Dushina, 1985).

Aralash darsning har bir tarkibiy qismidagi maqsadlarini amalga oshirish uchun alohida o'ziga xos metodlar tanlanadi, o'qituvchi va o'quv-chilar birgalikda faoliyatini shakillari ishlab chiqiladi. Ammo shuni ham aytish mumkinki aralash darsni muntazam ravishda bir xil qolipda o'tishi o'quvchilarni darsga qiziquvchanligini va diqqatini pasaytirib yuboradi hamda ularni zeriktirib qo'yadi. Shuning uchun aralash darsni tarkibini, metodlari va faoliyat shakillarini tez-tez almashtirib turish lozim bo'ladi.

Aralash dars quyidagi hollarda o'tkaziladi: yirik, ko'p soatlarga mo'ljallangan mavzularni o'rganishda; o'tkaziladigan mavzu oldin o'tilgan dars mazmuni bilan bog'langan bo'lsa.

Agar aralash dars mavzusi oldingi o'tilgan dars bilan bog'langan bo'lsa, darsni o'quvchilar o'tgan darsdla o'zlashtirilgan bilimlarni tekshi-rish va baxolashdan boshlanadi. Bunday hollarda uyga vazifa yangi mav-zuni o'tishdan oldin yoki o'zlashttirilgan bilimlarni mustahkamlashdan oldin beriladi. Uyga vazifa berilganda uni bajarish bo'yicha metodik ko'r-satmalar aniq va tushunarli bo'lishi lozim.

Aralash darsda berilgan materialni mustahkamlashda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan eng muhim bilim va ko'nikmalar ajratilmog'i lozim.

Xozirgi paytda Amaliy geografiya ta'limi mazmunida nazariy bilimlar miqyosini ortib borishini hisobga olib bilimlarni mustahkamlashni yangi mavzuni tushuntirayotganda amalga oshirish mumkin. masalan, tog' jinslarini tushuntirishda magmatik, cho'kindi va metmorfik tog' jinslarini xosil bo'lishi va tarqalishini tushuntirish davomida mazkur bilim va ko'nikmalarni birdaniga mustahkamlab va umumlashtirib ketish mumkin.

Bunda o’quv materiali ma’lum bir mantiqiy qismlarga bo’linadi va har bir mantiqiy qism bo’yicha bilim, ko’nikmalar mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Masalan, magmatik tog’ jinslarini tushuntirgandan so’ng olingan bilimlarni birdaniga mustahkamlab ketish mumkin. Bunda magmatik tog’ jinslarini xosil bo’lishi, turlari (intruziv, effuziv) va ularni xosaalariga urg’u beriladi.

Demak, aralash darsni tarkibiy qismlari qotib qolgan narsa emas, uni doimo o’zgartirib turish lozim bo’ladi. Ba’zi xollarda avval yangi mavzuni o’tib, so’ngra uyga berilgan vazifani tekshirish mumkin, ayrim hollarda darsni uyga vazifa berish bilan ham boshlash mumkin.

6.3. Yangi mavzuni o’rganish darsi

Mazkur dars turi to’la yangi mavzuni o’tishga bag’ishlanadi. Shuning uchun unda uyga berilgan vazifani tekshirish va baholash qismi bo’lmaydi. Mazkur dars quyidagi hollarda qo’llaniladi:

- darsni xajmi katta bo’lgan taqdirda;
- dars murakkab bo’lgan taqdirda.

Mazkur darsda bilimlar chuqur va har tomonlama ochib beriladi. Mazkur darslar uchun mavzuni o’qituvchi oldindan tanlab oladi va unga tegishli o’quv vositalarini tayyorlaydi.

Ushbu darslarda asosiy o’qitish metodi bo’lib tushuntirish hisoblanadi. Bunda o’qituvchi sinf taxtasidan, kartalardan, chizmalardan, rasm va jadvallardan hamda qo’shimcha adabiyotlardan foydalanishi lozim.

O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o’quvchilarga qator topshiriqlar berish mumkin. Bunda ular olgan bilimlarni amalda qo’llashadi, yoki bo’lmasa bir necha vazifalarni bajarishni topshiriq sifatida berish mumkin. Bu esa yangi materiallarni o’zlashtirishni osonlashtiradi. Masalan, dunyo siyosty kartasini o’rganayotganda tarixiy va siyosiy kartadan foydalanib qo’yidagi vazifalarni o’quvchilarga topshirish mumkin:

-XX asrning boshigicha dunyoda qanday yirik davlatlar bor edi;

-XX asrning boshlarida Afrikada qanday mustaqil davlatlar mavjud edi;

-birinchi jahon urushidan so’ng jahon siyosiy kartasidan qanday davlatlar davlat sifatida yo’q bo’ldi;

-ikkinchi jahon urushidan so’ng qanday mustaqil davlatlar vujudga keldi;

-XX asrning oxirida qaysi davlatlar parchalanib ketdi va qanday yangi davlatlar paydo bo'ldi va x.k.

Yangi mavzuni o'rganish darsi qo'yidagi tarkibiy qismlardan iborat: darsni maqsadini aniqlash; yangi mavzuni tushuntirish davomida o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil qilishi lozim; mavzuni alohida mantiqiy qismlari bo'yicha umulashtirish va mustahkamlash; o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash bo'yicha o'quvchilarga topshiriqlar berish; uyga vazifa berish.

6.4.Geografik ko'nikmalarni shakllantirish darsi

Mazkur darsning asosiy vazifasi geografiya predmetlari uchun xos bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Mazkur ko'nikmalar nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga va amalda qo'llashga imkon beradi. Ko'p xollarda mazkur darslarni bilimlarni mustahkamlash va geog-rafik ko'nikmalarni shallantirish darsi ham deb ataladi. O'qitishni sifatini oshirishdagi vazifalarni kuyilishi va yechilishi munosabati bilan hamda o'quvchilarni amaliy faoliyatga bo'lgan e'tiborni ortishi bilan mazkur dars-lar turini ahamiti yanada ortadi. Bunday darslarda o'quvchilar faoliyatini asosiy shakli bo'lib amaliy ishlarni bajarish hisoblanadi. Mazkur amaliy ishlarni bajarish davomida o'quvchilarda geografik ko'nikmalar shaklla-nadi.

Ushbu darslarda o'quvchilarni nazariy va amaliy faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun geografik ko'nikmalarning katta qismi yangi bilimlarni olish jarayonida shakllatiriladi. Ayrim amaliy ishlar mazkur darslarda bajariladi, masalan, geografik koordinatalarni aniqlash, masshtab turlari bilan ishlash, Turon tekisligi bo'ylab o'tkazilgan tabiiy geografik kesmani tahlil qilish. Ayrim amaliy ishlarni yangi mavzuni o'rganib bo'lgandan keyin bajarish mumkin. Bunda olingan bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi. Masalan, o'quvchilarni iqtisodiy diagram-malar bilan ishlash ko'nikmalarini darsni mustahkamlash bosqichida olib borish mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni uyga vazifani tekshirish jarayoni-da xam o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar ma'lum bir qolip asosida ishlashadi. Ya'ni ma'lum bir qolip asosida daryoga, dengizga yoki ko'llar-ga ta'rif berish, ayrim davlatlarni iqtisodiy geografik ta'rifini tuzish va h.k.

Amaliy ishlar ikki turga bo'linadi: o'qitadigan (o'rgatadigan); yakuniy. O'rgatuvchi (mashq qildiradigan) amaliy ishlarning maqsadi o'quv-

chilarni ma’lum bir geografik topshiriqni bajarishga o’rgatishdir. Masalan, geografik kordinatalarni aniqlash, kartada masofani masshtab orqali aniqlash; daryo suv sarfini hisoblash; xududni tabiiy geografik tavsifini tuzish; demografik ko’rsatgichlarni hisoblash; iqtisodiy geografik tavsif-larni tuzish. Demak, o’rgantuvchi amaliy ishlarda turli ko’nikmalar shakllantiriladi, tegishli bilimlar mustahkamlanadi.

Qator o’rgatuvchi amaliy ishlardan so’ng yakuniy amaliy ish o’tka-ziladi. Uning maqsadi olingan bilim va shakllantirilgan ko’nikmalarni o’zlashtirish darajasini tekshirishdir. Masalan, Chirchiq Oxangaron o’lka-sini tabiiy geografik tavsifini tuzishi ko’nikmalari shakllantrilgandan so’ng O’zbekistonnni boshqa tabiiy geografik o’lkalarini o’qituvchilar amaliy mashg’ulot darslarida mustaqil o’rganishlari mumkin. Buning uchun o’qituvchi tabiiy geografik o’lkalarni o’rganish texnologiyasini modul tizimini ishlab chiqishi mumkin.

Xar bir tabiiy geografik rayon uchta quyidagi modullarga bo’linadi: tabiiy geografik rayonni geografik joylashishi va chegaralari; yer yuzasini tuzilishi, geoglogik sharoiti va foydali qazilmalari; ichki suvlari, tuprog’i o’simligi va hayvonot dunyosi. Mazkur modullar yanada mayda modul-larga bo’linadi. Masalan, ikkinchi modulni quyidagi modulchalarga bo’li-shimiz mumkin: rayonning relefi; rayonning geologik tuzilishi; rayonning foydali qazilmalari. O’quvchilar bilim va ko’nikmalarni yaxshi o’zlashti-rishlari uchun mazkur modullarni yanada maydaroq qismlarga bo’lish mumkin. Masalan, foydali qazilmalar modulini quyidagi qismlarga bo’lish mumkin: yoqilg’i energitika foydali qazilmalari; metalli foydali qazilmalar; nometall foydali qazilmalar.

Demak, yakuniy amaliy ishlar geografik voqea va xodisa xamda ob’ektlarni tavsifiga bag’ishlanar ekan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida barcha xalq xo’jaligi tarmoqlarini yoki ayrim davlatlarni modul texnologiyasidan foydalanib o’rganish mumkin (3-rasm).

Demak, yakuniy amaliy ishlar geografik voqea va xodisa xamda ob’ektlarni tavsifiga bag’ishlanar ekan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida hamma xalq xo’jaligi tarmoqlarini yoki ayrim davlatlarni modul texnologiyasidan foydalanib o’rganish mumkin. Masalan, jahon sanoatini o’rganishda uni quyidagi modullarga bo’lib o’rganish mumkin: metal-lurgiya sanoati; mashinasozlik; yengil sanoat; qurilish xom ashyosi sanoati; oziq-ovqat sanoati; va h.k. ular o’z navbatida yana maydaroq modullarga bo’linib ketishadi. Masalan, mashinasozlikni yana quyidagi

modulchalarga bo'lib yuborish mumkin: avtomobilsozlik; stanoksozlik; podshipnik ishlab chiqarish; teplovozsozlik; samalyotsozlik; ekskovatorsozlik; vagonsozlik; qishloq xo'jaligi mashinasozligi; kemasozlik; va h.k.

Geografik ko'nikma va malakalarni shakillantirish darsi quyidagi qismlarga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni qo'yish; o'quvchilarni o'quv vositalari bilan tanishtirish (darslik, karta, jadvallar, diagrammalar). Ular amaliy mashg'ulotlarni bajarishda zarur bo'ladi; o'quv ishlari usullarini o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish; amaliy ishlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berish; bajarilgan amaliy ishlar natijalarini rasmiylashtirish; qilingan ishlarni yakunlash; uyga vazifa berish va uni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

Amaliy ishlar bajarishni samaradorligi ishni aniq tashkil qilishga bog'liq: qiyoslash; solishtirish; oddiy hisob -kitoblarni bajarish; ma'lum reja yoki qolip asosida geografik voqea va hodisalarni tavsifini tuzish; bog'-liqliklarni aniqlash; karta bilan ishlash va h.k.

3-rasm



Geografik ko’nikma va malakalarni shakillantirish darsida faqat yakuniy amaliy ishlar bajariladi. Bunday darslar quyidagi tashkiliy qismlardan iborat: darsni maqsadini qo’yish; yangi bilimlarni tushuntirish jarayonida o’quvchilarni bilish faoliyatini tashkil qilish; darsni mantiqiy qismlari bo’yicha yakunlash va mustahkamlash; olingin bilim va ko’nik-malarni amalda qo’llash; uyga vazifa berish.

6.5. Takrorlash, umumlashtirish va bilimlarni tekshrish darslari

Takrorlash darsi. Amaliy geografiya darslarida keng tarqalmagan, juda kam hollardagina qo’laniladi. CHunki har bir geografiya darsida muntazam ravishda o’quvchilarni bilim va ko’nikmalari tekshirib boriladi.

Takrorlash darslari quyidagi xollarda qo’llaniladi:

- yirik bo’limlar va mavzularni o’tib bo’lingandan so’ng bilimlarni mustaxkamlash maqsadida;

- agar yangi material oldingi darslar bilan bog’langan bo’lsa, takrorlash yangi mavzuni o’zlashtirishga yordam bersa.

Amaliy geografiya darslarida takrorlash darsini qachon va qaysi mavzuni o’rganishda qo’llashni o’qituvchi xal qiladi. Takrolash darslarini boblar tugagandan so’ng qo’llash mumkin.

Bilimlarni umumlashtirish darsi. Mazkur darslar quyidagi tarkibiy qismlardan borat: o’quvchilarni darsni maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish; ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarni bajarish; darsni yakunlash; uyga vazifa berish. Hozirgi paytda umumlashtirish darslari keng tarqalmoqda. Ular maktab geografiya kurslarini barchasida ko’zda tutilgan. Ko’p hollarda bunday darslarni umumiylashtiruvchi takrorlash darsi ham deb ataladi. CHunki bilimlar umumlashtirilganda ular albatta takrorlanadi.

Bilimlarni umumlashtirishni axamiyati quyidagi hollarda namoyon bo’ladi:

-bilimlarni umumlashtirish o’quvchilar ongida dunyoqarash g’oyalarni shakillantirishda muxim axamiyatga ega;

- bilimlarni umumlashtirish har bir geografiya predmetidagi bilimlarni tizimlashda ya’ni tartibga solishda katta axamiyatga ega. Geografiya kursida tabiiy xududiy komplekslar, dunyoning yaxlitligi va bir butunligi, jaxon xo’jalik tizimi va h.k.

Bilimlarni tizimlashtirish deganda geografik voqea va xodisalar, obьektlarni tarqalishi va taqsimlanishi tushuniladi. Bunda geografik voqea va hodisalar hamda obьektlar o'xshash belgilarga ko'ra tizimlarga yoki guruxlarga bo'linadi. Masalan, daryo vodiylari, tekislik landshaftlari, cho'llar, rivojlanayotgan davlatlar, rivojlangan davlatlar, yevropoidlar, mongoloidlar, negroidlar va h.k.

SHuning uchun umumlashtruvchi darslarni yirik bo'limlarni o'rganib bo'lingandan so'ng o'tkaziladi.

Umumlashtiruvchi darslarning muxim xususiyatlaridan biri o'quvchilar bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish asosida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. SHuning uchun o'quvchilar o'zlarining bilimlariga asoslanib dunyoqarash g'oyalarni umumiy belgilari, tomoillari qonuniyatlarini egallash bo'yicha geografik ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

O'quvchilar bilimlarini tekshirish va xisobga olish darslari. Yirik mavzularni o'rganib bo'lgandan so'ng mazkur darslar o'tkaziladi. Bunday darslar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: dars maqsadi va vazifasini qo'yish; bilimlarni tekgshirish va xisobga olishni shakllari va usullari xaqida o'quvchilarga ma'lumotlar yoki ko'rsatmalar berish; baholash mezonlarini e'lon qilish.

Mazkur darslarni quyidagi mavzularni o'rganib bo'lgandan so'ng uyushtirish mumkin: Yer qobiqlari (5-sinf); har bir materik tabiiy sharoiti; har bir minitaqaning iqtisodiy geografik sharoiti va h.k.

VII-BOB. AMALIY GEOGRAFIYADA SLAYDLI TAQDIMOTLARNI ISHLAB CHIQISH XUSUSIYaTLARI VA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYaLARI

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'quv mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va mulьtimedia taqdimotlaridan, shu jumladan MS Power Point dasturida yaratilgan taqdimotlardan foydalanish kerakligi ta'kidlanilgan. SHuning munosabati bilan slaydli taqdimotni ishlab chiqish pedagogik texnologiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Slayd taqdimoti usuli – materiallarni og'zaki, slaydlarni namoish etish bilan bayoni.

Slaydlardan foydalanish katta axborot sig'imini nazarda tutmaydi. Slaydda keltirilgan axborotlar tarkiblashtirilgan bo'lishi kerak va vizuallashtirish qoidalari asosida ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Vizuallashtirish qoidalari

SHrift:

- Katta va qalin shrift bilan yozing.
- Imkon sari, faqat tayanch so'zlar yoki qisqa tezislar yozing.
- Tushunarli qilib yozing.
- Har xil qalinligidagi shtrixlardan va har xil o'lchamidagi shriflardan foydalaning.
- Tuzilmaga kertirilganda tagiga chizish yordam beradi.

Rang:

- Birlamchi, qoramtir, uchtadan ko'p bo'lmagan ranglardan foydalaning.
- Qizil rangdan muhim fikrlarni ajratish uchun foydalanish tavsiya etiladi.

Harflar va satrlar orasini ochib terish:

- Har doim chapdan boshlang.
- Vertikal yozishdan qoching.
- Harflar va satrlar orasini ochib terishni obdan o'ylab ko'ring.
- Sodda tuzilishga intiling.
- Bir satrda so'zlar soni oltitadan va ketma-ket qatorlar soni sakkiztadan oshmasin.

Slaydli taqdimotni ishlab chiqish pedagogik texnologiyasining texnologik chizmasi

Texnologik ishlar	***Ta'lim beruvchi faoliyati***
Texnologik ishlar	
1. Taqdimot ko'rinishini tanlash	Sladlar *soni* o'quv materialning mazmunini ochib berish uchun *ye*tarli bo'lishi kerak. Slayd dizayni taqdimot mavzusi bilan ham ohang bo'lishi kerak. Slaydlarda keltirilgan barcha axborot tuzilmaga keltirilgan bo'lishi kerak.
2. Taqdimotni umumiy rasmiylashtirishini tanlash	***Matn*** quydagicha bo'lishi zarur: yuqori axborotli; bog'lovchili; aniq va qisqa; oddiy sintaktikli, tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. ***Rasmlar*** aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. ***Jadvallar*** ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur. ***CHizmalar*** bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.
3. Slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash	***Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari:*** - birinchi slayd: taqdimot mavzusi, muallif familiyasi, bajaruvchi, yaratilgan kunidan iborat; - oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan; - boshqa slaydlar taqdimot mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
4. Slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish (o'qtituvchi-texnolog xohishiga ko'ra)	***Ovoz*** tiniq bo'lishi kerak. taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi-eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi. ***Video-tasmalar*** taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin. Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida yoki sichqonchani turtishi orqali namoyish ettiriladi (taqdimot ko'rishiga bog'liq) .

OMMAVIY INTERFAOL TA’LIM TEHNOLOGIYALAR QUYIDAGILAR SANALADI:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blits-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va b.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Kontseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b.

Interfaol ta’lim metodlari va ularni qo’llash tartibi. Ayni o’rinda bir guruh interfaol ta’lim metodlari va ularni ta’lim amaliyotida qo’llash tartibi to’g’risida so’z yuritiladi.

“Aqliy hujum” strategiyasi

Strategiya talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o’z tasavvurlari, g’oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko’nikma, malakalarni hosil qilishga rag’batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg’ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o’ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug’iladi. Strategiya mavzu doirasida ma’lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g’oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Uni samarali qo’llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:



Mashg’ulotda strategiyani qo’llashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:



GO talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1) o'qituvchi o'quvchi (talaba)larni GOni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
2) o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlarga biriktiriladi;
3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) GO

GO talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



O’quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog’ozida o’z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

GOdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:



Bosqichlar bo’yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti qo’yidagicha:

1) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi;
2) talabalarning yangi mavzu bo’yicha tushunchalarga egalik darajasi o’rganiladi;
3) talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
4) talabalarning yangi mavzu bo’yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo’lgan ehtiyojlari o’rganiladi;
5) talabalarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo’yiladi;
6) o’qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma’lumotlardan talabalarni xabardor qiladi;
7) talabalar tomonidan o’zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo’yiladi;
9) mashg’ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

“Blits-so’rov” metodi

“Blits-so’rov” (ing. “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo’nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o’qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg’ulot turi, o’rganilayotgan

mavzuning murakkabligi, talabalarning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha kechadi:



Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

"Venn diagrammasi" GO

GO talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:



GO talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



GOni qo’llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. Talabalarning e’tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“Debat” metodi

“Debat” (fr. “debattere” so’zidan olingan bo’lib, “debats” – “bahslashmoq”) texnologiyasi yig’ilish, majlis yoki mashg’ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o’rtasida o’zaro bahs uyushtirish, ularning o’zaro fikr almashishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

O’quv mashg’ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:



Klaster” GO

“Klaster” (g’uncha, to’plam, bog’lam) GO puxta o’ylangan strategiya bo’lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlarda qo’llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g’oyalarni umumlashtirish, ular o’rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

GOdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:



GO yordamida talabalar topshiriq bo'yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



"Mantiqiy chalkash zanjir" strategiyasi

Strategiya tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat.

Mashg’ulotda strategiyani qo’llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Izoh: o’qituvchi mustaqil ishlashini ta’minlash uchun har bir talabaga mazmunini biroz o’zgartirgan holda alohida topshiriq berishi mumkin..

“Nilufar guli” texnologiyasi

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo’lib, nilufar guli ko’rinishiga ega. Asos, unga birikkan to’qqizta “gulbarg” (kvadrat, to’rtburchak yoki aylanalar)larni o’z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

Talabalarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko’nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo’llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Hal etiladigan masala aniqlashtiriladi

Talabalar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiriladi

Talabalar kichik guruh (yoki juftlik)larga biriktiriladi

Guruh yoki juftlik a’zolari markaziy to’rtburchak

(kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g’oya, vazifa)ni qayd etadi

Guruh (juftlik)lar masalaning yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to’rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta shunday qo’shimcha chizmalarni hosil qiladi (ularda masalaning xususiy yechimlari bayon etiladi)

Qo’shimcha chizmalardagi g’oyalar gulning “gulbarglari”ga, ya’ni shunday alohida majmuaga olib chiqadi (ularning har biri yana bir muammo ko’rinishini oladi)

Yordamchi chizmalardagi yetakchi muammo (g’oya, vazifa) atrofidagi “gulbarglar”da xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi

O’rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin

Har bir guruh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o’z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadi

Guruhlarning yechimlari muhokama qilinib, eng to’g’ri variant aniqlanadi

O’qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg’ulotni yakunlaydi

Talabalarga quyidagi sxema namuna sifatida taqdim etiladi:



“Swot-tahlil” strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to’rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o’rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to’rt jihati tahlil qilinadi:



Mashg’ulotlarda strategiyani qo’llash tartibi quyidagicha:



Izoh: strategiyani qo'llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini talabalarning bilimi darajasiga moslab, unga tushunarli so'zlar bilan ifodalashi (o'zgartirishi) mumkin. O'qituvchi tomonidan talabalarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to'la tushunilishini ta'minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

"Sinkveyn" strategiyasi

J.Still, K.Meredis, CH.Temil tomonidan ishlab chiqilgan "O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi"da har bir talaba va talabalar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun "Sinkveyn" strategiyasini qo'llash samarali ekanligi aytiladi.

Bu o'rinda strategiyaning mohiyati bilan tanishib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn (fr. "besh qator" ma'nosini anglatadi) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (talaba) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

Sinkveyn tuzish – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun:



“Skarabey” strategiyasi

“Skarabey” (“Qo’ng’iz”) strategiyasi talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o’z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Talaba strategiyani qo’llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o’rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko’lamini aniqlash imkoniyatini qo’lga kiritadi. Strategiya, shuningdek, turli g’oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqatga erkin kirisha olish; xushfe’llik, o’zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo’lishiga qiziqish; o’z-o’zini baholash.

Strategiyadan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Ya’ni:



Mazkur strategiya talaba tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

“Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o’zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to’g’risini topishga yo’naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo’llash o’rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko’ra mashg’ulotlarda talabalar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

Insert jadvali

Grafik tashkil etuvchining turi, ahamiyati va xususiyatlari

“**INSERT**” jadvali

Mustaqil o’qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o’zlashtirgan ma’lumotlarni bog’lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O’quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi

Insert jadvalini to’ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o’zlari to’ldiradilar.

O’qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o’zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga “kiritadilar” matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

“V”- men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to’ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	+	–	?

1

KONSEPTUAL JADVAL



«Iqtisodiy tizimlar» mavzusidagi kontseptual jadval (lavha)

Iqtisodiy tizimlar	Ta’riflar, toifalar, xususiyatlar va boshq.		
	Kapitalning mulkiy shakli	*Resurslar egasi*	*Ishlab chiqarish rejalari*
Bozor iqtisodiyoti	Xususiy	Xususiy egalar	Bozor talabi asosida individual tarzda qabul qilinadi.
Ma’muriy buyruqbozlikga asoslangan iqtisodiyot	Davlat	Davlat	Markaziy reja ko’mitasi tomonidan belgilanadi 3

T – jadval

T – jadval
- bita kontseptsiya (ma’lumot)ning jihati o’zaro solishtirish yoki ularni (ha/yo’q, ha/qarshi) uchun.
Tanqidiy mushohada

T – jadval qoidalari tanishiladi.
Yakka tartibda rasmiylashtiriladi

Ajratilgan vaqt oralig’ida tartibda (juftlikda) to’ldiradi, uning chap tomoniga sabablari yoziladi, o’ng tomoniga esa chap tomonda ifoda qarama – qarshi g’oyalar, omillar va shu kabilar.

Jadvallar juftlikda (guruhda) taqqoslanishi to’ldirilishi

Barcha o’quv guruhi yagona T – tuzadi.

Navoi ko’chasidagi savdo rastalari: uyali aloqa apparatlarini iste’molchilari uchun afzalliklar va kamchiliklar (lavha)

Afzalliklar	*Kamchiliklar*
Uyali aloqa apparatlari turli tuman navlarini mavjudligi	Qalbaqi aparatlarni katta miqdorini mavjudligi
Ichki bozor uchun qulay naxtlar	Sifat qafolati yo’q
Bir turdagi do’konlarni katta miqdorini bir joyga jamlanishi	Apparatlar buzuqligi mavjud bo’lganda pulni qaytarib olish ixtimoli kamligi
Haq to’lashdi plastik kartochkadan foydalanish mumkinligi	Kafolat xizmati ko’rsatish muddatining qisqaligi yoki umuman yo’qligi
Xarid qilishda savdolashish imkoniyatini mavjudligi	Pul o’tkazish yo’li bilan xarid qilish imkoni yo’qligi

5



«Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to’g’ri to’rtburchak shakllardan foydalanishni o’zingiz tanlaysiz.
2. CHizmaning ko’rinishini - mulohazalar zanjirinito’g’ri chiziqlimi, to’g’ri chiziqli emasligini o’zingiz tanlaysiz.
3. Yo’nalish ko’rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo’lgan yo’nalishingizni belgilaydi.

“Nima uchun” sxemasi



“Qanday?” diagrammasi



8

«Qanday?» ierarxik diagrammasi – Muammoni yechishning usul va vositalari (lavha)



9



Strategiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

Strategiya quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:



Izoh: 1. Muammo bo'yicha bildirilgan qarorlar yuzasidan savollar tug'ilsa, ularga javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi.

2. Agarda barcha guruhlar muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

SHunday qilib, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Interfaol ta'limning eng muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Eng muhimi o'qituvchilar interfaol metodlarni

tanlashda o’rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo’lgan masalaga e’tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, interfaol metodlarni qo’llashda talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o’qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo’lishni taqozo etadi.

VIII-BOB. AMALIY GEOGRAFIYA FANIDAN TAQVIMIY MAVZULAR REJASI VA NAZORAT TESTLARI

Mamlakatimiz uchun malakali pedagoglar tayyorlashda amaliy geografiya fanining ahamiyati beqiyosdir. Talabalarda ma`ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonida, geografiyaning bevosita amaliyot bilan bog'liq sohalari haqida bilim va ko`nikmalar xosil qilinadi. Uning tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning alohida yo`nalishlari jumladan landshaftshunoslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, rayon planirovkasi va shaharsozlik, geoekologiya, ta`lim tizimi kabilar bilan aloqalari muhimdir.

«Amaliy geografiya» akademik litsey va kasb-xunar kollejlarida o`qitiladi hamda u ikki qismdan ya`ni tabiiy va iqtisodiy geografiya mavzularini qamrab oladi.

Uning maqsadi tabiiy muqit va resurslarni baholash, tabiiy va ijtimoiy muhitning o`zgarishini bashorat qilishdan iboratdir.

Tabiiy geografiyada uning ilmiy yo`nalishlari va tadqiqot usullariga katta ahamiyat beriladi. Ularda landshaft tadqiqotlari, meliorativ loyihalarni asoslash,, eroziya va deflyatsiya haqida umumiy ma`lumot keltiriladi. Bundan tashqari, ekologiya va tabiatdan oqilona foydalanishning geografik asoslari ko`rib chiqiladi.

Amaliy geografiyaning asosiy vazifalaridan biri landshaft xaritalari to`g'risida bilimga ega bo`lish va ular asosida baholash hamda bashoratlashni amalga oshirishdan iborat.

Yuqorida ko`rsatilgan bilimlar asosida iqtsiodiy-ijtimoiy masalalarni yoritish muhim sanaladi. Bu esa rayon planirovkasi va shaharsozlik haqida umumiy tushunchalar berishdan iborat. Bu bo`limda tabiiy resurslarga iqtisodiy baho berish, geografik ekspertiza, rayonlashtirish va iqtisodiy geografik bashorat mavzulari ko`rib chiqiladi (6.1-jadval).

6.1-jadval

№	Mavzular	Umumiy soat	Nazariy	Amaliy
1	Kirish.Amaliy geografiyaning maqsadi va vazifalari	2	2	
2	Amaliy geografik tadqiqotlar	2	2	
3	Tabiiy geografik jarayonlar	2	2	
4	JAmiyat va tabiatning o'zaro tasiri	2	2	
5	Tabiat komplekslari va ularning barqarorligi	2	2	
6	Tabiiy va inson resurslari,ularni iqtisodiy geografik baholash	2	2	
7	Oraliq nazorat. Geografik bashorat	2	2	
8	Atrof-muhit monitoringi	2	1	1
9	Geografik-Ekologik ekspertiza asoslari	2	2	
10	Ekologik muammolar vaularning yechimi	2	2	
11	Ekologik muammolarni yuzaga kelish sabablarini ochib berish	2		2
12	Ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy asoslari	2	2	
13	Sanoat korhonalarini joylashtirish va texnik loyihalarni asoslashda geografik tadqiqotlardan foydalanish	2	2	
14	Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda geografiyaning ahamiyati	2		2
15	Geosiyosat asoslari	2	2	
16	Geosiyosiy qarashlar	2	2	
17	O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi	2	2	
18	O'zbekistonning halqaro tashkilotlar bilan hamkorligi	2		2
19	Hozirgi zamon geosiyosiy muammolari	2	2	
20	Kelajak geosiyosiy vaziyatiga bar nigoh. Yakuniy nazorat	2	1	1
	Jami	**40**	**32**	**8**

BIRINCHI BO'LIM

I Bob. Amaliy geografiyaning maqsad va vazifalari

1. Amaliy geografiya nima bilan shug'illanadi?

A) Yer yuzasining tabiati va tabiiy geografik jarayonlar tahlili

B) Ishlab chiqarish muammolari va ijtimoiy muhitning o`zgarishi

C) Tabiiy va ijtimoiy muhitning o`zgarishini baholash va bashorat qilish

D) Tabiiy muhitning inson salomatligiga ta`siri va aholini xo`jalik faoliyatini baholash

2. Amaliy geografiya fanining nechta muhim vazifasi mavjud?

A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 5 ta

3. Nil daryosining suv sarfini o`rganish va bashorat qilish bo`yicha amaliy geografik ishlarni olib borgan O`rta Osiyolik qomusiy olimni toping?

A) Abu Nasr Farobiy C) Abu Rayhon Beruniy

B) Muso al- Xorazmiy D) Ahmad al-Farg`oniy

4. "Geografiya" so`zi qaysi tildan olingan?

A) Yunoncha B) Lotincha C) Inglizcha D) Arabcha

5. Amaliy geografiya tabiiy va ijtimoiy muhitni o`zgartirishda qanday tadqiqot usullaridan foydalaniladi?

1) Landshaft 2) landshaft-indikatsiya 3) geografik o`xshatish4) sistemali 5) iqtisodiy6) ikstropolyatsiya 7) ekologik 8) tizimlararo tahlil

A) 2,3,4,5 B) 1,4,5,7 C) 1,6,7,8 D) 2,3,6,8

6. "… ma`lum bir hudud yoki muammo o`rganilayotganda unga tirik mavjudotlar (o`simlik va hayvonot dunyosi) ning , insonning aloqalari nuqtayi nazaridan qaraladi"

Yuqoridagi ta`rif qaysi amaliy geografiyaning tadqiqot usuliga tegishli ?

A) Sistemali B) ekologikC) landshaft D) iqtisodiy

7. Amaliy geografiya qaysi fan(lar)ga yaqin turadi hamda u(lar)ning tajriba va ilmiy yutuqlaridan fordalaniladi?

1) Muhandislik geologiyasi 2) Muhandislik geografiyasi 3) amaliy landshaftshunoslik

A) 1 B) 2,3 C) 1,2,3 D) 1,2

8. Ekologiya atamasini fanga kim kiritgan?

A) XX asrda nemis olimi A.Veber B) XIX asrda nemis olimi E.Gekkel

C) XVIII asrda ingliz botanigi I.Gerts D) XX asrda rus olimi N.Boranskiy

9. Bugungu kunda qaysi ekologik muammo ijobiy hal etila boshlandi ?

A) Ozon "tuynugi" B) cho`llashish C) "issiqxon samarasi"

D) o`rmonsizlantirish

II Bob. AMALIY GEOGRAFIK TADQIQOTLAR

10. Amaliy geografiyaning asosiy tadqiqot yo`nalishlari keltirilgan javobni toping?

1) Agrogeografik 2) muhandis-geografik3) geosiyosiy jarayon

4) tibbiy-geografik 5) rekreatsiya 6) ekologik 7) kartografik 8) demografik

A) 1,2,4,6,8 B) 1,2,3,5,7 C) 1,2,3,4,5,6,7,8 D) 1,2,4,5,7,8

11. Qanday tadqiqotlar davomida olingan ma`lumotlar asosida har bir huquq uchun yefdan fordalanishning aniq chora-tadbirlari ishlab chiqiladi ?

A) agrogeografik B) muhandis-geografik C) landshaft

D) rayon planirovkasi

12. Daryolarning odatda, yuqori terrosalarida qanday ekinlar ekilmaydi?

A) paxta B) g`alla C) yem-xashak D) sholi

13. O`zbekiston hududining lalmikor (a) va foydalanilmaydigan (b) yerlar necha % ini egallaydi ?

1) 9,7 % 2) 1,2% 3) 50,1% 4) 35,3% 5) 33% 6) 11%
7) 9,2% 8) 1,7%

A) a – 1, b – 5 B) a – 8, b – 4 C) a – 7, b – 3 D) a – 2, b – 6

14. Ma`lum bir davlat, viloyat, tuman yoki hududda yer resurslari bo`yicha muntazam ravishda o`tkazilgan kuzatishlar natijasida yig`ilgan ma`lumotlar jamlanmasi nima deyiladi ?
A) tuproq bonitirovkasi B) agrogeografik tadqiqot C) kadastr D) rayon planirovkasi

15. Mirzako`l va Qarshi cho`llarida yerlarning zaxini qochirish uchun zovurlarning chuqurligi qancha qilib qaziladi ?
A) 2 – 3m B) 3,5 – 5 m C) 2,5 – 3,5 m D) 1-2 m

16. Sanoat korxonalarini joylashtirishda muhandis – geografik tadqiqotlar necha bosqichda o`tkaziladi ?
A) I B) II C) III D) IV

17. Aholi zich yashaydigan hududlardan ancha olisda qurilgan, tabiat va insonga salbiy ta`siri kam sanoat korxonasini aniqlang ?
A) Sho`rtan gazni qayta ishlash zavodi B) Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi
C) Quvasoy sement zavodi D) Tuyamo`yin suv ombori.

18. Hozirgi paytda tibbiy-geografik tadqiqotlar nechta yunalishda olib boriladi?
A) III B) I C) IV D) II

19. Atrof muhitning og`ir metallar, xususan, qo`rg`oshin (a), simob (b) va mishyak (c) bilan ifloslanishi inson saalomatligiga qanday tasir etadi?
1) O`pka rakini keltirib chiqaradi 2) Bolalar nutqining buzilishiga olib keladi 3) Asab tizimi, jigar va buyrakni zaharlaydi 4) gipertoniya krizlarini keltirib chiqaradi 5) modda almashuvini buzadi 6) O`pka va teri rakini keltirib chiqaradi.
A) a-5, b-3, c-1 B) a-4, b-2, c-5 C) a-3, b-5, c-6 D) a-6, b-1, c-2

20. Inson organizimi uchun qachon qulay sharoit vujudga keladi?
A) Havo harorati 24^0C, nisbiy namlik 44-60% B) Havo haroti 16-18^0C, nisbiy namlik 50%
C) Havo harorati 18-24^0C, nisbiy namlik 70-80% D) Havo harorati 20-22^0C, nisbiy namlik 55%

III Bob. TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR

21. Tabiiy geografik jarayonlarga hos ma`lumotlar orasidan to`g`ri fikirlarni sonini toping?
1) Tabiiy geografik jarayonlar tabiiy va suniy omillar tasirida sodir bo`ladi. 2) Eroziya faqat sun`iy omil ta`sirida sodir bo`ladi. 3) Suniy omillar antropogen yoki texnogen omillar deyiladi 4) Yaponiya hududi dengiz sathidan pasta joylashgan. 5) Kimyoviy nurash tasirida barqaror minerallar hosil bo`ladi.
A) 3 B) 1 C) 4 D 2

22. Toshkentda zilzila sodir bulganidan 3 yil avval qanday voqea sodir bo`lgan?
A) Peruda sel kelishi natijada 50 ming kishi halok bo`ldi
B) Amudaryo To`rtko`l shahrini butunlay yuvib ketdi
C) Italiyaning Polve Polve daryosi vodiysida, Vayont to`g`onida surilma ro`y berdi
D) Parikutin vulqonining balandligi 2800 metrga yetdi

23. Eroziya qaysi tildan olingan?
A) yunoncha B) fransuzcha C) gollandcha D) lotincha
24. Zilzilaning kuchi,necha balli shkalada aniqlanadi?
A) 9 ball B) 10ba ll C) 12 ball D) 5 ball

25. “G’isht, betondan ishlangan uylar butunlay yoki qisman buziladi,yerosti quvurlari uziladi. Qoyalar qulab,tepaliklar suriladi,yerdagi yoriqlarning eni 10 sm gacha boradi. Kuchi “o’ta vayron qiluvchi ”deya baholanadi ”. Yuqoridagi hususiyatlar necha balli zilzilaga xos?
A) 8 ball B) 9ball C) 10 ball D) 11ball

26.Rossiyaning G'arbiy Sibir pasttekkisligi nima sababdan cho'kmoqda?

A) Iqlim isib botqoqlarning quriy boshlashi hisobiga
B) Neft qazib olish natijasida
C) Astenosfera qatlami o'lkaning ostida ezilishi tufayli
D) Neft va gaz qazib olish tufayli

27.Otchasoy surilmasi oqibatida qaysi qishloq tamoman boshqa joyga ko'chirilgan?

A)Turk B)Obliq C)Teshiktosh D)Otchasoy

IV Bob. JAMIYAT VA TABIATNING O'ZARO TA'SIRI

28.Tabiat bilan jamiat o'rtasidagi o'zaro ta'siri nechta bosqichga bo'linadi?

A) III B) II C) V D) IV

29.Qaysi bosqichda inson tabiatni o'zgartirmagan balki unga moslashgan?

A) Termachilik,ovchilik va baliqchilk B) Dehqonchilik va termachilk
C) Qishloq xo'jaligi inqilobi D) O'rta asrlar

30.Tabiat bilan jamiat o'rtasida o'zaro ta'sirning nechanchi bosqichida Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Fransiya davlatlari tomonidan ulkan mustamlakalar imperiyalari vujudga keldi?

A) II B) III C) IV D) V

31.Muhandislik inshootlari qanday guruhlarga bo'linadi?

1.Transport 2.shaharsozlik 3.gidrotexnik 4. Sanoat
A) 1,2,4 B) 2,3,4 C) 1,2,3 D) 1,2,3,4

32.Qaysi sanoat insootlarinig, ayniqsa,maydoni kata va chiqindilar xajmi yirik bo'ladi?

A) Yoqilg'i,energetika sanoati inshootlari B) Metallurgiya sanoati inshootlari
C) Mashinasozlik sanoati inshootlari D) Kimyo sanoati inshootlari

33.Jahonda nechta faol vulqon bor?

A) 800 ta B) 443 ta C) 578 ta D) 927 ta

34.Tabiatda barcha tabiiy komponent va komplekslar birbiri bilan o'zaro muvozanatda bo'lishi umumgeografik qonuniyatlatning qaysi biriga mos keladi?

A) Modda va energiyaning tabiatga aylanishi B) Davriy yoki ritmik hodisalar

C) Geografik zonallik va hududiylik D) Bir butunlik

35. O'zbekiston hududi bo'yicha sug'oriladigan maydonlarga nisbatan suv ta'sirida tuproq erroziyasi(foiz xisobida viloyat maydoniga nisbatan) eng yuqori 3 ta viloyatni toping?

1. Andijon 2.Qashqadaryo 3.Surxandaryo 4.Samarqand 5.Jizzax 6.Navoiy 7.Toshkent 8.Namangan 9.Farg'ona

A) 3,4,7 B) 2,5,6 C) 1,3,8 D) 2,5,9

36. Sug'oriladigan maydonlarga nisbatan tuproqlar sho'rlanishi eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan viloyat qaysi?

A) Andijon B) Samarqand C) Toshkent D) Namangan

V Bob. TABIAT KOMPLEKSLARI VA ULARNING BARQARORLIGI

37.O'rta Osiyodagi cho'llarning qanday joylarida oq saksovul tarqalgan?

A) Sho'rxok B) Qumli C) Toshli D) To'qay

38.Tabiat kompleksi deb nimaga aytiladi?

A) Turli xildagi tabiat unsurlarining o'zaro uzviy aloqasi ta'sirida vujudga kelgan tabiat zonalari zanjiri

B) Yer yuzining tabiat komponentlarining o'zaro murakkab ta'siri natijasida tarkib topgan hamda tabiatning xususiyatlariga ko'ra boshqa joylardan farq qiladigan qismi

C) Hududiy yaxlitligi,vujudga kelishiga ko'ra bir butun, geografik tuzulishi,reylefi,tuproqlari o'simlik va hayvonot dunyosi bir xil bo'lgan tabiiy hududiy kompleks

D) Tabiatni tashkil etuvchi unsurlar

39.”Kompleks ” so’zining ma’mosi nima?

A) Yunoncha-“”uyg’unlik” C) Gollancha – “to’plam”

B) Inglizcha –“yoppasiga, bir butun” D) Lotincha –“uyg’unlik”

40.Tabiiy hamda antropogen omillar ta’sirida shakllangan va shakllanayotgan tabiiy hududiy kompleks nima deyiladi?

A) Antropogen landshaft B) Tabiiy landshaft

C) Landshaft D) Geografik landshaft

41.Antropogen landshaftlar qanday turlarga bo’linadi?

1) Agrolandshaft 2) Gidrogen 3) Seliteb 4) Sanoat

A) 1,3 B) 1,3,4 C) 1,4 D) 1,2,3,4

42.Landshaftni tashkil etuvchi birliklarning kattaligiga ko’ra tartiblang(eng kata birlik boshida).

A) Maydon>joy>fatsiya B) Fatsiya > maydon> joy

C) Joy -> maydon->fatsiya D) Urochisha->seliteb->joy

43. Botiqdagi sho’r va sho’rxoklar oq saksovulli tekis qumlar, o’ngli qumlar kabi hududlar landshaftning qaysi birligiga tegishli?

A) Fatsiya B) Joy C) Maydon D) Okrug

44.Tojikistondagi Zarafshon tumani Mirzacho’lni qaysi qismida joylashgan?

A) Janubiy B) Sharqiy C) G’arbiy D) bu tuman O’zbekistonda

45.Hududni yirik masshtabli landshaft xaritalar yordamida o’rganish ko’pincha qanday masshtabli fatsiyalar xaritasini o’rganish orqali amalga oshiriladi?

A) 1:2000 va 1:3000 B) 1:2500 va 1:5000

C) 1:5000 va 1:2500 D) 1:3000 va 1:5500

46.Pastqan joylarda yerosti suvlarini pasaytirish va sho’rlanishning oldini olish uchun nima qilish zarur?

A) Meliorativ tadbirlar o’tkazish

B) Ihota daraxtlarini o’tkazish

C) Tekislash

D) Kollektor zovur tarmoqlarini o’tkazish

47.Tojikistondagi aluminiy zavodi O'zbekiston chegarasidan qancha uzoqda joylashgan?

A) 17 km B) 5 km C) 42 km D) 25 km

48.Qaysi shaharni qurishda relief va yer osti suvlarlarni yo'nalishi hisobga olinmagan natijada tog' tarafdan shahr tomon yo'l yer osti suvlarini oqishi oqibatida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib,yerlar sho'rlanib ketgan?

A) Zarafshon B) Guliston C) Yangi Yer D) Kattaqo'rg'on

49.Landshaftlarning barqarorligi nimaga bog'liq?
1. Komponentlarning o'zaro aloqasi; 3. Komponentlarning harakati
2. Komponentlarning uyg'unligi; 4. Komponentlarning kelib chiqishi
A) 1,2 B) 1,2,3,4 C) 1,2,3 D) 1,4

50.AQShda buzilgan landshaftlardan qanday maqsadda foydalanilmoqda?

A) Yaylov B) Qishloq xo'jaligi C) Rekleatsiya D) Chiqindilarni to'plash

51. Landshaftlar o`zgarish darajasiga ko`ra necha guruhga bo`linadi?

A) II B) III C) IV D) V

52. Hozirgi kunda jahon bo`yicha(a) va O`zbekistonda(b) nechta meteorologik stansiyalar mavjud?

1) 40000 2) 37000 3) 10000 4) 12047 5) 3 6) 1 7) 36 8) 47

A) a-1, b-6 B) a-3, b-8 C) a-2, b-5 D) a-4, b-7

VI Bob. GEOGRAFIK BAHOLASH

53. Geografik baholash nechta bosqichdan iborat bo`ladi?

A) 2 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

54. Vegetatsiya davrida havo haroratining +10°C dan yuqori yig`indisi necha gradusga teng bo`lsa, o`rta pishar arpa navi yetiladi?

A) 1000 °C gacha B) 1000 °C-1400 °C gacha

C) 1400 °C-1800 °C gacha D) 1800 °C-3000 °C gacha

55. O`zbekiston tabiiy hududiy komplekslari murakkabligi darajasiga ko`ra qanday guruhlarga bo`linadi?

a) oddiy b) o`rtacha murakkab c) murakkab d) nisbatan murakkab

e) qiyin f) juda murakkab

A) a,c,f B) c,d,f C) a,b,d,e D) a,b,c,f

56. O`zbekiston tog`larida nechta issiqlik mintaqasi ajratiladi?

A) II B) III C) IV D) V

57. O`zbekistonning tekislik qismidagi issiqlik mintaqalaridan o`rtacha jazirama mintaqaga kiruvchi hududlarni toping?

A) Ustyurt platosi va Amudaryo deltasining janubiy qismlari

B) Qizilqumning kata qismi va Mirzacho`l

C) Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatining janubiy qismi

D) Xorazm vohasi, Qizilqumning janubi

58. Uzumning ertapishar, sholining ertapishar, makkajo`xorining kechpishar navlari pishishi uchun haroratlar yig`indisi necha °C ga teng bo`lishi kerak?

A) 4500 °C -5000 °C B) 3500 °C-4000 °C C) 3500 °C dan kam D) 5000 °C dan yuqori

59. Rekreatsion baholash obyekti nimalar bo`lishi mumkin?

1) landshaft 2) joy 3) maydon 4) fatsiya

A) 1,4 B) 2,4 C) 2,3 D) 1,2,3,4

60. “Eski so`qmoqlari ” mavjud bo`lgan; Ya`long`och qoyalar, bir biridan kam farq qiladigan manzaralar va yonbag`ir qiyaligi 30-60 ° bo`lgan tabiat komplekslari sifat jihatidan qanday guruhlarga kiradi?

A) juda qulay B) qulay C) kamroq qulay D) qulay emas

VII Bob. GEOGRAFIK BASHORAT

1. Fanda biror hodisa yoki biror obyekt holatini o`zgarishini oldindan ko`ra olish va ayta olish nima deyiladi?

A) Geografik bashorat B) bashoratlash C) geografik bashoratlash D) bashorat

2. Geografik bashoratlar muddatiga ko`ra necha guruhga bo`linadi?

A) II B) III C) IV D) V

3. Orol dengizi havzasi bo`yicha sanoat va kommunal xo`jaliklar uchun qancha suv sarflanadi?

A) 9,3 km^3 B) 6 km^3 C) 108,4 km^3 D) 11,4 km^3

4. BMT ekspertlarining ilmiy bashoratlariga ko`ra Yer yuzi aholisi 2040-yil qanchaga yetadi?

A) 8,5 mlrd B) 10 mlrd C) 12mlrd D) 25 mlrd

5. Geografik bashorotlarni qanday usullaridan foydalaniladi?

A) Landshaft-indikatsiya B) geografik o`xshatish C) ekstrapolyatsiya D) tizimlararo tahlil

6. Tabiat komplekslarining holatidagi mavjud bo`lgan o`zgarishlar yo`nalishini o`rganish orqali, bu o`zgarishlar kelajakda davom etadi, degan xulosa chiqarishga asoslangan geografik bashorat usulini toping?

A) Landshaft-indikatsiya B) Geografik o`xshatish C) Ekstrapolyatsiya D) Tizimlar aro tahlil

7. Qaysi bashorotlarni amalga oshirishda o`xshatish va matematik hisoblash usullaridan foydalaniladi?

A) Mahalliy B) Mintaqaviy C) Umum sayyoraviy D) Hech qaysi birida

8. Qayerlardagi cho`l yaylovlarida yuqori darajada foydalaniladi?

Ustyurt platosi 2) Surxandaryo 3) Qizilqumning shimoli-g`arbi
4) Qizilqum 5) Qarnob

A) 1,2,3,5 B) 2,4,5 C) 1,2,3 D) 1,2,3,4

9. Qaysi daraxtni “O`simliklar dunyosining begemoti” deb atashadi?

A) Sekvoyya B) Baobab C) Evkalipt D) Butilkasimon

VIII Bob. ATROF-MUHIT MONITORINGI

10.Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ma`lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimi nima deyiladi?

A) Monitoring B) Geotizm C) Ekspertiza D) Baholash

11. Monitoring tashkil qilishning 3 bosqichini kim ajratgan ?

A) N.Baranskiy B) R.Chellen C) L.Berg D) I.Gerasimov

12. BMT tarkibidagi atrof-muhit muhofazasi bo`yicha maxsus komissiya keltirilgan javobni toping?

A) YuNEP B) SKOPE C) YuNESKO D) FAO

13. O`zbekiston yerosti suvlarining ifloslanishi, noxush tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishi quyidagilarning qaysi biri tomonidan boshqariladi?

A) Qishloq va suv xo`jaligi B) Geologiya vazirligiga qarashli “O`zbekgidrogeologiyasi” korxonasi

C) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi D) Gidrometereologiya Bosh boshqarmasi

14. Yaylovlar, asosan, atrof-muhit monitoringini kuzatish va nazorat qilishning qaysi usulidan fordalaniladi?

A) Avtomatik labotatoriya B) Ko`chma laboratoriya C) Aerokosmik

D) Avtokosmik

IX Bob. GEOGRAFIK – EKOLOGIK EKSPERTIZA ASOSLARI

15. Qachondan boshlab yirik xo`jalik korxonalarini qurish va boshqa loyihali tadbirlar mutaxassislarning ruxsati bilangina amalga oshirila boshlandi?

A) XX asrning 50-yillaridan B) XX asrning 60-70-yillaridan C) XXI asrning dastlabki yillaridan D) so`nggi 10-15- yildan

16. Ekspertiza nechta usulda amalga oshiriladi?

A) 1 ta B) 3ta C) 2 ta D) 5ta

17. Ma`lum bir obyekt yoki muhandislik inshootining loyihasini o`tkazish uchun ekspertga yoki ekspertlar guruhiga taqdim etiladigan hudud transporti, hududning yoqilg`I va elektroenergiya hamda suv ta`minotiga oid ma`lumotlar qanday ma`lumotlar guruhiga kiradi ?

A) Tabiiy geografik B) Iqtisodiy geografik C) Ekologik D) Obyekt to`g`risidagi

18. Tabiiy sharoitni hisobga olmaslik natijasida Angren shahri necha marta ko`chirilgan?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

19. Buzilgan yerlarni qayta tiklash nima deb ataladi?

A) Melioratsiya B) Revalvatsiya C) Bonitirovka D) Rekultivatsiya

20. Xitoydagi “uch daryo” GESI qaysi daryoga qurilgan?

A) Yanszi B) Xuanxe C) SitszyanD) Yalutszyan

21. Quyidagi ma`lumotlardan qaysi biri noto`g`ri talqinga ega?
A) “Uch daryo” GESi amerikalik mutaxasislar tomonidan ekspertiza qilingan
B) Tuyamo`yin suv omborini qurishda to`g`on ostidan suvning chetga sizib o`tishi loyihada hisobga olinmagan
C) Asaka shahridagi yengil avtomobil zavodi ekologik ekspertizadan o`tkazilmagani tufayli salbiy ta`siri kata

D) So`x suv ombori qurilishida ekspertizadan o`tmay, selxonaga aylantirilgan

22. Kattaqo`rg`on suv omboridan yiliga qancha baliq ovlanmoqda?

A) 940-1050 sentner B) 78-80 tonna C) 150-200 tonna D) 240-250 sentner

23. Qaysi suv omborlarida to`g`on ostidan suv chetga sizib o`tmoqda?

1) Tolimarjon 2) Karkidon 3) Chimqo`rg`on 4) Uchqizil 5) J.Surxon 6) Tuyamo`yin

A) 1,3,6 B) 2,4,5 C) 1,2,3,4 D) 1,2,3,4,5,6

X Bob. EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

24.Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori qanchaga teng?
A) 3 ming tonna B) 2,5 ming tonna C) 5 mlrd tonna D) 1 mlrd tonna

25.1890-yilda Yerdagi o'rtacha harorat qanchani tashkil etgan?

A) 17.4^{o}C B) 17.54 ^{o}C C) 14.5 ^{o}C D) 1502 ^{o}C

26.Quyidagilar orasidan to'g'ri fikrlar sonini toping?

1) "Issiqxina samarasi"ni vujudga keltiruvchi gazlarning hozirgi rtish sur'ati saqlab qolinsa,har 10 yilda harorat 0,2-0,5 ^{o} ga ortib boradi
2) XX asr davomida olimlarning hisobi bo'yicha okean sathi 17,5 sm ga ko'tarilgan;
3) Amerika olimlarining bashoratiga ko'ra, 2100-yilga Dunyo okeani sathi 1,4-2,2 m ko'tariladi
4) 1980-yilda Yerdagi o'rtacha harorat 15,2 ^{o}C ni tashkil etgan;
A) 4 ta B) 3ta C) 2ta D) 1 ta

27.Ozon "tuynugi" qachondan vujudga kela boshlagan?

A) XIX asrning so'nggi yillarida B) XX asrning 30-yillarida

C) XX asrning 50- yillari D) XXI asrning dastlabki 10 yili

28.1968-1974-yillarda Sahroi Kabirning sohil mintaqasida ro'y bergan qurg'oqchilik tufayli qaysi daryo(lar) qurib qoldi?
1) Niger 2) Nil 3) Senegal 4) Sosandra
A) 1,2 B) 2,4 C) 1,3 D) 2,3

29.Har yili taxminan qancha yer to'liq buzilib, cho'lga aylanmoqda?

A) 21 mln gektar B) 9 mln gektar C) 1,0-1,5 mln km2 D) 6 mln gektar

30.1911-1960-yillar davomida suvning o'rtacha sho'rligi qancha bo'lgan?

A) 5,2-6,0 g/l B) 15-20 g/l C) 10-11 g/l D) 9,5-10 g/l

31.Orol dengizi sathini ma'lum bir balandlikda,ya'ni 33 m mutlaq balandlikda ushlab turish uchun Orolga har yili Amudaryo va Sirdaryodan qancha suv tushib turishi lozim?

A) 20 km^3 B) 30 km^3 C) 33 km^3 D) 52 km^3

XI Bob. ISHLAB CHIQARISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI

32.Ishlab chiqarish jaaaroyoni deb nimaga aytiladi?
A) Jamiat va odamlar ehtiyojini qondirish uchun moddiy ne'matlar yaratish va xizmatlar ko'rstish
B) Tabiiy resurslardan sanoat korxonaarida maxsulot yaratish
C) Moddiy shakldagi mahsulotlarni yaratish av aholini ish bilan ta'minlash.
D) Moddiy ne'mat ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga maxsulot yaratish

33.O'zbekiston aholisini necha % yoshlardan iborat?

A) 54% B) 52.5 % C) 69% D) 78 %

34.Tabiiy(yer) va inson tomonidan yaratilgan (mashinalar,tehnika, inshootlar) mehnat vositalaridan iborat ishlab chiqarish omilini toping?

A) Kapital B) Tadbirkorlik C) Mehnat D) Moddiy

35.Yuktashish, yo'l xizmati ko'rsatish, ishlab chiqarish axborotini uzatish ishlab chiqarishning qaysi guruhiga kiradi?

A) Nomoddiy ishlab chiqarish B) Moddiy ishlab chiqarish
C) Tadbirkorlik D) Ijtimoiy mehnat jarayoni

36. Madaniy-maishiy va tibbiy hizmat ko'rsatish ishlab chiqarishning qaysi guruhiga kiradi?

A) Nomoddiy ishlab chiqarish B) Moddiy ishlab chiqarish
C) Tadbirkorlik D) Ijtimoiy mehnat jarayoni

37. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda qanday omillar e'tiborga olinadi?

1) geografik o'rin 2) ekologik 3) bozor iqtisodiyoti 4) tabiiy 5) ijtimoiy 6) iqtisodiy

A) 1,2,4,6 B) 2,3,5 C) 1,4,5 D) 1,2,3,4,5,6

38. 1 tonna paxta tolasi olish uchun taxminan qancha paxta ishlatiladi?

A) 5 t B) 3 t C) 1 t D) 7 t

39. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda qaysi bir omil yetakchiligini qanday formula yordamida aniqlanadi?

A) K= $\frac{O}{M}$ B) $O = \frac{M}{K}$ C) $K = \frac{M}{A}$ D) M= $\frac{O}{K}$

40.Qaysi konda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi 17-19% ga teng?

A) Sokolay-sarbay, Kustanay B) Minas-Jerays, Karajas
C) Kochkonar, Tebenbuloq D) Lotaringiya, Kirunavara

41.Cherapoves metallurgiya kombinati Pechora kokslanuvchi ko'mir xavzasi va qaysi yarimoroldagi temir rudasi koni o'ratsida joylashgan?

A) Yamal B) Taymir C) Kola D) Kamchatka

42. 2 tonna titan ishlab chiqarish uchun qancha elektr quvvati sarflanadi?

A) 34-36 ming kVt/s B) 16-20 ming kVt/s C) 70-120 ming kVt/s D) 80-100 ming kVt/s

43.Misni tozalash temir qotishmalarining ishlab chiqarish uchun qancha elektr quvvar sarflanadi?

A) 80-10 ming kVt/s B) 40-50 ming kVt/s C)17-19 ming kVt/s D)15-20 ming kVt/s

44.Qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa,bu yerda shunga mos mashinasozlik tarmoqi yaxshi rivojlangan bo'lishi tabiiy. Xususan, O'zbekistonda (a) Belarusda (b) Ukrainada (c) Gruziyada (d) qanday mashinalar ishlab chiqariladi?

1) G'alla teradigan 2) Choy teradigan 3) Kartoshka teradigan 4) Paxta teradigan 5) Qand lavlagi teradigan 6) Uzum teradigan

A) a-1 b-5 c-4 d-6 B) a-4 b-3 c-5 d-2 C) a-3 b-2 c-1 d-4 D) a-6 b-4 c-6 d-1

45. Inson va atrof muhitga juda oz miqdorda salbiy tasir ko'rsatadigan sanoat korxonasini toping?

A) Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi B) Muborak gaz kimyo majmuasi C) Quvasoy sement zavodi D) Sho'rtan gaz kimyo majmuasi

46. Tog' vodiylarida yirik suv omborlari qurilgandan ko'ra kichikroq ya'ni,qanday hajmligini qurgan maqul?

A) 1.5-2 km^3 B) 0.2-.3 km^3 C) 4.5-5 km^3 D) 0.3-0.4 km^3

47. Kimyoviy maxsulot ishlab chiqaradihan korxonalar qayerlarda joylashtirilmagani ma'qul?

1) Aholi zich yashaydigan joydan olisda 2) Yirik daryo yoqalarida 3) Konus yig'ilmasida 4) Mamlakatning markaziy rayonlarida 5) Tog' vodiylarida

A) 1,4,5 B) 2,3 C) 2,3,5 D) 1,2,5

48.Quyidagi daryolardan qaysi biri korxonalar tashlayotgan oqava suv va chiqindilar bilan ifloslangan?

A) Piskom B) Oxangaron C) Machaydaryo D) Sangzor

49. Shahar va qishloqlarni sug'oradigan hududlarda qayerda qurilgani ma'qul?

A) Relyefning balandroq joylariga B)Sug'oriladigan joydan 3-4 km uzoqda

C) Pastqam va tekis joylarda D)Yirik daryolar yoqalariga

50.O'rta Osiyodagi eng katta suv omborlaridan maydoning ortish tartibida joylashtiring(eng kichigi boshida)?

A) Rogun->To'xtagul->Norak-> Qayroqqum

B) To'xtagul-> Qayroqqum-> Rogun->Norak

C) Norak-> Rogun-> To'xtagul-> Qayroqqum

D) Qayroqqum-> Norak-> Rogun-> To'xtagul

51. Atrof muhit holatini yaxshilash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy amaliy dasturlartdan yerning meleorativ sharoitlarini tubdan yaxshilashning litologik- geomorfologik va gidrogeologik asoslari qaysi dasturda ishlab chiqligan?

A) Suv muammolari dasturi B) Sug'oriladigan yerlar dasturi C) Ekologik muammolar dasturi

D) Arid va gumid zonalar dasturi

52. Quyidagi hududlar orasidan tabiat muhofazasiga oid hududiy muammolar mavjud bo'lganlarini aniqlang.?

1) Farg'ona vodiysi 2) Chirchiq-Ohangaron vodiysi 3) Orolbo'yi 4) Quyi Zarafshon 5) Qizilqum 6)Surxandaryo

A)3,4,6 B) 1,2,5,6 C) 2,3,4,5 D) 1,2,3,4,5,6

53.Cho'llashish jarayoniga qarshi kurash asosida,eng avvalo, qanday masshtabli cho'llashish haritasi tuzulishi lozim?

A) 1:300000-1: 500000 B) 1:200000–1:300000 C) 1:400000–1:1000000 D) 1:250000-1:600000

54.O'zbekiston hudidida so'ngi yarim asr ichida vujudga kelgan cho'lni toping?

A) Qimiraqqum B) Qoraqalpoq C) Mirzacho'l D) Orolqum

55. ”Areal” so’zi qanday so’z bilan bir xil talqinga ega?

A) Markaz B) Mintaqa C) Chegara D) Zichlik

56. Tabiatdan foydalanish mehanizminig bozor munosabatlariga o’tish sharoitida o’z ichiga oladigan element sonini toping?

1) Tabiat resurslaridan foydalanishning pulliligi 2) Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini iqtisodiy rag’bantlashtirish tuzumi 3) Atrof muhitni ifloslantirganlik uchun jarima to’lovi 4) Tabiiy resurslardan foydalanish bozorini vujudga keltirish 5) Tabiardan foydalanish bo’yicha narxlarni takomillashtirish

A) 2 ta B) 3ta C) 4 ta D) 5ta

57.Inson sug’orma dehqonchilik bilan qancha vaqtdan beri shug’illanib kelmoqda?

A) 5-6 ming yil B) 6-8 ming yil C) 8-10 ming yil D) 2-3 ming yil

58.Inson chorvachilik bilan qancha vaqtdab beri shug’illanib kelmoqda?

A) 5-6 ming yil B) 6-8 ming yil C) 8-10 ming yil D) 15-20 ming yil

59.Tog’lar chiqindilarni tarqatuvchi tekisliklar esa …….

A) to’plovchi B) ishlovchi C) qaytaruvchi D) taqsimlovchi

60.Yo’llarni loyihalashda asosan, nima e’tiborga olinadi?

A) Iqlim B) Relyef C) Tuproq D) Tog’ jinslari

IKKINCHI BOLIM

XII BOB. GEOSIYOSAT ASOSLARI

1. Qachon dunyo siyosiy xaritasining tubdan o`zgarishi, hududiy, ijtimoiy-ekologok va demografik muommolarining keskinlashuvi geosiyosat faniga bo`lgan e`tiborni kuchaytirib yubordi?
A) XX asrda B) XIX asrda C) XVIII asrda D) XX asrning 50-yillarida

2. Turli siyosiy jarayonlarni geografik sharoit (muhit)ga bog`liq holda rivojlanishini o`rganadigan fan qaysi?

A) Siyosatshunoslik B) Siyosiy geografiya C) Geosiyosat D) Demografiya

3. Geosiyosat tushinchasini fanga birinchi bo`lib, 1916-yilda R.Chellen olib kirgan. Olim qayerlik bo`lgan?

A) Nemis B) Gollandiyalik C) Angliyalik D) Shvetsiyalik

4. Kimning fikricha "har qanday davlat bir butun geografik organizm sifatida qaralmog`i lozim "deb aytgan?

A) F.Ratsel B) R.Chellen C) K.Xausxofer D) X.Makinder

5. Qaysi fan jahondagi davlatlarning turg`un (statik) holatdagi tavsifini tuzish bilan shug`ullanadi?

A) Demografiya B) Sotsiologiya C) Siyosiy geografiya D) Etnografiya

6. Geogsiyosat fanining o`rganish predmeti nima ?

A) Davlat chegaralarini nazorat qilish C) Sayyoraviy makonni nazorat qilish

B) Davlatlarning siyosiy ahvolini nazorat qilish D) Davlatlarning harbiy holatini nazorat qilish

7. Geosiyosiy bosqichlar nechta ?

A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 2 ta

8. Geosiyosiy bosqichlarning rivojlanish jarayonida qaysi bosqich o`ziga xos o`rin egallaydi ?

A) Vena B) Versal C) Potsdan D) Belovej

9. Qaysi bosqichda jahon kuchlari markazi sifatida Rossiya va Avstriya-Vengriya imperiyasi Britaniya kolonial imperiyasi, Germaniya imperiyasi, XIX asrning o`rtalaridan jahon kuchlari markazi sifatida Fransiya o`zini namoyon eta boshladi ?

A) Vena B) Versal C) Potsdan D) Belovej

10. Qachon turkiya sultoni “Usmonli turklar imperatori” maqomini qabul qildi ?

A) 1876-yili B) 1877-yili C) 1878-yili D) 1879-yili

11. Uchlik ittifoqini I jahon urushida parchalanib ketishi qaysi bosqichning boshlanishi bilan xarakterlamadi ?

A) Versal B) Vena C) Potsdan D) Belovej

12. Versal shartnomasi siyosiy yetakchilikni quruqlikda va suvlikda qaysi dabvlatlarga tegishini ta`minlab berdi ?

A) Angliya, Fransiya B) Fransiya, Angliya

C) Germaniya, Fransiya D)Fransiya, Italiya

13. Kimning rejalariga ko`ra Rossiya bir necha ta`sir doiralariga bo`linishi kerak edi?

A) Sh.Monteske B) J.Bush C) F.Ratsel D) Vilson

14. 1922-yilda Vashington konferensiyasida AQSH qaysi davlat bilan bir qatorda harbiy dengiz flotiga ega bo`lish huquqini qo`lga kiritdi ?

A) Fransiya B) Angliya C) Germaniya D) Yaponiya

15. Geografik detirminizm g`oyalari kim tomonidan rivojlantirildi?

A) Sh.Monteske B) F.Ratsel C) J.Boden D) A.Mexen

23. J.Boden fikricha inson hayoti uchun eng qulay va yaxshi sharoitlar qaysi kengliklar oralig`ida ?

A) 0^o- 20^o sh.k B) 40^o – 50^o sh.k C) 20^o – 40^o sh.k D) 40^o – 60^o sh.k

24. Sh.Monteskening fikricha ijtimoiy hayot shakllarining rivojlanishida nima hal qiluvchi ahamiyatga ega ?

A) tabiiy sharoit B) davlat kuch qudrati C) iqlim D) siyosiy jarayonlar

25. Geografik determenizm g`oyalari Germaniyada nechanchi asrlarda siyosiy geografiyadan geosiyosatgacha bo`lgan davrni bosib o`tdi ?

A) XVIII va XIX B) XIX va XX C) XVII va XVIII D) XVII va XIX

26. Determinizm qaysi tildan olingan ?

A) yunoncha B) nemischa C) fransuzcha D) lotincha

27. XIX asrning 2-yarimida kim birinchi bo`lib dunyoga geosiyosiy nigohning asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqdi ?

A) K.Xausxofer B) X.Makinder C) R.Chellen D) F.Ratsel

28. F.Ratsel tomonidan geosiyosat sohasida juda muhim bo`lgan nechta qonuniyat ishlab chiqilgan ?

A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 8 ta

29. Quyida berilgan fikrlardan Chellenga tegishlilarini ajrating ?
1) Davlat inson kabi sezuvchi, his qiluvchi, o`ylovchi mavjudotdir.
2) Katta davlatlarda geografik ekspansiyaga moyillik mavjud.
3) davlat o`z nomi bilan maqsaddir
4) Kim Rimlendni nazorat qilsa, u Yevropada hukumronlik qiladi.

A) 1,4 B) 2,4 C) 1,2 D) 1,3

35. Xartlend tarkibiga qayerlar kiradi?

1) G`arbiy yevropa 2) Rossiya 3) Sharqiy Yevropa 4) Markaziy Yevropa 5) Turkiya 6) Tibet 7) Mo`g`uliston 8) Xitoy

A)1,3,6,7,8 B)2,3,4,6,7 C) 1,2,4,6,7 D)2,5,3,7,8

36.Kim"Dunyoda huklmronlik qilishda kontinental davlatlarning imkoniyatlari behisob" dir degan?

A)K.Xausxofer B)A.Mexen C)X.Makinder D)F.ratsel

37.”Tarixda dengiz kuchlari ” asarinig muallifi kim?

A)K.Xausxofer B)A.Mexen C)X.Makinder D)F.Ratsel

38.”O’rta okean tushunchasini ” kim fanga kiritgan?

A)A.Mexen B)X.Makinder C)N.Spaykman D)J.Gottman

39. N.Spaykman davlat geosiyosiy qudratini nechta mezonlar alohida ajratib ko’rsatadi?

A)8 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 10 ta

40.Kommunikatsion nazariyaning asoschisi kim ?

A)J.Gottman B)A.Mexen C)X.Makinder D)N.Spaykman

41.K.Xausxofer qanday nazariyaning asoschisi hisoblanadi?

A) Kommunikatsion nazariya B) Kontinental blok

C) Geosiyosat nazariya D) Hayotiy makon

42.Kim Rossiyaning harbiy-siyosiy salohiyatini qisqartirishga Ukrainaning roli kata bo’lishi mimkinligini ta’kidlab o’tgan?

A)E.Rubinson B) Z.Bjezinskiy C)G.Kissijer D)S.Xangtington

49.Rossiya moliya resurslarining necha % Moskva,Sant-Peterburg, Yekaterinburg shaharlarida to’plangan?

A)80% B)85 % C)90% D)95 %

50.Qaysi davlatda 2005-yilda yig’ib olinga don salkam 95 mln tonna ni tashkil etdi?

A)Rossiya B)Xitoy C) AQSH D) Yaponiya

51.Nechanchi yilda Amerika bilan Angliya o’rtasida Versal shartnomasi imzolandi?

A)1784-yil da B)1785-yil C)1783-yil D)1787-yil

52. 2004-yilda qaysi davlatlar Yevropa ittifoqiga a'zo bo'ldi?

A)Boltiqbo'yi davlatlari B)Bolgariya,Ruminiya C)Sharqiy Yevropa davlatlari

D) A va C javoblar

53.Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan 500 ta korxonaning umimiy qiymati qancha ?

A)520 mlrd dollor B)540 mlrd dollor C)450 mlrd dollor D)550 mlrd dollor

54.Qaysi davlatlar XX asrning 70-yillaridan "Atlantik geosiyosat" olib bora boshladi?

A) Rossiya B)Xitoy C) AQSH D) Yaponiya

55.XXI asr boshlarida Xitoy (a) Va Yaponiya (b) ning tashqi savdo aylanmasi qanchaga teng bo'lmoqda?

A) a- 650 mlrd dollor; b-850 mlrd dollor B)a-850 mlrd dollor; b-650 mlrd dollor

C) a-670 mlrd dollor; b-830 mlrd dollor D) a-830 mlrd dollor; b-670 mlrd dollor

56. 1997 yil dekabr oyida Tehron shahrida Islom konferensiyasi tashkiloti azolarining nechanchi yig'ilishi o'tkazildi

A) VI B) VII C) VIII D) IX

57. Yevropa-Osiyo transkontinental avtomagistralining O'zbekiston hududidan o'tadigan yo'nalishini belgilang?

A) O'sh-Toshkent-Qarshi-Buhoro

B) Andijon-Toshkent-Termiz-Urganch

C) Andijon-Toshkent-Termiz-Qarshi-Qo'ng'irot

D) Andijon-Toshkent-Nukus- Qo'ng'irot

58. Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot qaysi?

A) MDH B) BMT C) ShHT D) NATO

59. Rossoya moliyaviy resurslarining necha foizi Moskva hissasiga to'g'ri keladi?

A) 85 % B) 90 % C) 83 % D) 80 %

60. Yirik harbiy qudratga ega davlatlarni belgilang?

A) AQSH, Rossiya, XXR B) AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya

C) Rossiya, XXR, Yaponiya

D) AQSH, Germaniya, Fransiya

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxasislar – taraqqiyot omili. Toshkent. “O’zbekiston” 1995
2. Karimov I.A. O’zbekiston XX1 asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent “O’zbekiston” 1997
3. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent.“O’zbekiston”. 1998
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: O’zbekiston, 1999. – 410 b.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. -T.: O’zbekiston, 2000. – 528 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.– T.:Ma’naviyat, 2008. -173 b.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq NMK, 1997. – 63 b.
8. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. 13-jild. -T.: O’zbekiston, 2005. – 448 b.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. -T.: O’zbekiston, 2006. – 280 b.
10. Karimov I.A. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” nomli ma’ruzasi. // Xalq so’zi, 2010 yil 13 noyabr.
11. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. -T.: O’zbekiston, 2011.-440 b.
12. Karimov I.A. O’zbekiston erishgan yutuq va marralar - biz tanlagan islohotlar yo’lining tasdig’idir. T.22. – T.: O’zbekiston, 2014.
13. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir. -T.: O’zbekiston, 2015.-304 b.
14. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o’zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo’l ochib berish

hisobidan oldinga yurishdir” nomli ma’ruzasi// Xalq so’zi, 2016 yil 16 yanvar.
15. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2014.
16. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
17. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
18. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to’g’risida" 1998 yil 5 yanvardagi 5-son Qarori.
19. Oliy ta’lim. Me’yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami. “Istiqlol” -T., 2004.
20. Abdug’aniev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent “O’qituvchi” 1995
21. Barinova I.I. Uchebnik i texnologiiya protsessa obucheniya. Geografiya v shkole, 1990, №5, s.31-33
22. Barinova I.I. Sovremenniy urok geografii. Geografiya v shkole, 2000 №6,s. 41-44.
23. Vaxobov X., Abdunazarov O’., Zaynutdinov A. Geografiya ta’limida darsliklar yaratish muammosi. O’zbekiston geografiya jamiyati axboroti. T. 2000, №21, b 188-191
24. Vaxabov X., Alimova N.X. Maxmudjo’ja Bexbudiyning «Kitobi muntaxabi jug’rofiya umumiy va namunaviy jug’rofiya» darsligi xaqida. Geogrfiya va qadriyatlar. Maqolalar to’plami T. 2001. b 162-164
25. Vaxabov X., Saydamatov F., Qalandarova M. Oliy geografiya ta’limida ekalogik bilimlar berish metodikasining va texnologiyasining dolzarb muam-molari. “Ta’lim jarayonida ekologiya fani o’qitilishining dolzarb muammolari” mavzusida ilmiy amaliy konferetsiya materiallari. Buxoro, 2004, b 67-70
26. Vaxobov X., Abduraxmonov B., Eshpo’latova N. Umumta’lim va o’rta maxsus ta’lim muassalarida geografiya ta’limining o’rni va tuzilishi. O’zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 25 jild, T.2003
27. Vaxobov X. O’zbekiston geografiyasining dolzarb nazariy va amaliy muammolari. “ Geografiya fanining dolzarb nazariy va

M U N D A R I J A

So`z boshi……..3
«Amaliy geografiya» fanining dolzarbligi va o'qitish strukturasi 4
1-Bob. Geografiya ta'limining maqsadi va vazifalari……...……8
1.1. Geografiya ta'limi metodikasi haqida shuncha.....8
1.2. Geografiya ta'limining maqsadlari va vazifalari.....10
1.3. Geografiya ta'limi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi…….12
1.4. Geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish muammolari……..14
1.4.1. Nazariy tatqiqot usullari.....15
1.4.2. Eksperimental-emprik usullar.....16
1.5. Metodik tadqiqotlar bosqichlari.....19
2-Bob. O'zbekistonda geografiya ta'limining rivojlanishi.....23
2.1. XIX arsning oxiri va XX asr boshlarida geografiya ta'limining rivojlanishi.....23
2.2. XX arsda O'zbekistonda geografiya ta'limining rivojlanishi.....26
2.3. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi.....29
2.4 Geografiya ta'limining tuzilishi va ta'lim standartlari……33
2.5. Ichki predmetlararo aloqalar.....36
3-Bob. O'qitish metodlari va ularni tanlash.....37
3.1. O'qitish metodlarini sinflashtirish.....37
3.2. Amaliy geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash texnologiyasi…….....41
3.3. Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....42
4-Bob. Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash 48
4.1. Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni ilmiy-metodik asoslari.....48
4.1.1. Geografiya ta'limining maqsadlarini aniqlash.....48
4.1.2. Geografiya ta'limi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash.....53
4.2. Didaktik o'yinlar texnologiyasi.....60
4.2.1. Tabiiy geografik o'yinlar.....61
4.2.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida didaktik o'yinlar o'tkazish texnologiyasi.....63
4.3. Modulli ta'lim texnologiyasi.....64

4.4. Hamkorlikda o’qitish texnologiyalari.....67
5 -Bob. Amaliy geografiya darsi va unga qo’yiladigan talablar.....69
5.1. Darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarini ishlab chiqish.....69
5.2. Amaliy geografiya darslarining tuzilishi.....73
5.3. Amaliy geografiya darslarini rejalashtirish……..75
5.4. O’qituvchini darsga tayyorgarligi.....77
6-Bob. Amaliy geografiya darsi turlari.....80
6.1. Kirish darsi.....80
6.2. Aralash dars.....81
6.3. Yangi mavzuni o’rganish darsi…….....83
6.4. Geografik ko’nikmalarni shakllantirish darsi…….....84
6.5. Takrorlash, umumlashtirish va bilimlarni tekshrish darslari…….....87
7-Bob. Amaliy geografiyada slaydli taqdimotlarni ishlab chiqish xususiyatlari va interfaol ta’lim texnologiyalari.....89
8-Bob. Amaliy geografiya fanidan taqvimiy mavzular rejasi va nazorat testlari……...113
Foydalanilgan adabiyotlar……....139

Mirzamahmudov O.T, Xakimov M.M,

Mirzamahmudova H.T.

AMALIY GEOGRAFIYA O'QITISH USULLARI

USLUBIY KO'RSATMA

(O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun)

Mas'ul muharrir: *Baratov A.S.*
Texnik muharrir: *Abdurahmanov B.M.*
Musahhih: *Qurbanova M*
Texnik muharrir: *Jumabayeva N*

'

"Fazilatorgtexservis" xususiy bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shaxar, A.Navoiy ko`chasi, 72-uy.